

Xudayberdiyev U.X, Xoliqulov A.N,
Babanazarova S.

STATISTIKA



SAMARQAND 2014

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND IQTISODIYOT VA SERVIS INSTITUTI

Xudayberdiyev U.X, Xoliqulov A.N, Babanazarova S.

«STATISTIKA»

FANIDAN

O'QUV-USLUBIY QO'LLANMA

Samarqand – 2014.

528/5

65, 051
X980

Xudayberdiyev U.X, Xoliqulov A.N, Babanazarova F. «Statistika» fanidan amaliy darslarni o'tish uchun o'quv-uslubiy qo'llanma.

Samarqand: SamISI. – 2014. – 216 bet.

Taqrizchilar:

Pardayev M.Q. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti i
«Menejment va statistika» kafedrasinin ; professori, i.f.d.

Usmanova D.Q. – Samarqand Davlat Universiteti dotsent , i.f.n.

Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanmadamalaka oshirish va qayta tayyorlash kurslari hamda institut barcha yo'nalish talabalariga mo'ljallangan. Undan ushbu sohaga qiziquvchilar nam foydalanishlari mumkin.


Ushbu o'quv – uslubiy qo'llanma «Statistika» fanidan TDIU tayyorlagan va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2010 yil 21 oktyabrda tasdiqlangan namunaviy o'quv dasturi asosida tayyorlandi. Dastur ikki qismdan, ya'ni «Statistika nazariyasi» va «Iqtisodiy statistika» bo'limlaridan iboratdir. O'quv – uslubiy qo'llanma «Iqtisodiy statistika» dagi (2-qism) barcha mavzularni o'z ichiga olib, unda daslab har bir mavzuni o'tish texnologiyasi, mavzu bo'yicha uslubiy ko'rsatma hamda misollarni yechish namunalari berilgan. Ular talabalarga ma'ruza savollarini yaxshi o'zlashtirishga va misollarni talabalarning mustaqil ishlashiga imkoniyat yaratib beradi. Qo'llanma berilgan misollar asosan mavzuni to'liq o'zlashtirishga qaratilgan bo'lib, sodda, ixcham va ko'plari shartli raqamlar bilan tuzilgan.

Uslubiy qo'llanma Samarqand iqtisodiyot va servis instituti "Menejment va statistika" kafedra yig'ilishida (2013 yil 4 dekabrda 5-sonli bayonnoma) hamda Samarqand iqtisodiyot va servis institut ilmiy, o'quv-uslubiy kengashida (19- dekabr 2013 yildagi 5-sonli bayonnoma) muhokama etilgan va o'quv jarayoniga tadbiq etish hamda nashr uchun tavsiya etilgan.

KIRISH

O'zbekiston bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'lini tanlab, mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga erishdi. Rivojlangan yirik mamlakatlar iqtisodiyotiga 2008 yilda boshlagan moliyaviy iqtisodiy inqiroz hali ham salbiy ta'sir ko'rsatayotgan bir vaqtda, O'zbekiston yalpi ichki mahsuloti 2010 yilda 8,5%, 2011 yilda 8,3% va 2012 yilda esa 8,2% o'sishga erishdi. Iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida statistika o'rganadigan iqtisodiy voqea va hodisalar to'g'risida real ma'lumotlar to'plash, ularni kerakli ko'rsatkichlar asosida guruhlash va umumlashtirib, davlatning boshqaruv idoralariga yetkazib berish muhim ahamiyatga ega. Buning uchun ma'lumotlar har bir faoliyat yurituvchi sub'ektlar, uyushmalar, tumanlar, viloyatlar va mamlakat miqyosida to'planishi, qayta ishlanishi va umumlashtirilishi lozim bo'ladi. Bu vazifalarni (ishlarni) iqtisodiy mutaxassislikni egallagan xodimlar bajaradi. Shuning uchun ham 230000 – «Iqtisod» va 610000 – «Xizmat ko'rsatish» sohasining deyarli barcha yo'nalish bakalavrlari o'quv rejalariga «Statistika» fani kiritilgan. Bo'lg'uvsi mutaxassislar bu fan mavzularini yaxshi o'zlashtirib, aholi va mehnat resurslari, milliy boylik, YAIM va YAMD, davlat byudjeti, institutsion birliklar asosiy va aylanma kapitali va moliyasi statistikasini o'rganishlari maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ushbu o'quv – uslubiy qo'llanma «Statistika» fanidan TDIU tayyorlagan va O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2010 yil 21 oktyabrda tasdiqlangan namunaviy o'quv dasturi asosida tayyorlandi. Dastur ikki qismdan, ya'ni «Statistika nazariyasi» va «Iqtisodiy statistika» bo'limlaridan iboratdir. O'quv – uslubiy qo'llanma «Iqtisodiy statistika» dagi (2-qism) barcha mavzularni o'z ichiga olib, unda dastlab har bir mavzuni o'tish texnologiyasi, mavzu bo'yicha uslubiy ko'rsatma hamda misollarni yechish namunalari berilgan. Ular talabalarga ma'ruza



savollarini yaxshi o'zlashtirishga va misollarni talabalarning mustaqil ishlashiga imkoniyat yaratib beradi. Qo'llanmada berilgan misollar asosan mavzuni to'liq o'zlashtirishga qaratilgan bo'lib, sodda, ixcham va ko'plari shartli raqamlar bilan tuzilgan.

O'quv – uslubiy qo'llanma 230000 – «Iqtisod» va 610000 – «Xizmat ko'rsatish» sohasining barcha yo'nalish bakalavrlariga mo'ljallangan.

Mualliflar ushbu qo'llanmadagi kamchiliklarni yoki uni takomillashtirish bo'yicha takliflarni minnatdorchilik bilan qabul qiladi.

HURMATLI TALABALARGA ESLATMA.

Talaba mavzularni yaxshi o'zlashtirishi uchun ma'ruzani yaxshi tinglab, mavzu savollari mohiyatiga tushunib, asosiy joylarini konspekt qilishi lozim. Keyinchalik bu mavzu savollarini o'quv adabiyotlaridan o'rganib to'liq o'zlashtiradi.

Har bir amaliy darsga mavzuni yaxshi o'qib, nazariy jihatdan yaxshi tayyorlanib keling. Tayyorlanish jarayonida savollar paydo bo'lsa, uni yozib qo'ying. Bu savollarni dars boshlanishidan oldin aniqlashtirib olasiz.

O'rtoqlaringiz javob berayotganda yaxshilab tinglab, ularning so'zlari noto'g'ri yoki boshqacha bo'lsa ham so'zini bo'lmang. Keyin so'z olib gapirasiz.

Gapirayotganlaringizda mavzu yoki savol bo'yicha qisqa va sodda qilib so'zlang, chunki boshqa o'rtoqlaringiz ham javob berishga (gapirishga) ulgursin.

Misollarni yechishda to'rt amal (qo'shish, ayirish, ko'paytirish, bo'lish) bajarishga emas, balki ularni bajarib, qanday ko'rsatkichni hisoblayotganingizni va ularning mohiyatiga ahamiyat bering.

Dars davomida misol va masalalar yechib, iqtisodiy ko'rsatkichlar bo'yicha xulosalar qilishga o'rganing.

1-MAVZU: AHOLI VA MEHNAT RESURSLARI STATISTIKASI

1.1. Amaliy mashg'ulotni o'qitish texnologiyasi.

Tinglovchilar soni:	Ajratilgan vaqt
O'quv mashg'ulotining shakli	Bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulotda ko'rib chiqiladigan savollar.	1. Aholi soni va tarkibini statistik o'rganish. 2. Doimiy va mavjud aholi soni, ular orasidagi bog'lanish. 3. Aholi sonini baholash, o'rtacha aholi sonini hisoblash usullari. 4. Aholi soni dinamikasi ko'rsatkichlari. 5. Aholini jinsi, millati, oilaviy holati, ma'lumotli darajasi va boshqa belgilar bo'yicha o'rganish. 6. Aholini hududlar bo'yicha joylashishi.
<i>Mashg'ulotning maqsadi:</i> aholi soni dinamikasi ko'rsatkichlari, aholini jinsi, millati, oilaviy holati, ma'lumot darajasi va boshqa belgilarini o'rgatish.	
<i>Pedagogik vazifa:</i> - aholi soni va tarkibini statistik o'rganish va muhimligini tushuntirish; - doimiy va mavjud aholi soni, ular orasidagi bog'lanish zarurligini tushuntirish; - aholi sonini baholash, o'rtacha aholi sonini hisoblash usullariga ta'rif berish; - aholi soni dinamikasi ko'rsatkichlari hisoblash usullarini ko'rsatib berish; - aholini jinsi, millati, oilaviy holati, ma'lumot darajasi va boshqa belgilarini o'rgatish, amaliy ahamiyatini izohlab berish. - aholini hududlar bo'yicha joylashishiga izoh berish.	<i>O'quv faoliyatining natijasi:</i> - aholi soni va tarkibini statistik o'rganish muhimligini tushuntirib beradilar; - doimiy va mavjud aholi soni, ular orasidagi bog'lanish va zarurligini tushuntirib beradilar; - aholi sonini baholash, o'rtacha aholi sonini hisoblash usullari tasvirlab beradilar; - aholi soni dinamikasi ko'rsatkichlarini hisoblash usullarini ko'rsatib beradilar; - aholini jinsi, millati, oilaviy holati, ma'lumotli darajasi va boshqa belgilar bo'yicha o'rganish amaliy ahamiyatini izohlab beradilar; - aholini hududlar bo'yicha joylashishini izohlab beradilar.
<i>O'qitishning usuli va texnika</i>	Vizual-amaliy mashg'ulot, «aqliy hujum», Blis-so'rov, va masala yechish;
<i>O'qitish vositasi</i>	Tarqatma materiallar, slaydlar, proyektor.
<i>O'qitishning shakli</i>	Jamoat, frontal, guruhda ishlash
<i>O'qitish shartlari</i>	Texnik vositalar bilan ta'minlangan va kichik guruh bilan ishlashga moslashgan auditoriya
<i>Monitoring va baholash</i>	Savol-javob

1.2. Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasisi

Ish jurayonlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	Tinglovchi
1- bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mavzu nomini, maqsad va vazifalarini aytadi. 1.2. Mashg'ulotni olib borish shakli va o'quv faoliyatini baholash mezonlarini bilan tanishtiradi 1.3. O'quv muammosini hal qilish jarayonida faol ishtirok etish uchun talabalarga kerak bo'ladigan zaruriy bilimlar darajasini belgilaydi.	1.1. Eshitishadi 1.2. O'z fikrlarini bildiradi. 1.3. Tinglaydi.
2- bosqich. Asosiy qism. (40-min.)	2.1. Talabalar bilan topshiriqlarni bajarish usullarini muhokama qiladi. 2.2. Ish oxirida qanday natijalar kutilishini tushuntiradi. Guruhlardagi talabalarning birgalikdagi faoliyati natijalarini taqdimot etish shakllarini aytadi. Har bir talaba va guruh uchun baholash mezonini aytadi 2.3. Talabalarni guruhlariga ajratadi. Topshiriqlarni guruhlariga tarqatadi, topshiriq bajarishda qanday qo'shimcha materiallardan foydalanish mumkinligini tushuntiradi. 2.4. Kuzatuvchi sifatida guruhda ishlashni tashkil etadi, ammo bunda: - ishlayotgan guruhni nazorat qiladi, lekin ularni boshqarmaydi. - yakka tartibda ishlashga e'tibor beradi, topshiriqlarni bajarishda aqliy hujum orqali muammoli topshiriqlarni yechish qonunlari bilan tanishtiradilar	2.1. Topshiriqlar ni muhokama qiladi. 2.2. Mashg'ulot materiali va instruksiyasi bilan tanishadi. 2.3. Eshitishadi, guruhlariga bo'linadi 2.4. Guruh ichida savollarni bo'ladi.
3- bosqich Prezentatsiya (10 min.)	3.1. Prezentatsiyani tashkil qiladi. Darsni yakunlaydi. Guruhlar faoliyatining ijobiy tomonlarini, muvaffaqiyatlarini aytib o'tadi. 3.2. Bajarilgan ishning kelgusidagi kasbiy faoliyati uchun naqadar muhimligini ko'rsatadi..	3.1. Prezentatsiya da qatnashishadi, qo'shimcha qilishadi, baholashadi.
4- bosqich. Yakunlovchi (5 min.)	4.1. Bajarilgan ishlarga xulosa yakunlaydi. 4.2. Mustaqil ishlash uchun keyingi Amaliy mashg'ulotga «Hozirgi kunda O'zbekistondagi aholi soni darajasi va uni aniqlash yo'llari» mavzusida referat yozib kelish topshirig'i beradi.	Eshitishadi va yozib olishadi. O'UMga qarang

1.1. Uslubiy ko'rsatmalar va masalalarning yechilishi

Jamiyat – mahsulot ishlab chiqaruvchilar va iste'mol qiluvchilar ya'ni aholi soni va tarkibiga bog'liq. O'zbekiston aholisi yildan – yilga yuqori sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Aholi soni va tarkibini o'rganishning asosiy usuli ro'yxatga olishdir. Aholini ro'yxatga olish ularni bir vaqtda yoppasiga (to'liq) kuzatish usuli bo'lib, natijada aholining soni, ularning jinsi, yoshi, millati, ma'lumoti va boshqa xususiyatlari bo'yicha tarkibini aniqlashga imkoniyat yaratadi.

Aholini ro'yxatdan o'tkazish – ularning har birini hisobga olish bo'lib, juda katta kuch va mablag', hamda tayyorgarlikni talab etadi. Shuning uchun ham aholini ro'yxatga olish ma'lum muddatlarda, ko'pincha hukumat qarorlariga asosan o'tkaziladi. Sobiq SSSR paytida aholi ro'yxati bir necha bor o'tkazilgan. Aholi ro'yxati keyingi yillarda 1970 yil 15 yanvar, 1979 yillarda bo'lib o'tgan, O'zbekistonda oxirgi marta aholini ro'yxatga olish 1989 yil bo'lgan edi.

O'zbekiston aholisining yuqori sur'atlar bilan ko'payishiga tug'ilishning yuqoriligi, o'limning kamayganligi, nikohning ko'pligi, oilaning mustahkamligi kabi omillar ta'sir qiladi.

Aholi sonining o'sishi tabiiy va mexanik tarzda sodir bo'ladi. Aholining tabiiy o'sishi tug'ilish va o'lim o'rtasidagi farqdir.

Aholining sonini hisoblashda va ro'yxatga olish jarayonida doimiy va mavjud aholi, vaqtincha yo'qlar va vaqtincha yashovchilar sonini hisobga olish zarur.

Mavjud aholi deb ro'yxatga olish vaqtida (paytda) shu joyda bo'lgan aholi soniga aytiladi. Lekin aholini ro'yxatga olish paytida mazkur aholi punktidan boshqa joylarga vaqtinchalik turli sabablar bilan ketganlar (6 oydan ozroq muddatga) bo'lishi mumkin. Bunday aholilar vaqtinchalik yo'qlar deyiladi va ro'yxatga olishda ular shu punkt aholi soniga qo'shiladi. Xuddi shunday aholini ro'yxatga olishda, mazkur punktda vaqtinchalik bo'lib turganlar ham bo'lishi mumkin (xizmat safarida, mehmonda va boshqa sabablar bilan). Ular

ro'yxatga olishda bor bo'lib, mavjud aholi soniga qo'shiladi, lekin shu punktda doimiy yashaydigan aholi soniga qo'shilmaydi.

Doimiy aholi deganda aholi punktida doimiy yashaydigan (6 oydan ko'proq muddat yashaydigan) aholi soni tushuniladi. Demak, aholi ro'yxatini olayotgan paytida, doimiy yashaydigan aholining ma'lum qismi, ushbu punktda vaqtinchalik yo'q bo'lishi mumkin. Shu vaqtning o'zida ushbu punktda ro'yxatga olish paytida vaqtincha yashayotganlar ham bo'lishi mumkin.

Mavjud aholiga (MA) ro'yxatga olish paytida ushbu punktda vaqtincha yo'q (VY) aholi sonini qo'shib, bu punktda vaqtincha bo'lganlar (VB) sonini chiqarib tashlasak, shu punktda doimiy yashaydigan (DYA) aholi sonini aniqlaymiz:

$$DYA = MA + VY - VB.$$

Demak, mavjud aholi soni, shu punktda doimiy yashovchi aholi soniga vaqtincha yo'qlar (VY), sonini ayirib vaqtincha bo'lganlarni (VB) qo'shish lozim.

$$MA = DYA + VB - VY.$$

Statistika bo'yicha aniqlangan, doimiy yashovchi va mavjud aholi sonlari xalq xo'jaligi tarmoqlarini joylashtirish va rivojlantirish istiqbollarini belgilashda, hamda aholi harakati sabablarini (ayniqsa vaqtincha yo'qlar va vaqtincha bo'lganlar soni) o'rganishda katta ahamiyatga ega. Hududdagi doimiy aholi soniga qarab, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish tarmoqlarini, o'quv yurtlarini tashkil qilishni rejalashtirish mumkin. Mavjud aholi sonini, ularni oziq-ovqat va boshqa tovarlar bilan ta'minlashda, transport tarmoqlarini rivojlantirishda foydalanish mumkin bo'ladi.

Albatta aholi soni muhim ko'rsatkich bo'lib, boshqa juda ko'p iqtisodiy – ijtimoiy ko'rsatkichlarni hisoblashda qo'llaniladi. Masalan, oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarining, kasalxonalarning mavjudligi, har 1000 kishiga oliy, o'rta maxsus ma'lumotli mutaxassislarning to'g'ri kelishi va hokazo. Lekin aholi soni ko'pincha yil boshidagi sanaga yoki ma'lum davrlarga beriladi. Statistik ma'lumotlar ma'lum davrlarga hisoblangani uchun, aholining o'rtacha soni asosida

aniqlanadi. Aholining o'rtacha soni ma'lumotlar qanday bo'lishiga qarab, bir necha usullarda aniqlanishi mumkin.

I. Agarda faqat aholi sonining ikki davrga ma'lumotlari mavjud bo'lsa, u holda aholining o'rtacha soni oddiy arifmetik o'rtacha formulasi bo'yicha hisoblanadi. Masalan, O'zbekiston aholisi 1997 yil boshiga 23443,7 ming kishi, 1998 yil boshiga esa 23867,0 ming kishini tashkil etgan. Demak, Respublika aholisining 1997 yilda o'rtacha sonini topish uchun

$$A = \frac{23443,7 + 23867,0}{2} = 23655,5 \text{ ming kishi bo'lgan.}$$

II. Agar aholi soni har oy boshiga berilgan bo'lsa, bunda aholining o'rtacha sonini xronologik usul bilan aniqlanadi.

$$A = \frac{A_1 + A_2 + A_3 + \dots + A_n}{P - 1}$$

Masalan, mazkur tumanda aholi soni bo'yicha qo'yidagi ma'lumotlar mavjud:

Sanalar	01.01 2011 y	01.02	01.03	01.04	01.05	01.06	01.07	01.08	01.09	01.10	01.11	01.12	01.01 2012 y
Aholi soni ming kishi	120,0	120,5	120,8	121,0	120,4	119,6	120,4	121,2	121,8	122,0	122,6	122,4	123,0

$$A = \frac{120 + 120,5 + 120,8 + 121 + 120,4 + 119,6 + 120,4 + 121,2 + 121,8 + 122 + 122,6 + 122,4 + 123}{13 - 1} =$$

21,2 ming kishi

III. Agarda aholi soni to'g'risidagi ma'lumotlar ma'lum davr mobaynida teng bo'lmagan intervallarda ma'lum bo'lsa, unda aholining o'rtacha soni o'rtacha tortilgan xronologik tarzda hisoblanadi.

$$A = \frac{\sum A \times t}{\sum t}; \text{ bu yerda } t \text{ vaqt oralig'i.}$$

Masalan: Aholi soni 2010 yil 1 yanvarga → 120,0 ming kishi,

1 mayga → 120,4 ming kishi, 1 avgustga → 121,2 ming kishi va 2011 yil 1 yanvarga → 123,0 ming kishi bo'lsin. Bunday ma'lumotlar bilan aholining o'rtacha soni qo'yidagicha hisoblanadi:

$$A = \frac{120,0 + 120,4}{2} = 120,2 \text{ ming kishi; davr muddati} = 4 \text{ oy;}$$

Shunday tarzda boshqa oylar bo'yicha ham aniqlaymiz.

O'rtacha aholi soni:

$$A = \frac{(120,2 \times 4) + (120,8 \times 3) + (122,1 \times 5)}{4 + 3 + 5} = \frac{1453,77}{12} = 121, \text{ ming kishi.}$$

Aholi va mehnat resurslari statistikasi mavzusining ayrim masalalarining hisoblanish tartibi bilan quyidagi shartli misollarda tanishib chiqaylik.

1. Tumanlardan birida istiqomat qiluvchi aholi soni 2010 yilning boshida 80,0 ming kishini, yil davomida tug'ilganlar 6,2 ming kishini, o'lganlar 3,2 ming kishini tashkil qilganligi ma'lum bo'lsa, tug'ilish, o'lish va tabiiy o'zgarish koeffitsiyentlarini hisoblash talab etilsin.

Yechish: Talab etilgan ko'rsatkichlarni hisoblash uchun, dastlab aholining yil oxiridagi soni va o'rtacha yillik sonini aniqlash lozim.

Aholining yil oxiridagi sonini aniqlash uchun aholining yil boshidagi soniga, tug'ilganlar sonini qo'shib, o'lganlar sonini chegirib tashlaymiz, ya'ni

$$A_o = A_b + T - O' = 80,0 + 6,2 - 3,2 = 83,0 \text{ ming kishi}$$

Demak, aholining yil oxiridagi soni 83,0 ming kishini tashkil etgan. Aholining o'rtacha yillik sonini aniqlash uchun oddiy arifmetik o'rtacha formulasidan foydalanamiz:

$$\overline{A} = \frac{A_b + A_o}{2} = \frac{80,0 + 83,0}{2} = \frac{163,0}{2} = 81,5 \text{ ming kishi}$$

Tug'ilish koeffitsiyenti quyidagicha hisoblanadi:

$$K_t = \frac{T \times 1000}{A}$$

Bu yerda: K_t – tug'ilish koeffitsiyenti;

T – tug‘ilganlar soni:

$\bar{A}$ – aholining o‘rtacha yillik soni.

$$K_T = \frac{T \times 1000}{\bar{A}} = \frac{6,2 \cdot 1000}{81,5} = \frac{6200}{81,5} = 76,07 \approx 76,1\%$$

O‘lish koefitsiyenti:

$$K_Y = \frac{\bar{Y} \cdot 1000}{\bar{A}} = \frac{3,2 \cdot 1000}{81,5} = \frac{3200}{81,5} = 39,26 \approx 39,3\%$$

Tabiiy o‘zgarishlar koefitsiyenti (K_Δ):

$$K_\Delta = \frac{(T - \bar{Y}) \cdot 1000}{\bar{A}} = \frac{(6,2 - 3,2) \cdot 1000}{81,5} = \frac{3,0 \cdot 1000}{81,5} = \frac{3000}{81,5} = 36,8\%$$

yoki tabiiy o‘zgarish koefitsiyenti tug‘ilish va o‘lish koefitsiyentlari o‘rtasidagi farq bilan ham aniqlanilishi mumkin:

$$K_\Delta = K_T - K_Y = 76,1 - 39,3 = 36,8\%$$

2. Tumanlardan biridagi mavjud aholi 1 yanvar 2010 yil holati bo‘yicha 90,0 ming kishini, jumladan vaqtincha yashovchilar 1,2 ming kishini tashkil etganligi ma‘lum. Doimiy yashovchi aholidan 4,5 ming kishi esa vaqtincha yo‘qlar sonini tashkil etgan. Tumandagi doimiy aholi sonini aniqlash talab etilsin.

Yechilishi: quyidagi shartli belgilashlardan foydalanamiz:

Mavjud aholi soni –MA;

Doimiy aholi soni –DA;

Vaqtincha yashovchilar-VYA;

Vaqtincha yo‘qlar –VY

Bu yerdan:

$$DA = MA - VYA + VY = 90,0 - 1,2 + 4,5 = 93,3 \text{ ming kishi.}$$

Demak, doimiy aholi 93,3 ming kishini tashkil etgan.

3. Joriy yil boshidagi aholining soni 90,0 ming kishini, mehnat resurslarining soni esa, 40,0 ming kishini tashkil etgan. Oldingi yillardagi tug'ilish o'rtacha yillik koeffitsiyenti 18,2% ni, o'lish koeffitsiyenti +3,0%ni tashkil etganligi va agarda tabiiy va migratsiya harakat ko'rsatkichlari o'zgarishsiz 97% bo'lib qolsa, mehnat resurslarining jami aholidagi hissasi birinchi yil uchun 1 pog'onaga, ikkinchi yil uchun 2 pog'onaga, uchinchi yil uchun 1 pog'onaga, to'rtinchi yil uchun 3 pog'onaga, beshinchi yil uchun 2 pog'onaga dastlabki yilga nisbatan pastligi ma'lum bo'lsa, mehnat resurslarining sonini 5 yil oldin bashorat (prognoz) qiling.

Yechilishi: Aholining bashorat qilinadigan sonini aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalanamiz:

$$A_n = A_o \left(1 + \frac{K}{1 - \frac{1}{2} \cdot K} \right);$$

Bu yerda,

An -aholining bashorat qilinadigan soni;

Ao-aholining boshlang'ich (asos qilib olingan) soni;

K-aholining umumiy o'sish koeffitsiyenti.

Bizning misolimizda $K = 18,2 - 9,7 + 3 = 11,5$ yoki $K = 0,0115$;

Bu yerda $A_7 = 90 \left(1 + \frac{0,0115}{1 - 0,00575} \right) = 90(1 + 0,0116) = 90 \cdot 1,0116 = 91,044$

$A_2 = 91,044 \times 1,0116 = 92,1$;

$A_3 = 92,1 \times 1,0116 = 93,17$;

$A_4 = 93,17 \times 1,0116 = 94,25$;

$A_5 = 94,25 \times 1,0116 = 95,3$;

Boshlang'ich yilda mehnat resurslarining hissasi:

$40,0 : 90,0 = 0,444$ yoki $44,4\%$;

1 - yil : $44,4 - 1 = 43,4\%$;

2 - yil : $44,4 - 2 = 42,4\%$;

3 - yil : $44,4 - 1 = 43,4\%$;

4 - yil : $44,4 - 3 = 41,4\%$;

$$5 - \text{yil} : 44,4 - 2 = 42,2\%.$$

Shunday qilib, mehnat resurslarining soni:

$$1 - \text{yil } 39,5 \text{ ming kishi } (91,044 \times 43,4) / 100;$$

$$2 - \text{yil } 39,05 \text{ ming kishi } (92,1 \times 42,4) / 100;$$

$$3 - \text{yil } 40,44 \text{ ming kishi } (93,17 \times 43,4) / 100;$$

$$4 - \text{yil } 39,02 \text{ ming kishi } (94,25 \times 41,4) / 100;$$

$$5 - \text{yil } 40,22 \text{ ming kishi } (95,3 \times 42,2) / 100.$$

4. Shahar aholisi yil boshida 240 ming kishini tashkil etdi. Yil mobaynida 30 ming kishi tug'ildi, 11 ming kishi o'ldi. Shahar aholisining o'rtacha yillik sonini, tug'ilish, o'lish va tabiiy o'zgarish koeffitsiyentlarini hisoblang.

Yechilishi:

Dastlab, yil oxiridagi aholi sonini aniqlaymiz:

$$1) A_o = A_b + T - O' = 240 + 30 - 11 = 259 \text{ ming kishi.}$$

2) Aholi o'rtacha yillik sonini aniqlaymiz:

$$\bar{A} = \frac{A + A_o}{2} = \frac{259 + 240}{2} = 249,5 \text{ ming kishi.}$$

3) Tabiiy o'sish koeffitsiyenti.

$$K_{TO}' = \frac{T - O'}{\bar{A}} = \frac{30 - 11}{249,5} = 0,076 \text{ ming kishi.}$$

$$K_{TO} = 7,6 \%$$

5. 2010 yilning 1 sentyabriga 4 yoshdan olti yoshgacha bo'lgan bolalar soni to'g'risida quyidagi ma'lumotlar ma'lum.

Bolalar yoshi	Bolalar soni
4	10000
5	9600
6	9200

Yoshlar bo'yicha quyidagi o'lish koeffitsiyentlaridan foydalanib 1-3 sinf o'quvchilarining 2013 yil 1 Sentyabrga kutiladigan sonini (mexanik harakat hisobga olinmasdan) hisoblang:

Bolalar yoshi	O'lish koeffitsiyenti foizlarda
4	2,2
5	1,9
6	1,6
7	1,2
8	0,8

Yechilishi:

$Ko' = 100 - 2,2 = 97,8$ yoki $0,978$	4	$10 * 0,978 = 9,78$
$Ko' = 100 - 1,9 = 98,1$ yoki $0,981$	5	$9,78 * 0,981 = 9,59$
$Ko' = 100 - 1,6 = 98,4$ yoki $0,984$	6	$9,59 * 0,984 = 9,43$
$Ko' = 100 - 1,2 = 98,8$ yoki $0,988$	7	$9,43 * 0,988 = 9,31$
$Ko' = 100 - 0,8 = 99,2$ yoki $0,992$	8	$9,31 * 0,992 = 9,23$

1.2. Amaliy mashg'ulotlar uchun misollar

1.2.1. Shahar aholisi to'g'risida quyidagi ma'lumotlar ma'lum, ming kishi hisobida:

t/r	Mavjud aholi	Soni (ming kishi)
1	yil boshidagi mavjud aholi	92,0
	Jumladan: a) vaqtincha yashovchilar	7,0
	b) vaqtincha yo'qlar:	5,0
2	yil mobaynida:	
	a) tug'ilganlar	4,8
	jumladan, doimiy aholidan	3,5
	b) o'lganlar	1,2
	jumladan, doimiy aholidan	1,1
	s) doimiy yashash uchun kelganlar	7,4
	d) vaqtincha yo'qlar	4,1
	e) doimiy yashovchi aholidan	1,3
	boshqa shaharlarga doimiy yashash uchun ketganlar	

Aniqlansin:

- 1) mavjud aholining yil oxiridagi soni;
- 2) doimiy aholining yil boshi va oxiridagi soni;
- 3) doimiy aholi uchun tug'ilish, o'lish, tabiiy o'sish, hissiylik ko'rsatkichlari.

1.2.2. Shahar bo'yicha aholi soni to'g'risida quyidagi ma'lumotlar ma'lum:

t/r	Mavjud aholi	Soni (ming kishi)
1	Yil boshidagi mavjud aholi	312,0
2	Vaqtincha yashovchi aholi	6,0
3	Vaqtincha yo'qlar	4,0
Yil mobaynida quyidagi o'zgarishlar sodir bo'ldi:		
1	Doimiy aholi hisobiga tug'ildi	9,0
2	Vafot etdi	4,3
3	Doimiy yashash uchun keldi	7,2
4	Vaqtincha yo'qlardan qaytib keldi	3,0
5	Boshqa shaharlarga doimiy yashash uchun ko'chib ketdi	1,2
6	Vaqtincha yashovchi aholidan shahardan ko'chib ketdi.	3,2

Aniqlansin:

- 1) yil oxiridagi mavjud aholi soni, yil boshi va oxiridagi doimiy aholi soni;
- 2) shahar aholisining umumiy, tabiiy va mexanik o'zgarishi.

1.2.3. Shahar bo'yicha aholi soni to'g'risida quyidagi ma'lumotlar ma'lum:

t/r	Mavjud aholi	Soni (ming kishi)
1	Yil boshidagi mavjud aholi	425,0
2	Vaqtincha yashovchi aholi	5,8
3	Vaqtincha yo'qlar	3,7
Yil mobaynida quyidagi o'zgarishlar sodir bo'ldi:		

1	Doimiy aholi hisobiga tug'ildi	9,2
2	Vafot etdi	3,1
3	Doimiy yashash uchun keldi	8,3
4	Vaqtincha yo'qlardan qaytib keldi	2,8
5	Boshqa shaharlarga doimiy yashash uchun ko'chib ketdi	1,5
6	Vaqtincha yashovchi aholidan shahardan ko'chib ketdi.	2,1

Aniqlansin:

- 1) Yil oxiridagi mavjud aholi soni.
- 2) Yil boshi va oxiridagi doimiy aholi soni.
- 3) Shahar aholisining umumiy, tabiiy va mexanik o'zgarishi.

1.2.4. Shahar bo'yicha aholi soni to'g'risida quyidagi ma'lumotlar ma'lum:

t/r	Mavjud aholi	Soni (ming kishi)
1	Yil boshidagi mavjud aholi	357,0
2	Vaqtincha yashovchi aholi	5,7
3	Vaqtincha yo'qlar	2,8
Yil mobaynida quyidagi o'zgarishlar sodir bo'ldi:		
1	Doimiy aholi hisobiga tug'ildi	8,7
2	Vafot etdi	3,4
3	Doimiy yashash uchun keldi	5,6
4	Vaqtincha yo'qlardan qaytib keldi	2,8
5	Boshqa shaharlarga doimiy yashash uchun ko'chib ketdi	1,3
6	Vaqtincha yashovchi aholidan shahardan ko'chib ketdi.	1,1

Aniqlansin:

- 1) Yil oxiridagi mavjud aholi soni;
- 2) Yil boshi va oxiridagi doimiy aholi soni;
- 3) Shahar aholisining umumiy, tabiiy va mexanik o'zgarishi.

1.2.5. Yil boshida tumanda yashovchi doimiy aholi 219,0 ming kishini tashkil etdi, shu jumladan 15 dan 49 yoshgacha bo'lgan

ayollar 58,0 ming kishini, mavjud aholining soni esa 230,0 ming kishini tashkil etdi.

Yil oxirida esa doimiy aholi 270,0 ming kishini, jumladan 15 - 49 yoshgacha bo'lgan ayollar 75,0 ming kishini tashkil etdi. Mavjud aholi esa 270,0 ming kishi. Tumanda yil mobaynida 4,9 ming kishi tug'ildi, jumladan doimiy aholidan 3,7 ming kishi halok bo'ldi.

Aniqlansin:

- 1) Aholining o'rtacha yillik soni;
- 2) Tug'ilish koeffitsiyenti:
 - a) Doimiy aholi hisobiga;
 - b) Mavjud aholi hisobiga;
- 3) Tug'ilishning maxsus koeffitsiyenti;
- 4) O'lish koeffitsiyenti:
 - a) Doimiy aholi hisobiga;
 - b) Mavjud aholi hisobiga;
- 5) Tabiiy o'zgarish koeffitsiyenti:
 - a) Doimiy aholi hisobiga;
 - b) Mavjud aholi hisobiga.

1.2.6. Shahar bo'yicha aholi soni to'g'risida quyidagi ma'lumotlar ma'lum:

t/r	Mavjud aholi	Soni (ming kishi)
1	Yil boshidagi mavjud aholi	234,5
2	Vaqtincha yashovchi aholi	4,2
3	Vaqtincha yo'qlar	2,1
Yil mobaynida quyidagi o'zgarishlar sodir bo'ldi:		
1	Doimiy aholi hisobiga tug'ildi	7,3
2	Vafot etdi	2,8
3	Doimiy yashash uchun keldi	5,7
4	Vaqtincha yo'qlardan qaytib keldi	4,1
5	Boshqa shaharlarga doimiy yashash uchun ko'chib ketdi	0,7
6	Vaqtincha yashovchi aholidan shahardan ko'chib ketdi.	2,3

Aniqlansin:

- 1) Yil oxiridagi mavjud aholi soni;
- 2) Yil boshi va oxiridagi doimiy aholi soni;
- 3) Shahar aholisining umumiy, tabiiy va mexanik o'zgarishi.

1.2.7. Shahar aholisi yilning boshida 283,0 ming kishini tashkil etgan. Yil mobaynida 58,0 ming kishi tug'ildi, 21,0 ming kishi esa vafot etdi. Shahar aholisining o'rtacha yillik sonini, tug'ilish, o'lish va tabiiy o'sish koeffitsiyentlarini hisoblang.

1.2.8. 2009 yil 1 sentyabrigacha 4 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalar soni:

Bolalarning yoshi	Bolalar soni
4 yosh	9870
5 yosh	9700
6 yosh	9500

Quyidagi yoshlar bo'yicha o'lish koeffitsiyentlaridan foydalanib, 1-3 sinf o'quvchilarining 2011 yil 1 sentyabrga kutilayotgan sonini (mexanik harakat hisobga olinmasdan) hisoblang:

Bolalarning yoshi	O'lish koeffitsiyenti %
4 yosh	1,8
5 yosh	1,4
6 yosh	1,6
7 yosh	1,3
8 yosh	0,5

1.2.9. Viloyatdagi mehnat resurslarining soni 1.01.2010 yili 730,0 ming kishi; 1.02.2010 yili 750,0 ming kishi; 1.06.2010 yili 810,0 ming kishi; 1.09.2010 yili 865,0 ming kishi; 1.12.2010 yili 855,0 ming kishi; 1.01.2011 yili 872,0 ming kishini tashkil etganligi ma'lum bo'lsa, viloyat bo'yicha mehnat resurslarining o'rtacha yillik sonini aniqlang.

1.2.10. Aholi tarkibi to'g'risida quyidagi ma'lumotlar mavjud:

Aholining yoshiga qarab guruhlar	Aholi soni, ming kishi (1.01.2010 y.)
Ishchi yoshigacha(0-15) bo'lgan aholi	240,0
Ishchi (erkaklar 16-59, ayollar 16-54)	270,2
Ishchi yoshidan keyingi (erkaklar 60 va undan yuqori, ayollar 55 va undan yuqori)	214,0

Aniqlansin:

- 1) Mehnatga qobiliyatli aholining hissasi;
- 2) Ishchi yoshida bo'lmagan aholi hissasi;
- 3) Mehnat resurslarini qoplanish koeffitsiyenti.

1.2.11. Aholi tarkibi to'g'risida quyidagi ma'lumotlar mavjud:

Aholining yoshiga qarab guruhlar	Aholi soni, ming kishi (1.01.2010 y.)
Ishchi yoshigacha (0-15) bo'lgan aholi.	100,0
Ishchi (erkaklar 16-59, ayollar 16-54)	230,5
Ishchi yoshidan keyingi (erkaklar 60 va undan yuqori, ayollar 55 va undan yuqori)	65,0

Aniqlansin:

- 1) Mehnatga qobiliyatli aholining hissasi;
- 2) Ishchi yoshida bo'lmagan aholi hissasi;
- 3) Mehnat resurslarini qoplanish koeffitsiyenti.

1.2.12. Turrlardan biridagi 4 yoshdan 6 yoshgacha bo'lgan bolalar soni to'g'risida quyidagi ma'lumotlar ma'lum:

Bolalar yoshi	Bolalar soni
4 yosh	25300
5 yosh	28000
6 yosh	27600

Quyidagi yoshlar bo'yicha o'lish koeffitsiyentlaridan foydalanib, 1-3 sinf o'quvchilarining 2012 yilning sentyabriga kutiladigan sonini (mexanik harakat hisobga olinmasdan) hisoblang:

Bolalar yoshi	O'lish koeffitsiyenti %
4 yosh	1,9
5 yosh	1,7
6 yosh	1,3
7 yosh	1,1
8 yosh	0,7

1.2.13. Viloyat mehnat resurslarining soni to'g'risida quyidagi ma'lumotlar ma'lum:

t/r	Vaqt	Mehnat resurslarining soni
	1.01.2011 yili	230,0 mingkishi
	1.02.2011 yili	256,2 mingkishi
	1.06.2011 yili	245,4 ming kishi
	1.09.2011 yili	287,0 ming kishi
	1.12.2011 yili	298,0 ming kishi
	1.01.2012 yili	320,4 ming kishi

Viloyat mehnat resurslarining o'rtacha yillik sonini aniqlang.

1.2.14. Viloyat aholisining ikki davrdagi soni to'g'risidagi ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan: (ming kishi)

Ko'rsatkichlar	Davrlar	
	I	II
Aholi soni	2800,8	3008,5
Mehnatga qobiliyatli yoshdagi aholi	1684,9	1810,3
Ish bilan band bo'lgan aholi (uy va shaxsiy yordamchi xo'jalikda band bo'lgan kishilardan tashqari)	1482,0	1595,0
Jumladan mehnatga qobiliyatli aholi	1520,5	1542,3
O'quvchilar	13,2	14,1
Uy va shaxsiy yordamchi xo'jaliklarda band bo'lganlar.	14,4	13,4

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, quyidagi ko'rsatkichlarni hisoblang:

1. Mehnat resurslarining soni va uning o'zgarishi.
2. Mehnat resurslarining aholi umumiy sonidagi hissasi.
3. Ijtimoiy ishlab chiqarishda band bo'lgan aholining:
 - a) Viloyat aholisining umumiy sonidagi salmog'ini.
 - b) Mehnat resurslarini sonidagi salmog'ini.

Hosil qilingan natijalarni tahlil qiling va xulosalar chiqaring.

1.2.15. Shahar aholisining yil boshidagi soni 256,0 ming kishini, mehnat resurslari esa 178,2 ming kishini tashkil etdi. So'nggi yillardagi o'rtacha yillik tug'ilish koeffitsiyenti 14%, o'lish koeffitsiyenti 8%, migratsion o'zgarish + 6 % ni tashkil etdi.

Mehnat resurslarining 3 yil oldin kutiladigan sonini aniqlang, (tabiiy va migratsion harakat o'zgarmaydi, mehnat resurslarining jami aholidagi hissasi taqqoslaniladigan yilga nisbatan birinchi yil uchun o'zgarmaydi, ikkinchi yil uchun 2 pog'onaga, uchinchi yil uchun 3 pog'onaga kam bo'ladi deb faraz qiling).

1.2.16. Ishchilarning 2010 yil birinchi yarim yilidagi soni va harakati to'g'risida ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan:

Ko'rsatkichlar	I bo'lim	II bo'lim
Ishchilar tomonidan ishlangan odam-kunlar	98300	56300
Kun bo'yi bekor turgan odam-kunlar soni	50	40
Ishga kelmagan odam-kunlar soni	31210	13200
Yarim yil mobaynida ishga qabul qilinganlar soni	18	7
Yarim yil mobaynida ketgan ishchilar soni	21	4
Jumladan: Boshqa korxonaga	3	2
Milliy armiyaga chaqirildi, o'qishga ketganlar va nafaqaga chiqqanlar	14	5
O'z ixtiyori bilan	4	3
Mehnat intizomini buzganligi uchun	1	-

Aniqlansin:

1. Ishchi kuchini qabul qilish va ketish koeffitsiyenti.
2. Ishchi kuchining qo'nimsizlik koeffitsiyenti.

1.2.17. Korxona bo'yicha hisobot yilida quyidagi ma'lumotlar mavjud:

t/r	Xodimlar	Soni (kishi)
1	Ishga qabul qilindi	51
Quyidagi sabablarga ko'ra ishdan bo'shadi:		
2	O'qishga ketganligi sababli	3
3	Milliy armiyaga chaqirilishi munosabati bilan	2
4	Nafaqaga chiqish munosabati bilan	4
5	Shartnoma muddati tugashi munosabati bilan	2
6	O'z ixtiyori bilan	6
7	Mehnat intizomini buzishi tufayli	1
8	Ishlovchilarning yillik o'rtacha ro'yxatdagi soni	230

Aniqlansin:

1. Ishchi kuchini qabul qilish va ketish koeffitsiyentlari.
2. Ishchi kuchining qo'nimsizlik va turg'unlik koeffitsiyentlari.

2- MAVZU: MILLIY BOYLIK STATISTIKASI

2.1. Amaliy mashg'ulotni o'qitish texnologiyasi

Tinglovchilar soni:	Ajratilgan vaqt
O'quv mashg'ulotining shakli	Individual topshiriqlarni bajarishga asoslangan amaliy mashg'ulot
Mashg'ulot rejasi	1. Milliy boylik va milliy mulk haqida tushuncha va bu sohadagi statistikaning vazifalari. 2. Milliy boylik, mulk va tabiiy resurslar tarkibi. 3. Milliy hisoblar tizimida iqtisodiy aktivlar tushunchasi va tarkibi. 4. Aktiv va passivlar balansini. 5. Milliy boylik elementlarini joriy va o'zgarmas baholarda hisoblash va ular dinamikasini o'rganish.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Milliy mulk va tabiiy resurslar tarkibini, milliy boylik elementlarini joriy va o'zgarmas baholarda hisoblash va ular dinamikasini o'rganish.	
<i>Pedagogik vazifa:</i> - Milliy boylik va milliy mulk haqida tushuncha va bu sohadagi statistikaning vazifalarini; - Milliy boylik tarkibini; - Milliy mulk va tabiiy resurslar tarkibini; - Milliy hisoblar tizimida iqtisodiy aktivlar tushunchasi va tarkibini; - Aktiv va passivlar balansini; - Milliy boylik elementlarini joriy va o'zgarmas baholarda hisoblash va ular dinamikasini o'rganish.	<i>O'quv faoliyatining natijasi:</i> - Milliy boylik va milliy mulk haqida tushuncha va bu sohadagi statistikaning vazifalarini; - Milliy boylik tarkibini; - Milliy mulk va tabiiy resurslar tarkibini; - Milliy hisoblar tizimida iqtisodiy aktivlar tushunchasi va tarkibini; - Aktiv va passivlar balansini; - Milliy boylik elementlarini joriy va o'zgarmas baholarda hisoblash va ular dinamikasini o'rganadi.
O'qitish usullari- texnika	Amaliy mashg'ulot, blis-so'rov, .
O'qitish vositalari	Targatma materiallar va doska.
O'qitish shakllari	Guruhlarda ishlash va «jamoalar bo'lib ishlash» usullari
O'qitish shart-sharoiti	Texnik vositalar bilan ta'minlangan, guruhlarda ishlash usulini qo'llash mumkin bo'lgan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki-savol.

2.2. Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasisi.

Ish bosqichlari	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. O'quv mashg'uloti ga kirish (5-min.)	1.1. Mashg'ulot mavzusi, maqsadi va o'quv mashg'ulotining rejalashtirilgan natijalarini uni o'tkazish rejasini va baholash mezonlarini e'lon qiladi.	1.1. Tinglaydilar
2-bosqich. Asosiy (65-min.)	2.1. Talabalarining mavzu bo'yicha bilimini dolzarblashtirish maqsadida mavzuning nazariy holatlari bo'yicha blis-so'rov o'tkazish. Quyidagicha namolashni taklif etadi: -mamlakat milliy boylik tarkibi; -ishlab chiqarish fondlari; -noishlab chiqarish fondlari; -pul yoki qimmatli qog'ozlar; -moddiy resurslar; -moliyaviy resurslar. 2.2. Guruh talabalarini guruhchalarga ajratadi (talabalar soniga qarab). Ularga misollar berib, mustaqil ishlashlarini aytadi. 2.3. O'quv mashg'ulotida ish tartibi, reglamenti, baholash mezonlari bilan tanishtiradi. 2.4. Har bir guruhning o'zi tomonidan saylangan rahbar boshchiligida o'quv mashg'ulotlarini bo'lib oladi. 2.5. Qarorning o'zaro muvofiq keladigan natijalarini rasmiylashtirishni taklif etadi. 2.6. O'qituvchining xulosasi yoki aniq muammolarning yechimi bilan qiyoslash asosida taklif etilgan qarorlarni o'zaro baholaydi	2.1. Savollarga javob beradilar 2.2. Guruhlarga bo'linib, vazifalar bilan tanishadi. 2.3. Guruhlarda ishlaydilar 2.4. Ishning natijalarini muhokama qiladilar. 2.5. Ommaviy ishning natijalarini rasmiylashtiradilar. 2.6. Boshqa guruhlar tomonidan taklif etilgan yechimlarning variantlariga munosabatlarini bildiradilar. Baho beradilar.
3-bosqich. Yakunlash (10-min.)	3.1. Yakun yasaydi, o'zaro baholash natijalarini umumlashtiradi va baholaydi 3.2. Qiziqarliroq chiqishlarni ta'kidlab o'tadi. 3.3. Keyingi kasbiy va o'quv faoliyati uchun olingan bilimlarning ahamiyatiga e'tiborni qaratadi.	3.1. Baholash mezonlarini muhokama qiladilar.

2.1. Uslubiy ko'rsatmalar va masalalarning yechilishi

Milliy boylik kishilar mehnati tufayli to'plangan moddiy, moliyaviy va ma'naviy boyliklar va tabiatdan yaratilgan tabiiy boyliklar yig'indisidir. Milliy boyliklar yaratilish manbai jihatdan 2 katta guruhga bo'linadi:

1. Tabiiy boyliklar.
2. Inson mehnati tufayli shu davrgacha yaratilgan barcha moddiy, moliyaviy va ma'naviy boyliklar.

Tabiiy boyliklarga qazilma boyliklar zahiralari, gidroenergetika resurslari, hayvonot va o'simlik dunyosi, o'rmonlar va shu kabilar kiradi. Shunday qilib, milliy boylik, tabiiy boyliklar, hamda jami inson mehnati bilan yig'ilgan moddiy boyliklar va moliyaviy boyliklarning yig'indisidan iborat ekan. Milliy boyliklar turli belgilariga qarab guruhlanadi:

1. Yaratilish manbaiga qarab tabiiy boyliklar, jamg'arilgan boyliklar.
2. Tarmoqlar bo'yicha: sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, qurilish, sog'liqni saqlash va boshqa tarmoqlaridagi boyliklar.

Shunday qilib milliy boylikni:


MB=TB+IMTYMB+MR dan iborat. **TB**- tabiiy boyliklar, **IMTYMB**-inson mehnati tufayli yig'ilgan moddiy boyliklar. **MR**-moliyaviy resurslar.

Qanday maqsadga mo'ljallanganligiga qarab MB 2 guruhga.

1. Ishlab chiqarish sohasidagi MB: = sanoat, q/x. transport, qurilish.
2. Noishlab chiqarish sohasidagi M.B. = sog'liqni saqlash, ma'orif va madaniyat, mudofaa, jismoniy tarbiya va sport kabilarga guruhlanadi.

Tabiiy resurslar: tiklanadigan: o'rmon, yer, suv, elektroenergiya tiklanmaydigan: temir, ko'mir, oltin foydali qazilmalari.

Milliy boyliklar aralash manbaiga qarab quyidagicha guruhlanadi:



3. Regionlar bo'yicha: barcha viloyat, Qorag'alpog'iston Respublikasi, tumanlar boyliklari, xususiy mulk, aralash mulk boyliklari;

4. Mulk shakli bo'yicha: davlat mulki boyliklari, aksionerlik jamiyati boyliklari, xususiy mulk va shu kabilar.

Milliy hisoblar tizimida aktivlar deb, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar mulki hisoblanib, ularga egalik qilish va foydalanish huquqiga ega bo'lgan boyliklarga aytiladi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar bu aktivlardan foydalanib, daromad olishlari lozim. Aktivlar turli ko'rinishdagi boyliklardir. Ulardan daromad oluvchilar ham turlichadir. Masalan, yer egasi dehqonchilik qilib yoki yerni ijaraga berib daromad oladi. Kapital egasi esa undan tadbirkorlik bilan foydalanib, daromad oladi. Qimmatli qog'ozlar egasi dividend yoki foizlar oladi. Aktivlar moddiy, nomoddiy va moliyaviy resurslardan

tashkil topadi. Korxona, firmalar aktivlari balansning aktiv tomonida ko'rsatiladi.

Passivlar deb, xo'jalik yuritish sub'ektlarining qarzlar yoki qarzlarni qaytarish bo'yicha qarzдорlik majburiyatlariga aytiladi. Passivlar ham turli-tuman: banklardan qarzдорlik, kreditorlardan qarzдорlik, xodimlardan mehnat haqi va boshqalardan qarzдорlik va hokazolar kiradi. Korxona, firmalar aktivlaridan majburiyatlarini ayirib tashlasak, korxona firmaning sof kapitali, ya'ni korxonaning o'z ixtiyorida xususiy kapitali kelib chiqadi.

Aktiv – majburiyatlar = xususiy (o'z) kapitali.

Korxonalarning asosiy vositalari milliy boylikning katta qismini tashkil etadi. Asosiy vositalar korxona-tashkilotlarda 1 yildan ko'p ishlatiladi. Asosiy vositalar juda turli-tuman, ular statistikada quyidagi 12 guruhga bo'linadi:

1. binolar
2. inshootlar (ko'priklar, yo'lo'tkazgichlar va hokazolar).
3. o'zatuvcchi qurilmalar (transportyorlar, elektr liniyalar va hokazolar).
4. mashina va uskunalar (matorlar, dizellar va shu kabilar).
5. transport vositalari (avtomobil, samolyot va shu kabilar).
6. uskunalar (elektr parmalagichlar, turli kalitlar va shu kabilar)
7. ishlab chiqarish jihozlari (ish stollari va shu kabilar)
8. xo'jalik anjomlari (shkaflar, seyflar, muzlatgichlar va shu kabilar).
9. hayvonlar (ishchi va mahsulot) ko'p yillik daraxtlar (otlar, tuyalar, ona sigirlar va shu kabilar).
10. ko'p yillik daraxtlar (mevali bog'lar, manzarali daraxtlar va shu kabilar)
11. Yerning holatini yaxshilash va foydali qazilmalar topish uchun qilingan xarajatlar.
12. Boshqa asosiy vositalar (adabiyot, san'atning nodir asarlari).

Asosiy vositalar quyidagi baholarda ifodalanadi:

1. Dastlabki (boshlang'ich) bahosi
2. Qayta tiklash bahosi

1. Qoldiq bahosi

Statistikada asosiy vositalarning holati va foydalanish darajasi o'rganiladi. Asosiy vositalarning holatini quyidagi ko'rsatkichlar ifodalaydi:

1. Asosiy vositalarning boshlang'ich va oxirgi davridagi natural va qiymat shaklidagi hajmlari.

2. Asosiy vositalarning yangilanish koeffitsienti.

Yil davomida yangi qabul qilingan asosiy vositalar summasini 100ga ko'paytirib, asosiy vositalar o'rtacha qiymatiga bo'lamiz.

Yil davomida asosiy vositalarning eskirgan summasini 100 ga ko'paytirib, asosiy vositalar o'rtacha qiymatiga bo'lib, asosiy vositalarning eskirish koeffitsientini topamiz.

Asosiy vositalarning qoldiqlar summasini 100 ga ko'paytirib, asosiy vositalarning o'rtacha qiymatiga bo'lib asosiy vositalar yaroqlilik koeffitsienti topiladi.

Asosiy vositalar eskiradi. Ularning yillik eskirish summasi va normasi hisoblanadi:

$$A = \frac{P(V) + Kr + M - L}{T} \text{ yillikeskirishsummasi.}$$

Buyerda $P(V)$ – asosiy vositalar dastlabki (qaytatiklash) qiymati;

Kr – kapital ta'mirlashga sarflanadigan xarajat;

M – modernizatsiya,

L – likvidatsiyada olinadigan daromad

T – asosiy vosita xizmat muddati.

$$NA = \frac{a + 100}{p(v)} \text{ Asosiy vositalarning eskirish normasi.}$$

Asosiy vositalarni foydalanish darajasini asosiy vositalarning qaytimi va asosiy vositalarning rentabilligi ifodalaydi:

$$AVQ = \frac{SM}{AV} \text{ asosiy vositalarning qaytimi}$$

Bu yerda AVQ – asosiy vositalar qaytimi,

SM – sotilgan mahsulot hajmi,

AV – asosiy vositalar o'rtacha qiymati.

$$AVR = \frac{SF}{AV} \text{ asosiy vositalarning rentabilligi.}$$

Bu yerda: SF = sof foyda

Korxona va firmalarda eng o'zgaruvchan mablag'lar bo'lib, **aylanma mablag'lar** holati quyidagicha o'rganiladi:

1. Aylanma mablag'larning yil boshida va oxiridagi qiymatlari, ularning tarkibi.

2. Aylanma mablag'larning belgilangan me'yorda mutanosibligi.

3. Aylanma mablag'larning aylanuvchanligi. Aylanma mablag'larning samaradorligi aylanuvchanligi bilan belgilanadi.

Yuqoridagiasosiy xulosalar va ko'rsatkichlarga asoslanib, ayrim masalalarning yechilishi bilan tanishib chiqaylik.

1. Korxona 6600,0 ming so'mlik qiymatga ega bo'lgan jihoz sotib oldi. Transport xarajatlari 350,0 ming so'mni, o'rnatish va uni ishga tushirish bilan bog'liq xarajatlar – 550,0 ming so'mni tashkil etdi. Uning xizmat qilish normativ muddati 6 yil qilib belgilangan. Kapital ta'mirlash uchun ko'zda tutilgan xarajatlar 1000,0 ming so'm, modernizatsiya xarajatlari esa 800,0 ming so'm qilib belgilangan.

Tugatilishi bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar esa 400,0 ming so'm ekanligi ma'lum. Mavjud ma'lumotlardan foydalanib, quyidagi ko'rsatkichlarni aniqlaymiz:

1. Jihozning boshlang'ich to'liq qiymati:

$$B = 6600,0 + 350,0 + 550,0 = 7500,0 \text{ ming so'm;}$$

2. Amortizatsiya yillik summasi:

$$A = \frac{(B - T) + (K + M)}{Y} = \frac{(7500,0 - 400,0) + (1000,0 + 800,0)}{6} = \frac{8900,0}{6} = 1483,33$$

ming so'm

3. Amortizatsiya yillik normasi:

$$N_A = \frac{A}{B} \times 100 = \frac{1483,33}{7500,0} \times 100 = 19,8\%$$

jumladan,

a) renovatsiya uchun:

$$N_A = \frac{(B - T)}{B \times Y} \times 100 = \frac{(7500,0 - 400,0)}{7500,0 \times 6} = \frac{7100,0}{45000,0} \times 100 = 15,8\%$$

b) kapital ta'mirlash va modernizatsiya uchun:

$$N_A = \frac{(K+M)}{B \times Y} \times 100 = \frac{(10000+8000)}{75000 \times 6} \times 100 = \frac{18000}{450000} \times 100 = 4\%$$

Aylanma fondlar milliy mulkning muhim qismini tashkil etadi. Asosiy fondlardan farqli o'laroq, aylanma fondlar ishlab chiqarish jarayonida bir marta ishtirok etib, o'z qiymatini ishlab chiqarilayotgan mahsulotga to'liq ko'chiradi va o'z shaklini o'zgartiradi. Aylanma fondlar jumlasiga xom-ashyo, yoqilg'i, elektr energiyasi, omborlardagi tayyor mahsulotlar, bank muassasalaridagi korxona va tashkilotlarning hisob raqamlaridagi pul mablag'lari va shu singarilar kiradi.

Aylanma fondlardan qanchalik samarali foydalanilsa, ularning aylanishi qanchalik tezlashsa, shunchalik qarz va chetdan jalb etiladigan mablag'larga bo'lgan ehtiyoj kamayadi.

Aylanma fondlardan foydalanish ko'rsatkichlar tizimi orqali tasvirlanadi. Bu ko'rsatkichlar jumlasiga quyidagi ko'rsatkichlar kiradi:

Aylanish koeffitsiyenti (K_{ayl})

$$K_{ayl} = \frac{R}{\bar{A}} ;$$

Bu yerda,

R – mahsulotlar (xizmatlar) realizatsiya (sotilish) summasi;

$\bar{A}$ – aylanma mablag'lar o'rtacha qiymati;

Kunlar hisobidagi aylanishlar o'rtacha davomiyligi (D)

$$D = \frac{K}{K_{ayl}} ;$$

bu yerda,

K_{ayl} – aylanish koeffitsiyenti

K – ko'rsatkichlar aniqlanayotgan davr davomiyligi, kunlar hisobida. yoki quyidagi formula yordamida ham aniqlanishi mumkin:

$$D = \frac{K \times \overline{A}}{R}$$

Bu formulaning mazmuni shundan iboratki, K ning miqdori oldindan ma'lumligi tufayli qolgan ikki ma'lum miqdorlar yordamida uchinchi noma'lumni aniqlash mumkin.

Shu sababli amaliyotda moliyaviy va rejalashtirish bilan bog'liq bo'lgan hisob-kitoblarda bu formuladan keng ko'lamda foydalaniladi.

Hisob-kitoblarda aylanma kapitalning berkitilish koeffitsiyentidan ham foydalaniladi. Bu ko'rsatkich bo'lib, u quyidagicha hisoblanadi:

$$K_{berkitilis\ h} = \frac{1}{K_{ayl}} ;$$

Uning iqtisodiy mazmunidan kelib chiqqan holda aytish mumkinki, bu ko'rsatkich sotilgan mahsulotlarning bir so'miga to'g'ri keladigan aylanma kapital o'rtacha qoldig'i summasini tasvirlab beradi.

Aylanma kapitaldan foydalanish samaradorligining o'zgarishi aylanma kapitalning oborotdan bo'shab qolishiga yoki aksincha qo'shimcha talab qilinishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu summa quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$O_{bd,shab} = A_n \frac{K_o \times R_f}{K}$$

bu yerda,

$\overline{A_n}$ – aylanma mablag'larning haqiqiy o'rtacha qoldig'i.

K_o – bazis davrida mablag'larning bir aylanishi davomiyligi

R_f – hisobot davrida sotilgan mahsulotlar haqiqiy hajmi

K – o'rganilayotgan davrdagi kunlar.

2. Bosmahona 5600,0 ming so'mga pechat qiladigan moslama sotib oldi, moslamani olib kelish xarajatlari 420,0 ming so'mni, o'rnatish bilan bog'liq xarajatlar 1220,0 ming so'mni va o'rnatish jarayonida sodir bo'lgan buzilishlarni ta'mirlash uchun qilingan xarajatlar esa

320,5 ming so'mni tashkil etganligi ma'lum bo'lsa, moslamaning boshlang'ich to'liq qiymatini aniqlang.

Yechish: Moslamaning boshlang'ich to'liq qiymati, olib kelishdagi va o'rnatish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlardan iborat bo'ladi, ya'ni

$$5600,0 + 420,0 + 1220,0 = 7240,0 \text{ ming so'mni tashkil etadi.}$$

2.2. Amaliy mashg'ulotlar uchun masalalar

2.2.1. Hisobot yilida quyidagi ma'lumotlar ma'lum:

1. Ishlab chiqarish fondlari, zaxiralari va rezervlari 2436,0 mln so'm, jumladan ishlab chiqarish fondlari 1320,0 mln so'm, ishlab chiqarish zaxiralari va rezervlari 420,0 mln so'm.

2. Iste'molga mo'ljallangan mulk 1392,0 mln so'm, jumladan ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan fondlar 792,0 mln so'm, shaxsiy iste'mol tovarlari va mahsulotlari zaxiralari 108,0 mln so'm, aholining shaxsiy mulki 492,0 mln so'm.

Aniqlansin:

- 1) Milliy boylikning hajmi;
- 2) Milliy boylikning tarkibi.

2.2.2. Hisobot yilida quyidagi ma'lumotlar mavjud:

1. Ishlab chiqarish fondlari, zaxiralari va rezervlar 3015,0 mln.so'm, jumladan ishlab chiqarish fondlari 1650,0 mln.so'm, ishlab chiqarish zaxiralar va rezervlari 1245,0 mln.so'm.

2. Iste'molga mo'ljallangan mulk 1560,0 mln. so'm, jumladan ishlab chiqarishga aloqador bo'lmagan fondlar 840,0 mln. so'm, shaxsiy iste'mol tovarlari mahsulotlari zaxiralari 120,0 mln. so'm, aholining shaxsiy mulki 315,0 mln.so'm.

Aniqlansin:

1. Milliy boylikning hajmi;
2. Milliy boylikning tarkibi.

2.2.3. 9,2 mln.so'mlik asosiy fondlar 2003 yili ishga tushirildi. 10 yil davomida ishlatilish natijasida eskirishi 35% ni tashkil etdi. 2013 yilga kelib binoning qiymati 2003 yilga nisbatan 24% oshdi.

Asosiy fondlarning to'liq qiymatini, shuningdek qayta tiklangan to'liq va qoldiq qiymatini aniqlang.

2.2.4. Ishlab chiqarish korxonasiga tikuv mashinasini qo'shimcha moslama bilan qayta jihozlash natijasida mahsulot ishlab chiqarish uchun ketadigan vaqtni tejash imkoni yaratildi. Har bir tikuv mashinasining qiymati 450,0 ming so'mni har bir mashinani qayta jihozlash uchun qilingan xarajatlar 50,0 ming so'mni tashkil etdi.

Tikuv mashinalarining boshlang'ich to'liq qiymatini aniqlang.

2.2.5. Tarmoqda yil boshida 67500,0 ming so'mlik asosiy fond mavjudligi ma'lum. Yil mobaynida 13500,0 ming so'mlik asosiy fond ishlab chiqarishga kiritildi va 2250,0 ming so'mlik asosiy fond chiqarildi.

Mavjud ma'lumotlarga asoslanib, asosiy fondlarning balans jadvali tuzilsin.

2.2.6. Tarmoqdagi asosiy fondlarning yil boshidagi qiymati 120,5 mln.so'mni, qoldiq qiymati esa 100,0 mln.so'mni tashkil qildi.

Mavjud ma'lumotlar asosida eskirish va yaroqlilik koeffitsiyentlarini hisoblang.

2.2.7.Hisobot davrida asosiy ishlab chiqarish fondlarining harakati to'g'risida quyidagi ma'lumotlar mavjud:

(ming so'm hisobida)

Asosiy fondlarning yil boshidagi boshlang'ich qiymati	9300,0
Yil boshidagi eskirish summasi	2700,0
Yil davomida ishga tushirilgan yangi fondlar summasi	2850,0
Yil davomida chiqarilgan asosiy fondlarning to'liq qiymati	900,0
Chiqarilgan fondlarning qoldiqqiymati	105,0
Yil davomida fondlarni to'liq tiklash uchun yozib qo'yilgan amortizatsiya summasi	615,0
Sof mahsulot	12150,0

Mavjud ma'lumotlardan foydalanib, quyidag ko'rsatkichlar hisoblansin:

1. Asosiy ishlab chiqarish fondlarining yil boshida va yil oxiridagi to'liq qiymati;
2. Asosiy fondlarning yil oxiridagi qoldiq qiymati;
3. Asosiy fondlarning yangilanish va chiqarilish yillik koeffitsiyentlari;
4. Asosiy fondlarning yil boshida va yil oxiridagi eskirish va yaroqlilik koeffitsiyentlari;
5. Asosiy fondlardan yil davomida foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari.

2.2.8. Tarmoq asosiy fondlari to'g'risida quyidagi ma'lumotlar ma'lum, mln.so'm hisobida:

(mln. so'm)

Yil boshida:	
Boshlang'ich qiymatida	24,3
Qayta tiklangan qiymati	18,6
Yil mobaynida	
Ishga tushirilgan asosiy fondlar	12,0
Kapital ta'mirlash amalga oshirildi	2,3
Chiqarilgan asosiy fondlar boshlang'ich qiymatida	3,8
Qayta tiklangan qiymati	1,2
Amortizatsiya hisoblandi	9,2

Mavjud ma'lumotlarga asosanib, asosiy fondlarning balans jadvalini tuzing va quyidagi ko'rsatkichlarni hisoblang:

1. Asosiy fondlarning yil oxiridagi boshlang'ich va qayta tiklangan qiymatini;
2. Yil boshi va oxiridagi eskirish koeffitsiyentini;
3. Yangilanish koeffitsiyentini;
 - a) boshlang'ich qiymati bo'yicha;
 - b) qayta tiklangan qiymati bo'yicha.
4. Chiqarilish koeffitsiyenti:
 - a) boshlang'ich qiymati bo'yicha;
 - b) qayta tiklangan qiymati bo'yicha.

2.2.9. Asosiy fondlarning boshlang'ich qiymati 95,0 ming so'm. 10 yil davomida ishlatilishi jarayonida kapital ta'mirlash uchun 40,0 ming so'mni tashkil qilishi, uni buzish bo'yicha qiymati esa 5,2 ming so'mni tashkil qilishi ko'zda tutilgan.

Uni qisman yangilash (modernizatsiya) uchun esa 7,8 ming xarajat qilishi rejalashtirilgan. Mavjud ma'lumotlar asosida quyidagi ko'rsatkichlar aniqlansin:

1. Amortizatsiya yillik umumiy normasi, jumladan:

a) qayta tiklash (renovatsiya) uchun;

b) kapital ta'mirlash (qisman yangilash ham hisobga olingan holda) uchun.

2. Amortizatsiya yillik umumiy summasi, jumladan:

a) qayta tiklash (renovatsiya) uchun;

b) kapital ta'mirlash (qisman yangilash ham hisobga olingan holda) uchun.

2.2.10. Yil boshidagi asosiy ishlab chiqarish fondlarining to'liq boshlang'ich qiymati 240,0 mln. so'mni tashkil etdi. Yil davomida 45,0 mln. so'mlik yangi asosiy fondlar ishga tushirildi. 15.04. dan 20,0 mln.so'mlik, 25.07. dan 18,0 mln so'mlik, 10.09. dan esa 21,0 mln so'mlik asosiy fondlar hisobdan chiqarildi. Yillik amortizatsiya normasi 6 %.

Aniqlansin:

1.Asosiy fondlarning yillik o'rtacha qiymati.

2.Yillik amortizatsiya summasi.

2.2.11. Asosiy fondlarning keyingi ikki yillik o'rtacha qiymati va yalpi ichki mahsulot hajmi to'g'risida quyidagi ma'lumotlar ma'lum:

Ko'rsatkichlar	o'tgan davr	Hisobot davri
Asosiy fondlarning yillik o'rtacha qiymati, mln.so'm.	12150,0	15700,0
Yalpi ichki mahsulot,mln.so'm	24200,0	31520,0

Mavjud ma'lumotlardan foydalanib, aniqlansin:

1. O'tgan va hisobot davrlar uchun asosiy fondlardan foydalanish ko'rsatkichlari.

2. Hisobot davriga kelib, o'tgan davrga nisbatan yalpi ichki mahsulot hajmining mutloq o'zgarish va bu o'zgarishga ta'sir qiluvchi asosiy omillar:

a) asosiy fondlardan samarali foydalanish hisobiga;

b) asosiy fondlar qiymatining o'zgarishi hisobiga yuz bergan o'zgarishni aniqlang.

2.2.12. Korxona asosiy fondlarining qiymati 34,8 mln. so'mni, eng ko'p ishchilar ishlagan smenadagi ishchilar soni 6200 kishini tashkil etganligi ma'lum bo'lsa, mehnatning fond bilan qurollanganligini ifodalovchi ko'rsatkichni hisoblang va xulosa qiling.

2.2.13. Quyidagi jadvalda sanoat tarmoqlari bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan:

Tarmoqlar	Sof mahsulot		Asosiy ishlab chiqarish fondlarining o'rtacha yillik qiymati	
	bazis davri	hisobot davri	bazis davri	hisobot davri
A	65810	69750	102400	104750
V	56400	67480	255000	310400

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan foydalanib, hisoblansin:

1. Fondlardan keladigan samara o'zgaruvchan tarkibli, doimiy tarkibli va tarkibiy o'zgarishlar ta'siri indeksleri.

2. Aholida tarmoqlar fondlaridan keladigan samara va tarkibiy siljishlar ta'siri natijasida fondlardan olinadigan o'rtacha samaraning mutloq jihatdan o'zgarishi.

3. Sof mahsulotning mutlaq o'zgarishi hisobiga;

a) asosiy ishlab chiqarish fondlari hajmining o'zgarishi hisobiga;

b) tarkibiy siljishlar ta'siri natijasida;

v) har qaysi tarmoq fondlari samaradorligining o'zgarishi hisobiga.

2.2.14. Korxona bo'yicha quyidagi ma'lumotlar mavjud:

(mln.so'm)

Ko'rsatkichlar	O'tgan davr	Hisobot davr
Sotilgan mahsulotdan olingan tushumlar (savdo puli)	660,0	860,0
Aylanma mablag'larining o'rtacha qoldig'i	95,0	105,2

Aniqlansin:

1. Har bir davr uchun korxona aylanma mablag'larining aylanish ko'rsatkichlari:

- aylanishlar soni bo'yicha;
- kunlar hisobida.

2. Aylanma mablag'larining aylanishining tezlashuvi hisobiga aylanishdan bo'shab qolgan mablag'lar summasi.

2.2.15. Aylanma mablag'larning qoldig'i va sotilgan mahsulot qiymati to'g'risida quyidagi ma'lumotlar mavjud:

Ko'rsatkichlar	I / I	I / II	I / III	I / IV
Aylanma mablag'larning qoldig'i, ming so'm	224	236	232	240

Tushumlar yanvar oyiga 672,0 ming so'mni, fevral oyida 768,0 ming so'mni, mart oyida esa 932,0 ming so'mni tashkil etgan.

Aholida har bir oy uchun hisoblansin:

- Aylanish koeffitsiyenti;
- Aylanma mablag'larining berkitish koeffitsiyenti;
- Bir aylanishning o'rtacha davomiyligi.

3-MAVZU. YALPI ICHKI MAHSULOT VA YALPI MILLIY DAROMAD STATISTIKASI

3.1. Amaliy mashg'ulotni o'qitish texnologiyasi

Tinglovchilar soni:	Ajratilgan vaqt
O'quv mashg'ulotining shakli	Amaliy – bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha mashg'ulot
Amaliy mashg'ulotda ko'rib chiqiladigan savollar.	1. Milliy hisoblar tizimida ishlab chiqarish faoliyati tushunchasi. 2. Milliy hisoblar tizimida makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi. 3. Yalpi ichki mahsulot – milliy hisoblar tizimining markaziy ko'rsatkichi. 4. Ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini baholash usullari.
<i>Mashg'ulotning maqsadi:</i> Milliy hisoblar tizimida makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni, xalqaro miqyosida yalpi ichki mahsulot hajmini solishtirishni, bozor va nobozor xizmatlarni ishlab chiqaruvchi tarmoqlar mahsuloti statistikasini, yalpi ichki mahsulot hajmini aniqlash usullarini o'rgatish	
<i>Pedagogik vazifa:</i> - Yalpi ichki mahsulot – milliy hisoblar tizimining markaziy ko'rsatkichi haqida misollar keltirish; - Ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini baholash usullariga ta'rif berish; - Ayrim tarmoqdagi mahsulot ishlab chiqarish statistikasining o'ziga xos xususiyatlarini tasvirlab berish; - Shu tarmoqlarda yalpi ishlab chiqarish va oraliq iste'mol ko'rsatkichlari hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'zlab berish; - Yalpi ichki mahsulot hajmini aniqlash usullariga ta'rif berish;	<i>O'quv faoliyatining natijasi:</i> - Yalpi ichki mahsulot – milliy hisoblar tizimining markaziy ko'rsatkichi haqida gapirib beradilar; - Ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini baholash usullariga ta'rif beradilar; - Ayrim tarmoqdagi mahsulot ishlab chiqarish statistikasining o'ziga xos xususiyatlarini tasvirlab beradilar; - Shu tarmoqlarda yalpi ishlab chiqarish va oraliq iste'mol ko'rsatkichlari hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'zlab beradilar; - Yalpi ichki mahsulot hajmini aniqlash usullariga ta'rif beradilar; - Yalpi ichki mahsulot fizik hajm indeksini tuzish va uning dinamikasini tahlili haqida gapirib beradilar; - Xalqaro miqyosida yalpi ichki mahsulot hajmini solishtirish afzalliklarini ko'rsatib beradilar.
O'qitishning usuli-texnika	Blis-so'rov, va organayzer;
O'qitish vositasi	Tarqatma materiallar, slaydlar, proyektor.
O'qitishning shakli	Jamoa, frontal, to'g'ridan-to'g'ri ishlash
O'qitish shartlari	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya
Monitoring va baholash	Savol –javob

3.2. Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Ish jarayonlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog.	Tinglovchi
1-bosqich. Kirish (15 min.)	1.1. Amaliyot mashg'ulotining mavzusi va asosiy savollarini eslatadi. Oldingi mashg'ulot bilan mantiqiy bog'liqlikda davom ettiradi. Qo'yilgan muammoni, birinchi «muammoli vaziyat»ning shakllanishini va uni yechish bo'yicha xulosani eslatadi.	1.1. Eshitishadi
2-bosqich. Asosiy qism (55 min.)	2.1. Birinchi «muammoli vaziyat»ni e'lon qiladi. Quyidagi muammo: «Yalpi ichki mahsulot va yalpi milliy daromadni hisoblash muammolari». Uni ishlash yo'llarini qidirishni tashkil qiladi 2.2. Tinglovchilarni 4 guruhga ajratadi. Guruh a'zolarini o'zaro hamkorlikda ishlashga qulay qilib joylashtiradi. «Muammoli vaziyat»ning yechimi bo'yicha qo'yilgan savollarga asoslangan holda fikrlar berishga chaqiradi. Kuzatadi, muvofiqlashtiradi va rag'batlantiradi. 2.3. «Muammoli vaziyat»ning yechimi bo'yicha fikrlarning taqdimoti boshlanganligini e'lon qiladi. 2.4. Tanlov va baholash natijalariga asoslangan holda birinchi oraliq xulosani shakllantiradi. 2.5. Tinglovchilarga muammoning yechimi bo'yicha umumiy, yakuniy xulosani shakllantirishni taklif qiladi. Dars jarayonida izoh beradi, aniqlashtiradi va to'g'rilaydi. Yakuniy xulosani shakllantiradi.	2.1. Eshitishadi, guruhlariga ajrashishadi. 2.2. Har bir guruh optimal g'oyani tanlash, baholash va kuzatish uchun ekspertni tanlaydi. «Muammoli vaziyat»ni yechimi bo'yicha taklif va fikrlar berishadi, ekspertlar ularni yozib borishadi. 2.3. Har bir guruhning eksperti «muammoli vaziyat»ning yechimi bo'yicha tanlab olingan fikrlarni berishadi. 2.5. Berilgan fikrlarni ularning muhimligiga qarab baholaydi Yig'ma baholash varaqasini tuzishadi (doskaga yozish yo'li bilan).
Yakuniy bosqich (10 min.)	3.1. Darsni yakunlaydi. Muammoni yechish jarayonidagi guruhlar faoliyatining ijobiy tomonlarini, muvaffaqiyatlarini aytib o'tadi. 3.2. Bajirilgan ishning kelgusidagi kasbiy faoliyati uchun naqadar muhimligini ko'rsatadi.	3.1. Xatolarni tahlil qiladi. O'UMga qarang.

3.1. Uslubiy ko'rsatmalar va masalalarning yechilishi

Makroiqtisodiy darajada iqtisodiyotni bir qancha iqtisodiy ko'rsatkichlar (yalpi ichki mahsulot, sof ichki mahsulot, yalpi milliy mahsulot, yalpi milliy daromad va shu kabilar) ifodalaydi.

Bu ko'rsatkichlar ichida asosiylaridan biri yalpi ichki mahsulot (bundan keyin YAIM) ko'rsatkichidir. YAIM–mamlakat ichida ma'lum davrda (ko'pincha bir yil) pirovard iste'mol uchun ishlab chiqarilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlarning qiymatlarining yig'indisidir. YAIM- ko'rsatkichining iqtisodiy mohiyati shundaki: birinchidan barcha tarmoq korxonalari (tashkilotlari, firmalari va shu kabilar) tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlardir. Demak, bu sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, qurilish, savdo va umumiy ovqatlanish va shu kabi tarmoqlarda ishlab chiqarilgan moddiy mahsulotlar. Ularga shu jumladan aholining shaxsiy yordamchi xo'jaligi va yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar faoliyatlari ham kiradi. Ko'rsatiladigan xizmatlarga: transport, aloqa, savdo, moliyaviy va shu kabi xizmat turlari kiradi.

Ikkinchidan, YAIM – barcha ishlab chiqarilgan mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlar qiymati emas, balki faqat pirovard (oxirgi) iste'mol uchun sarflanadigan mahsulot va xizmatlar qiymati bilan hisoblanadi. Oraliq iste'molda bo'ladigan xom ashyo, materiallar, elektroenergiya, urug', yem –xashak va ko'rsatilgan xizmatlar qiymatlari, qaysikim boshqa bir mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan qiymatlar YAIMga qo'shilmaydi. Demak YAIM da qaytadan – ya'ni takroriy sarflar hisoblanmaydi, ishlab chiqarishga va xizmat ko'rsatishga moddiy va boshqa sarflar faqat bir marta hisobga olinadi.

YAIM tarkibi quyidagicha:

O'zbekiston Respublikasi yalpi ichki mahsulotining tarkibi, %

	1995	1998	2000	2002	2006	2007
Sanoat	17,1	14,9	14,2	14,1	22,1	24,0
Qishloq xo'jaligi	28,0	26,8	30,1	30,6	24	21,7

Transport va aloqa	7,3	6,8	7,7	8,2	11,4	11,1
Qurilish	7,1	7,5	6,0	4,9	5,1	5,5
Savdo va umumiy ovqatlanish	5,2	8,4	9,7	9,8	9,5	9,4
Boshqa sohalar	22,2	21,2	19,8	20,7	18,6	18,8
Tovarlarga va eksport import muammolariga sof soliqlar	13,1	14,4	12,5	11,7	9,2	9,5
Jami	100	100	100	100	100	100

Manba: To'xliyev N. va boshqalar. O'zbekiston iqtisodiyoti asoslari. T.: 2006 y va keyingastat. ma'lumotlar.

YAIMni ishlab chiqarish usulida hisoblanganda mamlakat miqyosida barcha rezidentlari tomonidan yaratilgan qo'shilgan qiymatlar summasini tarmoqlar va sektorlarda ishlab chiqarilgan barcha mahsulotlar va ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidan ishlab chiqarish jarayonida to'liq iste'mol qilingan mahsulotlar va xizmatlar ya'ni oraliq iste'mol(OI) qiymatini ayirib tashlab topiladi.

YAIMni taqsimlash usulini hisoblashda mamlakatdagi barcha rezidentlarga taqsimlangan va ular olgan daromadlarning umumiy yig'indisi hamda ishlab chiqarish va importga qilingan sof soliq sifatida hisoblanadi. Mamlakatdagi rezidentlar daromadlariga xodimlar (yollanmaishchilar) olgan mehnat haqi (MH), ishlab chiqarishga va importga sof soliq (s), hamda moliyaviy va nomoliyaviy aktivlardan olingan yalpi daromadlar (Yad) kiradi.

Xodimlarga to'langan mehnat haqiga natural va pul ifodasida berilgan vaqt bayyoki ish bayish haqi, ish haqiga qo'shimcha va ustamalar, turli xil mukofotlar va rag'batlantirishlar, har yilgi ta'til uchun va malaka oshirish uchun yo'lovchilar va shu kabilar. Ijtimoiy sug'urta ajratmalar ham mehnat haqi guruhiga kiritiladi.

Mahsulotlar ishlab chiqarish va import solig'iga mahsulot ishlab chiqaruvchilar tomonidan davlat byudjetiga to'lanadigan solig'lar (qo'shilgan qiymat solig'i, aksiz solig'i, reklama solig'i, yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va shu kabilar) hamda

turli xil litsenziyalar olish uchun to'lovlar kiradi. Bu soliqlar xo'jalik yurituvchi sub'ektlar tomonidan majburiy ravishda to'lanadi va qaytarib berilmaydi. Umuman iqtisodiy mohiyati jihatdan yangidan yaratilgan qiymatning bir qismidir..

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar mahsulotlarni sotish, xizmat ko'rsatishdan olgan sof tushumlaridan va boshqa daromadlaridan sotilgan mahsulot tan narxini (ish haqi ham birgalikda) va boshqa moliyaviy xarajatlarini ayirib tashlasa, to'langan soliqlarni ham chiqarib tashlasa yalpi foydasi qoladi.

Shunday qilib, YAIMni taqsimlash usulida xodimlarga hisoblangan mehnat haqi (MH), davlat byudjetiga to'langan soliqlar (S) va sub'ektlarning yalpi foydalari (YAF) yig'indisi ko'rinishida ifodalasa bo'ladi.

$$\mathbf{YAIM = MH + S + YAF}$$

Agarda juda keng ma'noda yozadigan bo'lsak, bu formulani quyidagicha yozish mumkin.

$$\mathbf{YAIM = MH + ISA + ABFA + ST + YAF.}$$

Bu yerda ISA – ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar;

ABFA – aholining bandlik fonidiga ajratmalar;

ST – soliq va to'lovlar.

YAIM ni pirovard (oxirgi) foydalanish usulida hisoblash mumkin.

Bu usulda tovarlar va xizmatlar oxirgi iste'mol uchun qilingan xarajatlar, (TXOI) xo'jaliklarning yalpi jamg'armasini (YAJ), hamda tovar va xizmatlar eksporti va importi saldolari (EIS) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

$$\mathbf{YAIM = TXOI + YAJ + EIS.}$$

Tovar va xizmatlar oxirgi iste'moliga (TXOI) quyidagilar kiradi:

- iste'mol tovarlar va xizmatlarni xarid qilish uchun sarflangan summalar (TXX);
- natura shaklida olingan (mehnat haqi yoki boshqa tarzda) iste'mol tovarlari va xizmatlar (NTX);

- uy xo‘jaligi o‘z ehtiyoji uchun ishlab chiqargan va iste‘mol qilgan tovarlar va xizmatlar (UITX);
- davlat boshqaruv muassasalari va notijorat tashkilotlarning joriy is‘temol xarajatlari: ya‘ni sog‘liqni saqlash maorif sanoat va madaniyat kabi sohalarga jamoa iste‘moli uchun qilingan xarajatlar (DBNTJIX).

Demak, tovarlar va xizmatlar oxirgi iste‘molini (TXOI) quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\text{TXOI} = \text{TXX} + \text{NTX} + \text{UITX} + \text{DBNTJIX};$$

Asosiy vositalar bir yildan ko‘proq ishlatiladigan va foydalanish tufayli daromad keltiradigan mehnat qurollaridir. Ularga binolar, inshootlar, mashina va asbob uskunalar, motor va stanoklar, transportlar, xo‘jalik investorlari kabilar kiradi. Asosiy vositalar yalpi jamg‘arilishi (AVYAJ) deganda kelgusida daromad olish uchun asosiy vositalarni ko‘paytirish (sotib olish, qurish) uchun qilingan sarflar mablag‘larga aytiladi. Asosiy vositalar yalpi jamg‘arilishi joriy yilda olingan (xarid qilingan, qurilgan) asosiy vositalar qiymatidan shu yilda hisobdan chiqarilgan asosiy vositalar farqi sifatida aniqlanadi.

$$\text{AVYAJ} = \text{AVS} - \text{AVX};$$

Bu yerda AVS – sotib olingan, qurilgan asosli vositalar qiymati:

AVX – hisobdan chiqarilgan asosiy vositalar qiymati.

MHTning 1993 yilgi xalqaro standartiga asosan yerning holatini yaxshilashga, tabiiy resurslarga hamda nomoddiy aktivlarga qilingan sarflar patent, litsenziya va shu kabilar vositalar yalpi jamg‘arilishiga kiritiladi.

Moddiy aylanma mablag‘lar zahiralarning o‘zgarishi (AMZO‘) ishlab chiqarish zahiralari (xom ashyo, materiallar), tayyor mahsulotlar sotish uchun olingan tovarlar qiymatlarining o‘zgarishidir. Bu ma‘lumotlar asosan buxgalteriya balans i yil oxiridagi qoldiqlaridan yil boshiga bo‘lgan summalarini ayirish yo‘li bilan topiladi. Lekin bunda moddiy zahiralarning saqlanish davridagi

narx o'zgarishlarini hisobga olish zarur. Buxgalteriya balansida moddiy aylanma mablag'lar: ishlab chiqarish zaxiralari (ICHZ); tugallanmagan ishlab chiqarish (TICH), tayyor mahsulotlar (TM) va tovarlar (ST) ko'rinishda beriladi. Demak moddiy aylanma mablag'lar zaxiralari o'zgarishini (AMZO') ularning o'zgarishlarining algebrik yig'indisi deb aniqlasak bo'ladi.

$$\text{AMZO}' = \text{ICHZ} + \text{TICH} + \text{TM} + \text{ST};$$

Sof xarid qilingan boyliklarga ishlab chiqarishda foydalanish yoki iste'mol qilish uchun emas, balki kelgusida daromad olish uchun saqlanadigan qimmatbaho metallar, tilla buyumlar, kolleksiyalar va shu kabilar kiradi.

"Yalpi ichki mahsulot va yalpi milliy daromad statistikasi" mavzusi bo'yicha ayrim masalalarning yechimi bilan quyidagi shartli misollarda tanishib chiqaylik.

Iqtisodiyot bo'yicha quyidagi ma'lumotlar ma'lum (shartli o'lchov birligida).

Asosiy baholardagi yalpi ishlab chiqarish hajmi (YAICH):		
1	Tovar ishlab chiqarish (YAICht)	3730,4
2	Xizmatlar ishlab chiqarish (XIChx)	3173,6
So'ngi iste'molchining bozor narxlaridagi oraliq iste'moli (OI)		
4	Tovarlar ishlab chiqarishdagi (OIt)	2025,0
5	Xizmatlar ishlab chiqarishdagi (OIx)	1213.8
Bilvosita hisobga olinadigan		
6	Vositachilik moliyaviy xizmatlar (BXOVMX)	9.4
7	Mahsulotlarga soliqlar (MS)	477.2
8	Mahsulotlarga subsidiyalar (MSU)	172.6

Yechish: Quyidagi ko'rsatkichlarni hisoblaymiz:

1. Tovar ishlab chiqaruvchi tarmoqlarda

$$\text{YAQQt} = \text{YAICht} - \text{Oit} = 3730.4 - 2025 = 1705.4$$

2. Xizmatlar ko'rsatuvchi tarmoqlarda

$$\text{YAQQx} = \text{YAIChx} - \text{Oix} = 3173.6 - 1213.8 = 1959.8$$

3. Yalpi iqtisodiyot bo'yicha

$$YAQQ = YAQQ_t + YAQQ_x - BXOVMX = (1705.4 + 1959.8) - 9.4 = 3655.8$$

4. Jami iqtisodiyot bo'yicha asosiy baholarda ishlab chiqarish (YAI)

$$YAICH = YAICht + YAICHx = 3730.4 + 3173.6 = 6904$$

5. Jami iqtisodiyot bo'yicha oraliq iste'moli (OI) (moliyaviy xizmatlar vositachiligi ko'shilgan holda)

$$OI = OIt + Oix + BXOVMX = 2025 + 1213.8 + 9.4 = 3248.2$$

6. Mahsulotlarga va importga sof soliqlar (MISS):

$$MISS = MS - MSU + ISS = 477.2 - 172.6 = 304.6$$

7. Bozor narxlaridagi YAIM:

$$YAIM = YAQQ + MISS = 3655.8 + 304.6 = 3960.4 \text{ yoki}$$

$$YAIM = YAICH - OI + MISS = 6904 - 3248.2 + 304.6 = 3960.4$$

Taqsimlash usuli bo'yicha YAIMni hisoblaymiz:

Taqsimlash usuliga asosan yalpi ichki mahsulot hajmi hududidagi barcha rezident va norezident to'langan birlamchi daromadlari yig'indisiga teng bo'ladi:

$$YAIM = \Sigma BD$$

Yuqoridagi misol ma'lumotlariga qo'shimcha tarzida quyidagi ma'lumotlardan ham foydalanamiz:

t/r	Ko'rsatkichlar		
1	Iqtisodiyotning yalpi foydasi va yalpi aralash daromadlar	(YAM+YAD)	1789.2
2	Yollangan xodimlar mehnat haqqi	(MX)	1719.8
3	Ishlab chiqarish va importga soliqlar	(S)	596.2
4	Ishlab chiqarish va importga subsidiyalar	(SU)	144.8

YAIM taqsimlash usuli bilan hisoblaymiz:

$$YAIM = YAM + YAD + MX + S - SU = 1789.2 + 1719.8 + 596.2 - 144.8 = 3960.4$$

Oxirgi foydalanish usuli bilan esa YAIM quyidagicha isoblanadi:

t/r	Ko'rsatkichlar		
1	Oxirgi iste'mol xarajatlari	(OI)	2677.8
2	Yalpi jamg'arish	(YAJ)	1124.0
3	Tovar va xizmatlar eksporti	(TXE)	1020.0
4	Tovar va xizmatlar importi	(TXI)	881.4

$$YAIM (\text{oxirgi iste'mol usuli}) = OI + YAJ + (TXE - TXI) = 2677.8 + 1124.0 + (1020.0 - 881.4) = 3801.8 + 138.6 = 3940.4$$

Tadqiqot maqsadlaridan kelib chiqqan holda YAIM joriy yoki taqqoslama (o'zgarmas) narxlarda hisoblanadi.

Yalpi ichki mahsulot hajmini o'zgarmasbaholarda hisoblash uchun quyidagi usullar qo'llaniladi:

baho indeksi yordamida deflyatorlash;

ikki karrali deflyatorlash;

fizik hajm indeksi yordamida bazis davr ko'rsatkichlarini eksropolyatsiyalash;

xarajat elementlarini qayta baholash.

3.3. Amaliy mashg'ulotlar uchun masalalar

3.3.1. Quyidagi ma'lumotlar ma'lum (mln.so'm):

T/r	Ko'rsatkichlar	Mln so'm
Asosiy narxlardagi yalpi ishlab chiqarish (YAI):		
1	Tovarlar ishlab chiqarish (ICht)	3104.8
2	Xizmatlar ishlab chiqarish (IChx)	2653.2
So'ngi iste'molchi bozor narxlaridagi oraliq iste'moli (OI):		
1	Tovar ishlab chiqarishda (OI _t)	2250.0
2	Xizmatlar ishlab chiqarishda (OI _x)	1348.6
3	Bilvosita aniqlanadigan moliyaviy vositachilik xizmatlari (BAMVX)	12.2
4	Mahsulotlarga soliqlar (MS)	530.2
5	Mahsulotlarga subsidiyalar (MSU)	206.5

Ishlab chiqarish usuli bilan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) va yalpi ichki mahsulot (YAIM) ko'rsatkichlarini aniqlang.

3.3.2. Quyidagi ma'lumotlar ma'lum (mln.so'm):

T/r	Ko'rsatkichlar	Mln.so'm
1	Iqtisodiyotning yalpi foydasi va yalpi aralash daromadlar (YAF+YAAD)	940.5
2	Yollanma xodimlar mehnat haqi (MH)	1475.8
3	Ishlab chiqarish va importga soliqlar (S)	652.4
4	Ishlab chiqarishga va importga soliqlar (S)	588.6

Yalpi ichki mahsulot (YAIM) ni taqsimot usuli bilan hisoblang.

3.3.3 Quyidagi ma'lumotlar ma'lum (mln. so'm):

T/r	Ko'rsatkichlar	Mln.so'm
1	So'ngi iste'mol xarajatlari (SIX)	1881
2	Yalpi jamg'arish (YaJ)	965.3
3	Tovarlar va xizmatlar eksporti (TXE)	1250.4
4	Tovarlar va xizmatlar importi (TXI)	887.2

So'nggi iste'mol usuliga asoslanib, yalpi ichki mahsulot (YAICH)ni aniqlang.

3.3.4. Hisobot davri mobaynida quyidagi ma'lumotlar ma'lum (mln.so'm):

T/r	Ko'rsatkichlar	Mln.so'm
1	Asosiy narxlardagi tovarlar ishlab chiqarilishi va ko'rsatilgan xizmatlar	468.0
2	Oraliq iste'moli (bilvosita hisobga olinadigan moliyaviy xizmatlar ham hisobga olingan miqdori)	231.6
3	Mahsulotlarga va importga sof soliqlar	25.4
4	Ishlab chiqarishga bo'lgan boshqa soliqlar	68.9
5	Yollanma xodimlar mehnat haqi	122.3
6	Iqtisodiyotning yalpi foydasi va aralash daromadlar	114.1
Oxirgi iste'mol xarajatlari:		

7	Uy xo'jaliklarining	142.5
8	Davlat muassasalarining	72.6
9	Uy xo'jaliklariga xizmat qiluvchi notijorat tashkilotlarning	32.9
10	Asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi	82.4
11	Moddiy aylanma mablag'larning ko'payishi	42.4
12	Eksport va import saldosi	42.1

Mavjud ma'lumotlardan foydalanib bozor narxlaridagi yalpi ichki mahsulot hajmi uch xil usul bilan hisoblansin.

3.3.5. Quyidagi ma'lumotlardan foydalanib, yalpi ichki mahsulot (bozor narxlarida) ni uch xil usul bilan hisoblang (mln.so'm):

T/r	Ko'rsatkichlar	Mln.so'm
1	Asosiy narxlardagi tovarlar ishlab chiqarilishi va ko'rsatilgan xizmatlar	780.6
2	Oraliq iste'moli (bilvosita hisobga olinadigan xizmatlar bilan birgalikda)	376.5
3	Mahsulotlarga va importga sof soliqlar	37.2
4	Ishlab chiqarishga bo'lgan boshqa soliqlar	110.3
5	Yollanma xodimlar mehnat haqi	205.7
6	Iqtisodiyotning yalpi foydasi va yalpi aralash daromadlari	198.4
Oxirgi iste'mol xarajatlari:		
7	Uy xo'jaliklarining	223.4
8	Davlat muassasalarining	118.2
9	Uy xo'jaliklariga xizmat qiluvchi notijorat tashkilotlarning	56.2
10	Asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi	139.2
11	Moddiy aylanma mablag'larning ko'payishi	73.5
12	Eksport va import saldosi	58.9

3.3.6. Quyidagi ma'lumotlar ma'lum (mln. so'm):

Ko'rsatkichlar	Summa, mln. so'm
Yalpi milliy daromad (YAMD)	10120.3
Kapital iste'molning qoplanishi	1230.5
Biznesdan bilvosita soliqlar	980.2
Ijtimoiy sug'urta badallari	1012.5
Korporatsiya daromadlariga soliq	594.1
Korporatsiyalarning taqsimlanmagan daromadlari	560.2
Transfert to'lovlari	1540.2

Aniqlansin:

- 1.Sof milliy mahsulot.
 - 2.Milliy daromad.
 - 3.Shaxsiy daromad.
 - 4.Soliqlar to'langandan keyingi daromad.
- Xulosa qiling.

3.3.7. Viloyat korxonalarning hisobot davridagi ishlab chiqarish jarayonlari to'g'risida quyidagi ma'lumotlar ma'lum:

Korxonalar	Hisobot davri		Sotilgan mahsulot qiymati, mln.so'm	Qo'shilgan qiymat
	Bir birlikning narxi,so'm	Ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori		
A	500	6000	3000,0	?
B	700	15000	10500,0	?
V	5000	3000	15000,0	?
G	6000	3000	18000,0	?
D	7000	3000	21000,0	?

Aniqlansin:

- 1.Sotilgan mahsulotlar umumiy qiymati.
- 2.Har qaysi korxona bo'yicha va viloyat bo'yicha qo'shilgan qiymat summasi (daromad umumiy summasi).
- 3.YAMDni hisoblashda qo'shilgan qiymatning qaysi qismi hisobga olinishi zarurligini aniqlang

3.3.8. Hisobot davrida respublika iqtisodiyotida daromadlar va xarajatlarning taqsimlanishi to'g'risida quyidagi shartli ma'lumotlar ma'lum (mlrd.so'm):

Dromadlar: YAMD xrajatlar yig'indisi sifatida	Summasi mlrd.so'm hisobida	Taqsimlanishi: YAMD barcha daromadlar yig'indisi sifatida	Summasi mlrd.so'm hisobida
Shaxsiy iste'mol xarajatlari	7850.2	Iste'mol qilingan kapital hajmi	1500.3
Yalpi xususiy ichki investitsiyalar	3500.2	Byudjetga bevosita solliqlar	1320.5
Tovarlar va xizmatlar davlat hududida	3850.4	Yollanma xodimlar mehnat haqi	6543.8
Sof eksport	2316.5	Ijara to'lovi foizlar	580.2
		Yalpi tartibdagi qo'yilmalardan daromadlar	1130.8
		Korporatsiyalarning foydasiga solliqlar	780.8
		Dividentlar	740.5
		Korporatsiyalarning taqsimlanmagan foydasi	810.7

Aniqlansin:

Turli usullar bilan YAMD hajmi:

- a) Ishlab chiqarish usuli bilan;
- b) Daromadlar usuli bilan;
- 2 Sof milliy mahsulot.
- 1 Milliy daromad.

4 Agar joriy davrda o'tgan davrga nisbatan baholar o'rtacha 35,5% ga oshganligi ma'lum bo'lsa, real YAMD summasi.

3.3.9. Quyidagi ma'lumotlar ma'lum:

Ko'rsatkichlar	Summasi, mlrd.so'm
Yalpi milliy daromad (YAMD)	11200.4
Iste'mol qilingan kapitalning qoplanishi	1120.5
Biznesdan bilvosita soliqlar	984.6
Ijtimoiy sug'urta badallari	998.3
Korporatsiyalar daromadlariga soliq	575.8
Korporatsiyalarning taqsimlanmagan daromadlari	554.6
Transfert to'lovlari	1540.3
Yakka tartibdagi (individual) soliqlar	1950.0

Aniqlansin:

1. Sof milliy mahsulot summasi.
2. Milliy daromad summasi.
3. Shaxsiy daromad summasi.
4. Soliqlar to'langandan keyingi daromadlar summasi.

3.3.10. Quyidagi ma'lumotlar ma'lum:

Ko'rsatkichlar	Davrlar		Indeks	
	O'tgan	Hisobot	Baho	Fizik hajmi
1. Moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining yalpi ishlab chiqarish hajmi	180.0	360.0	2.88	-
2. Bozor xizmatlari yalpi ishlab chiqarish hajmi	170.0	810.0	4.50	-
3. Jamoaga xizmat ko'rsatish uchun byudjet muassasalarining joriy xarajatlari	144.0	288.0	-	2.16
4. Aholida korxonalarga xizmat ko'rsatish uchun byudjet muassasalarining joriy xarajatlari	90.0	92.2	-	2.088
5. Moddiy ishlab chiqarish tarmoqlaridagi oraliq iste'moli	62.0	162.0	3.24	-

6.Bozor xizmatlari sohasida oraliq iste'moli (yalpi ishlab chiqarishga nisbatan foiz hisobida)	54.0	50.4	-	-
7.Byudjet muassasalarining oraliq iste'moli	48.6	109.8	3.14	-
8.Mahsulot va import sof solig'i	43.2	108.0	4.32	-

Hisoblansin:

1.Yalpi ichki mahsulot (YAIM) hajmi.

2.Doimiy baholardagi YAIM hajmi.

3.YAIM fizik hajm indeksi.

Hisoblangan ko'rsatkichlarning natijalariga asoslanib xulosa qiling.

4-MAVZU. BAHO, TARIF VA INFLYATSIYA STATISTIKASI.

4.1. Amaliy mashg'ulot o'qitish texnologiyasi

Tinglovchilar soni:	Ajratilgan vaqt:
O'quv mashg'ulotining shakli	Amaliy – bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha mashg'ulot.
Amaliy mashg'ulotning reja savollari	1. Narxlarning mohiyati va narx statistikasining vazifalari. 2. Narxlarning tarkibi va narxni kuzatish usullari. 3. Narxlar indeksini hisoblash usullari. 4. Inflyatsiya mohiyati va inflyatsiya darajasi.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Narxlarining mohiyatini, asosiy vazifalarini, narx belgilari bo'yicha guruhlashni, statistikasini, tarkibini, indeksini hisoblash, hamda inflyatsiya mohiyatini o'rgatish.	
Pedagogik vazifa: - Baho (narx)larning mohiyatini va narx statistikasining vazifasini tushuntirish; - Narxlarning tarkibini va narxni kuzatish usullarini o'rgatish; - Narxlar indekslarini hisoblash usullarini o'rgatish; - Inflyatsiya mohiyati va inflyatsiya darajasini o'rgatish.	O'quv faoliyatining natijasi: -Baho (narx)larning mohiyatini va narx statistikasining vazifasini tushunadilar; - Narxlarning tarkibini va narxni kuzatish usullarini o'rganadilar; -Narxlar indekslarini hisoblash usullarini o'rganadilar; -Inflyatsiya mohiyati va inflyatsiya darajasini o'rganadilar.
O'qitishning usuli-texnika	Blis-so'rov va grafik organayzer;
O'qitish vositasi	Tarqatma materiallar, slaydlar, proyektor.
O'qitishning shakli	Jamoa, frontal, to'g'ridan-to'g'ri ishlash
O'qitish shartlari	Texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya
Monitoring va baholash	Savol –javob

Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasisi

Ish jarayonlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog.	Tinglovchi
1- bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Amaliyot mashg'ulotining mavzusi va asosiy savollarini eslatadi. o'quv mashg'ulotining maqsadi va natijalarini tushuntiradi. 1.2. Mavzu bo'yicha blis-so'rov o'tkazadi	Eshitishadi.
2- bosqich. Bilimlarni zamonaviy -lashtirish (15min.)	2.1.Tinglovchilarni 4 guruhga ajratadi. Guruh a'zolarini o'zaro hamkorlikda ishlashga qulay qilib joylashtiradi. O'tgan mavzu bo'yicha qo'yilgan savollarga asoslangan holda fikrlar berishga chaqiradi. Kuzatadi, muvofiqlashtiradi va rag'batlantiradi 2.2.Baho (narx)larning mohiyatini va narx statistikasining vazifasi; - Narxlarning tarkibini va narxni kuzatish usullari; - Narxlar indekslarini hisoblash usullari; - Inflyatsiya mohiyati va inflyatsiya darajasi. Yakuniyxulosanishakllantiradi.	Eshitishadi, guruhlarga ajratishadi. Berilgan savollarga javob berishadi va boshqa guruh qatnashchilarn ing javoblarni to'ldirishadi.
3- bosqich. Asosiy qism (45 min.)	2.1.Tinglovchilarni 4 guruhga ajratadi. Guruh a'zolarini o'zaro hamkorlikda ishlashga qulay qilib joylashtiradi. 2.2. Har bir guruhga narxlar indekslarini hisoblash usullari bo'yicha misol va masalalar beriladi 2.3. Bajargan ishlarini taqdimotga tayyorlaydilar va yakuniy xulosalarni shakllantiradi	Eshitishadi, guruhlarga ajrashishadi. Guruh o'quvchilarida n biri taqdimot qiladi.
3- bosqich. Yakuniy (15 min.)	3.1.Qo'yilgan har bir savol qanday hal qilingani to'g'risida yakuniy xulosa beriladi. 3.2.Tinglovchilarning faoliyatiga baho qo'yiladi va rag'batlantiriladi. 3.3.Kelgusi mashg'ulotga tayyorgarlik qilish bo'yicha aholini turmush darajasini statistik o'rganishni amalga oshirish sxemasiga tavsif mavzusida referat tayyorlashni 2 ta talabaga topshiradi: 1. Davlat byudjeti mohiyati va statistikaning vazifalari. 2.Davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari statistikasi.	Eshitishadi va yozib olishadi.

4.1.Uslubiy ko'rsatmalar va masalalarning yechilishi

Jamiyatimizda ishlab chiqarayotgan barcha mahsulotlarga-tovarlarga mehnat sarflanadi. Jamiyat miqyosida tovarlarning qiymati sarflangan ijtimoiy mehnat bilan o'lchanadi. Boshqacha qilib aytganda, o'rtacha zururiy mehnat. Narx esa, shu ishlab chiqarilgan tovarga sarflangan ijtimoiy mehnatning, ya'ni qiymatini puldagi ifodasidir. Narx jamiyat miqyosida qiymatning puldagi ifodasi ekan. Narxtovarning qiymati bilan belgilanadi, lekin u aniq bir Tovar qiymatidan yuqori yoki past ham bo'lishi mumkin. Bozor munosabatlari sharoitida ishlab chiqarilayotgan tovarlarning narxlari erkin bo'lib, talab va taklif o'rtasida kelib chiqadi. Ayrim davrida talab kuchaysa, narxning oshishi, aksincha, taklif ko'paysa, narx qiymatdan pasayishi mumkin. Bozor munosabatlari sharoitida narxlarning ahamiyati kuchaymoqda. Shuning uchun ham har bir davlat o'zining narx siyosatini olib boradi. Chunki, narx aholini turmush tarzini mamlaktning iqtisodiy rivojlanishni va boshqa makro-mikro darajadagi asosiy ko'rsatkichlarga ta'sir qiladi. Shuning uchun ham narxlarning holatini, ularning o'zgarishni, inflyatsiya darajasini yaxshi o'rganish lozim. Hozirgi vaqtda narxlar quyidagi asosiy vazifalarni bajaradi:

1. Davlat narx siyosati orqali o'zining iqtisodiy siyosatini amalga oshiradi.

2. Narx talab va taklif muvozanatini saqlab, tovarlar ishlab chiqarish va ularning tarkibiga ta'sir qiladi.

3. Narx tovar aylanishi tezligi, pul muomalasi va davlat byudjetiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi paytda ulgurji, shartnomaviy, chakana narxlar mavjud. Har qanday narx tarkibi mahsulot ishlab chiqarish uchun sarflangan moddiy va mehnat xarajatlaridan, soliqlardan va korxona foydasidan iborat. Ishlab chiqarish xarajatlari Respublika Vazirlar Mahkamasi 1999 yil 5 fevral 54-qarori bilan tasdiqlangan «Mahsulot ishlab chiqarish tan narxiga kiritiladigan xarajatalr tarkibi va moliyaviy natijalarni shakllantirish tarkibi to'g'risida»gi nizom asosida bo'ladi.

Mahsulot tan narxiga kiritiladigan soliqlarni bilamiz. Chakana narx bilan sotiladigan tovarlarga savdo tashkilotlarining xarajatlarini qoplash va foyda olish uchun savdo ustamasi ham qo'yiladi. Shunday qilib, joriy yildagi Tovar oboroti : $T_o = \sum q_1 p_1$.

Bazisli tovaroborot: **Baz.** $T_o = \sum q_0 p_0$.

Indeks tovaroborot: $I_{qp} = \frac{\sum q_1 p_1}{\sum q_0 p_0}$.

Tovar joriy yildagi oborotning bazis yoki o'tgan yilgi tovaroborotdan farqi quyidagicha topiladi:

$$T_o \text{ mut.o'zch.} = \sum q_0 p_0.$$

Narxlarni turli belgilari bo'yicha guruhlash mumkin.

1. Tovar (mahsulot) aylanmasiga qarab: narxlar – ulgurji, chakana, xarid narxlariga, smeta qiymati (qurilishda) bo'lishi mumkin.

2. Davlatni narxni shakllantirish ta'siriga qarab: davlat tomonidan qayd qilingan (fiksirovannie), regulirovka qilinadigan va erkin (bozor) narxlariga bo'linadi.

3..Narxlarning vaqt (davr).omili bo'yicha qo'llanishiga qarab: doimiy, o'zgaruvchan va sezonli narxlarga bo'lish mumkin.

Narxlar baholar muhim iqtisodiy kategoriyalardir. Ularning o'zgarishi mahsulot ishlab chiqaruvchilar, xizmat ko'rsatuvchilar, davlat byudjetiga (soliqlar bo'yicha) aholi turmush darajasiga va umuman mamlakatning iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etadi. Shuning uchun ham narxlarni doimiy kuzatib, qayd qilib boriladi.

Davlat mulkiga asoslangan rejali iqtisodda narxlar qat'iy belgilangan bo'lib, ular tovarlarning turlari, sifati va boshqa xususiyatlarini hisobga olgan holda rpeyskurantlarda ko'rsatilar edi. Preyskurantlar barcha tovarlar (mahsulotlar) bo'yicha tuzilib, undagi ko'rsatilgan narxlar maxsus registrlarda qayd qilinardi. Shunday qilib rejali iqtisodda barcha narxlar yoppasiga yalpi kuzatishda bo'lgan.

Bozor munosabatlariga o'tish, narxlarning erkinlashtirishi, narxning bozordagi talab va taklif asosida shakllanishi, ularni kuzatishni xalqaro tajribada qo'llanilayotgan – tanlab kuzatishga o'tishini taqozo etadi.

Tanlab kuzatish usulida vaqtni va narxni qayd qilish uchun vakil tovarlarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Tanlama kuzatish rekrezentativligini ta'minlash uchun bir xil uslubda narxni qayd qilish zarur. Buning uchun narxlarni bir xil sub'ektlarda, bir xil sifatdagi tovarlar bo'yicha, ma'lum bir vaqtda qayd qilish zarur. Narxlar asosiy oziq-ovqat tovarlari bo'yicha har kuni, boshqa tovarlar bo'yicha belgilangan muddatlarda (hafta, bir oy) qayd qilinadi.

Narxlarning o'zgarishini statistik o'rganishda indeks usuli keng qo'llanadi. Indeks usulidan foydalanib, alohida tovarlar (mahsulotlar, xizmatlar) narxlarining o'zgarish sur'atlarini, shuningdek tovarlar guruhlar yoki barcha tovarlar bo'yicha o'rtacha narxlarning o'zgarishini aniqlash mumkin.

Alohida tovarlar narxining o'zgarishini aniqlash uchun oddiy (individual) narx indeksidan foydalaniladi.

$$i_p = P_1 / P_0;$$

Bu yerda: P_1 - tovarning joriy narxi (bahosi);

P_0 - tovarning bazis davr narxi (bahosi).

i_p - tovar narxlarining indeksi.

Misol. Samarqand shahri Siyob bozorida 2012 yil avgust oyida 1 kg mol go'shtining narxi 14000 so'm, o'tgan 2011 yil avgust oyida esa 1 kg mol go'shtining narxi 12000 so'm bo'lgan bo'lsa. Narx indeksi i_p - ? $R_0 = 12000$ so'm, $R_1 = 14000$ so'm.

$$i_p = 14000 : 12000 = 1,17.$$

Demak, ushbu davrda Samarqand shahrida Siyob bozorida mol go'shtining narxi 17,0 % ga oshgan. Lekin, alohida tovarlar bo'yicha narxlar tebranib turadi. Talab ko'paysa oshadi, taklif ko'paysa - narx pasayadi. Bu bozor munosabatlarida bo'ladigan doimiy hodisadir. Bir davrda ayrim tovarlar narxi oshgan bo'lsa, shu vaqtning o'zida ayrim tovarlar narxi pasaygan bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham ayrim alohida olingan tovarlar narxlarining o'zgarishi bo'yicha, umumiy xulosalar chiqarib bo'lmaydi.

Statistikada tovar guruhlar yoki barcha tovarlar bo'yicha o'rtacha narxlar hisoblanadi va ularning o'zgarishi o'rganiladi.

O'rtacha narxlarni hisoblash uchun qanday ma'lumotlar borligiga qarab, vaznli arifmetik o'rtacha, vaznli garmonik o'rtacha, o'rtacha xronologik yoki vaznli xronologik o'rtacha formulalaridan foydalanish mumkin.

$$\text{Vaznli arefmetik o'rtacha narx: } \bar{p} = \frac{\sum pq}{\sum q};$$

Bu o'rtacha vazn tovarlarning natural miqdori bo'lganda qo'llanadi. Vaznli garmonik o'rtacha narx: $\bar{p} = \frac{\sum pq}{\sum \frac{pq}{q}};$

Bu o'rtacha vazn tovar aylanmasi bo'lganda qo'llaniladi.

$$\text{Oddiy xronologik o'rtacha narx: } \bar{p} = \frac{\frac{1}{2}P_1 + P_2 + P_3 + \dots + \frac{1}{2}P_n}{n-1};$$

Bu o'rtacha tovar narxlarining qayd qilinishi teng davrlarda bo'lganida qo'llanadi.

$$\text{Vaznli xronologik o'rtacha narx: } P_i = \frac{P_i t_i}{t_i}$$

Bu yerda $\bar{P}_i$ - i davrdagi o'rtacha narx; P_i - i davrdagi qayd qilingan narx t_i - idavrdagi davrlar (kunlar, oylar, ...) soni.

Bu o'rtacha tovar narxlarining qayd qilinishi turli (tengsiz) davrlarda bo'lganda qo'llaniladi.

Narxlar o'zgarishini aniqlashda indeks usulidan qadimdan foydalanganlar. Fransuz iqtisodchisi 1738 yilda narx o'zgarishining umumiy indeksini quyidagi tarzda aniqlashni taklif etgan.

$ip = \frac{\sum P_1}{\sum P_0};$ Bu yerda $\sum P_1$ va $\sum P_0$ narxlarning joriy va bazis davrdagi yig'indisi ko'rinib turibdiki, narx indeksini bunday hisoblashda tovarlar turlari va miqdorlarining o'zgarishlari inobatga olinmagan. Ma'lumki, tovar guruhlari yoki barcha tovarlar bo'yicha narxlar o'zgarishi o'rganilganda, o'rtacha narxlarga tovarlarning (mahsulotlarning) turlari va ular miqdorlarining ham vaznlari ham ta'sir qiladi.

Shuning uchun ham narxlar indekslari takomillashtirilib, agregat usulda qo'llanilib, tovar miqdorlari ham hisobga olinadiagn bo'ldi. Bu borada nemis olimlari E.Laspeyres va G.Paashe taklif etgan narx indekslari diqqatga sazovordir.

$$E.Laspeyres \text{ narx indeksi } J_p = \frac{\sum q_0 P_1}{\sum q_0 P_0};$$

Demak, bu narx indeksida vaznlari bazis fizik hajm miqdorida berilgan.

G.Paashe 1874 yilda narx agregat indeksini joriy davr narxlarini joriy davr fizik hajm miqdorida hisoblashni taklif etdi.

$$J_p = \frac{\sum q_1 P_1}{\sum q_1 P_0};$$

Indekslarda hisoblashda vazn albatta ta'sir qiladi. Shuning uchun ham narx indekslarini hisoblashda E.Laspeyres yoki G.Paashe formulasini qo'llaganda biroz farq kelib chiqadi. Demak, shunday formula topish kerakki, yuqoridagi farq bo'lmasin. Buning uchun Amerikalik olim I.Fisher yuqoridagi ikkita indeksdan o'rtacha geometrik indeksni hisoblashni taklif etdi.

$$J_p = \sqrt{\frac{\sum q_0 P_1}{\sum q_0 P_0} \times \frac{\sum q_1 P_1}{\sum q_1 P_0}};$$

Bu indeksni hisoblaganda taqqoslovchi baza ta'sir etmaydi.

Ushbu mavzu bo'yicha ayrim masalalarning yechimi va ulardagi ko'rsatkichlarning mohiyati va mazmuni bilan tanishib chiqaylik.

1. Dehqon bozorlarida (fevral oyida) sotilgan tovarlar to'g'risida quyidagi ma'lumotlar ma'lum:

Tovar	Sotilgan tovarlar miqdori, ming kg		1 kg ning o'rtacha narxi, so'm	
	2010 y	2011 y	2010 y	2011 y
Piyoz	250	280	300	400
Kartoshka	420	500	600	800
Olma	150	160	800	1200

Aniqlansin:

1. Sotilgan tovarlarning narx va miqdor oddiy (individual) indeksleri.
2. Tovar oborotining umumiy indeksi.
3. Tovar oborotining fizik hajmi (miqdor) umumiy indeksi. Narx umumiy indeksi va narx o'zgarishi hisobiga tejalgan (oshiqcha xarajat qilingan) summa.
4. Tovar oborotining, narx va sotilgan tovarlar miqdorining o'zgarishi hisobiga o'zgarishi. Hisoblanilgan umumiy indekslar o'rtasidagi bog'lanishni ko'rsating.

Yechish:

a). Narx oddiy indeksi quyidagi formula yordamida hisoblaniladi:

$$I_P = \frac{P_1}{P_0}$$

Piyoz uchun $I_P = \frac{P_1}{P_0} = \frac{400}{300} = 1.33$ yoki 133,0 % (+ 33,0 %)

piyozning narxi hisobot davriga kelib, o'tgan davrga nisbatan 33,0 % ga oshgan ekan;

Kartoshka uchun: $I_P = \frac{P_1}{P_0} = \frac{800}{600} = 1.33$ yoki 133,3 % (+ 33,3 %)

Kartoshkaning narxi hisobot davriga kelib, 33,3 % ga oshgan ekan.

Olma uchun $I_P = \frac{P_1}{P_0} = \frac{1200}{800} = 1.5$ yoki 150,0 % (+ 50,0 %)

Olmaning narxi hisobot davriga kelib, 50,0 % ga oshgan ekan.

B) sotilgan tovarlar miqdori individual indeksi esa quyidagi formula yordamida hisoblaniladi: $I_q = \frac{q_1}{q_0}$;

piyoz uchun: $I_q = \frac{q_1}{q_0} = \frac{280}{250} = 1.12$ yoki 112,0 % (+ 12 %);

hisobot davrida o'tgan davrga nisbatan piyoz 12%ga ko'proq sotilgan ekan;

kartoshka uchun: $I_q = \frac{q_1}{q_0} = \frac{500}{420} = 1.19$ yoki 119,0% (+ 19,0 %);

sotilgan kartoshka miqdori 19,5 % ko'paygan ekan; olma uchun:

$$I_q = \frac{q_1}{q_0} = \frac{160}{150} = 1.06 \text{ yoki } 106,0 \% (+ 6 \%);$$

demak, sotilgan olma miqdori o'tgan davrga nisbatan 6,0% ko'paygan ekan.

2.Tovar oborotining umumiy indeksi quyidagi formula yordamida hisoblaniladi:

$$I_{pq} = \frac{\sum p_1 q_1}{\sum p_0 q_0} = \frac{400 \times 280 + 800 \times 500 + 1200 \times 200}{300 \times 250 + 600 \times 420 + 150 \times 800} = \frac{112000 + 400000 + 240000}{75000 + 252000 + 120000} = \frac{732000}{447000} = 1.682$$

yoki 168.2% (+ 68,2 %). Demak, dehqon bozorida hisobot davriga kelib, o'tgan davrga nisbatan tovaroboroti 68,2 % ga ko'paygan ekan.

3.Tovar oboroti fizik hajm indeksi uning agregat formulasi yordamida hisoblaniladi:

$$I_q = \frac{\sum q_1 p_0}{\sum q_0 p_0} = \frac{280 \times 300 + 500 \times 600 + 160 \times 800}{300 \times 250 + 600 \times 420 + 150 \times 800} = \frac{84000 + 300000 + 128000}{75000 + 252000 + 120000} = \frac{512000}{447000} = 1.145$$

yoki 114,5 % (+ 14,5 %). Demak, tovar oboroti fizik hajmi 14,5 % oshgan ekan.

4. Narx umumiy indeksi:

$$I_p = \frac{\sum p_1 q_1}{\sum p_0 q_1} = \frac{400 \times 280 + 800 \times 500 + 1200 \times 200}{300 \times 280 + 600 \times 500 + 160 \times 800} = \frac{112000 + 400000 + 240000}{84000 + 300000 + 128000} = \frac{732000}{512000} = 1.429$$

yoki 142,9 % (+42,9%) . Demak, sotilgan tovarlarning narxi hisobot davriga kelib, o'tgan davrga nisbatan 42,9% ga oshgan ekan. Narxning 42,9 % oshishi natijasida mazkur tovarlarni xarid qilgan

aholi, ma'lumki o'z mablag'larida oshiqcha xarajat qiladi. Bu summani aniqlash uchun narx umumiy indeksining suratidagi ifodadan uning maxrajidagi ifoda chegirib tashlanadi, ya'ni

$T(O) = \sum P_1 q_1 - \sum P_0 q_1 = 732000 - 512000 = 220000$ so'm miqdorida aholi o'z mablag'laridan oshiqcha xarajat qilganligini ifodalaydi.

Tovar oborotining o'zgarishini aniqlash uchun tovar oboroti umumiy indeksining suratidagi ifodadan, uning maxrajidagi ifoda chegirib tashlanadi, ya'ni

$$\Delta Pq = \sum P_1 q_1 - \sum P_0 q_0$$

Misolimizda: $\Delta Pq = 732000 - 447000 = 285000$ so'm.

Bu o'zgarish ikki omil ta'sirida sodir bo'lgan bo'lib, birinchi omil tovarlar narxining o'rtacha 39,3 % oshishi va ikkinchi omil esa, sotilgan tovarlar miqdorining 14,5 % ga ko'payganligi natijasidir. Bu omillar ta'sirini aniqlash uchun yuqorida hisoblanilgan umumiy indekslardan foydalaniladi.

Birinchi omil narx o'zgarishi hisobiga tovar oborotining o'zgarishini hisoblash uchun, narx umumiy indeksidan foydalaniladi:

$$\Delta p_{(p)} = \sum p_1 q_1 - \sum p_0 q_1 = 732000 - 512000 = 220000 \text{ so'm.}$$

Ikkinchi omil, tovarlar miqdorining ta'sirini aniqlash uchun esa, miqdor umumiy indeksidan foydalaniladi:

$$\sum p_{(q)} = \sum q_1 p_0 - \sum q_0 p_0 = 512000 - 447000 = 65000 \text{ so'm.}$$

Bu miqdorlarning yig'indisi tovar oborotining umumiy o'zgarishiga bevosita mos keladi:

$$\Delta p_{(q)} = \Delta p_{(p)} + \Delta p_{(q)} = 220000 + 65000 = 285000 \text{ so'm.}$$

Hisoblanilgan umumiy indekslar o'rtasida o'zaro bog'lanish mavjud, ya'ni

$$J_{pq} = J_p \cdot J_q = 1,429 \cdot 1,145 = 1,636.$$

Aholining tovarlar sotib olish uchun pul sarflari aholida tovarlar narxi va hamda tovarlar tarkibidagi o'zgarishlar ta'sirida o'zgaradi. Tarkibiy o'zgarishlar sifat o'zgarishini aks ettiradigan va o'rtacha narxlar o'zgarishining ta'siri ostida sodir bo'lishi mumkin. O'rtacha

narxlar o'zgarishiga tovar massasini hududlar, bozorlar bo'yicha qayta taqsimlanishi ta'sir etadi.

Statistika amaliyotida bu jarayonni o'rganish uchun o'rtacha narxlar tizimidan foydalaniladi. Bu tizim o'z ichiga o'zgaruvchan tarkibli narx umumiy indeksini, doimiy tarkibli narx indeksini va tarkibiy o'zgarishlar umumiy indeksini oladi va bu indekslar o'rtasida quyidagicha bog'lanish mavjud:

$$J_{\bar{p}} = J_p \cdot J_s$$

Bu indekslarning hisoblanish tartibi va ularning mohiyati bilan quyidagi 2 – misolda tanishib chiqamiz.

2. Quyidagi jadvalda aholida dehqon bozorlarida sotilgan bir xil nomdagi tovarlar to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan:

Dehqon bozorlari	Bir birlikning o'rtacha narxi, so'm		Sotilgan tovarning jami tovarlar hajmidagi hissasi, % larda.	
	2010 y.	2011 y	2010 y	2011 y
“Siyob” bozori	2500	3000	68	73
“Marmar” bozori	2700	3300	32	27

Mavjud ma'lumotlardan foydalanib, yuqorida qayd qilingan o'rtacha narx indeksi tizimiga kiruvchi quyidagi indekslarni hisoblaymiz:

O'zgaruvchan tarkibli narx umumiy indeksi:

$$J_{\bar{p}} = \frac{\bar{p}_1}{\bar{p}_0} = \frac{\sum p_1 q_1}{\sum q_1} \cdot \frac{\sum p_0 q_0}{\sum q_0} = \frac{3000 \times 0.73 + 3300 \times 0.27}{0.73 + 0.27} \cdot \frac{2500 \times 0.68 + 2700 \times 0.32}{0.68 + 0.32} = \frac{2190 + 891}{1.0} \cdot \frac{1700 + 864}{1.0} = \frac{3081}{1.0} \cdot \frac{2564}{1.0} = 3081 : 2564 = 1.202$$

yoki 120,2 % (+ 20,2 %).

Doimiy tarkibli narx umumiy indeksi:

$$J_p = \frac{\sum p_1 q_1}{\sum p_0 q_1} = \frac{3000 \times 0.73 + 3300 \times 0.27}{2500 \times 0.73 + 2700 \times 0.23} = \frac{2190 + 891}{1825 + 621} = \frac{3081}{2446} = 1.259$$

yoki 125,9 % (+ 25,9 %)

Tarkibiy o'zgarishlar indeksi:

$$J_s = \frac{\sum p_0 q_1}{\sum q_1} : \frac{\sum p_0 q_0}{\sum q_0} = \frac{2500 \times 0.73 + 2700 \times 0.27}{0.73 + 0.27} : \frac{2500 \times 0.68 + 2700 \times 0.32}{0.68 + 0.32} =$$

$$\frac{1925 + 621}{1.0} : \frac{1700 + 864}{1.0} = \frac{2446}{1.0} : \frac{2564}{1.0} = 2446 : 2564 = 0,953$$

yoki 95,3 % (-4,7 %).

Mavjud tizimdagi indekslar o'rtasidagi bog'lanishlardan foydalanib, hisoblanilgan indekslar natijalarini to'g'riligini tekshirib ko'ramiz:

$$J_{\bar{p}} = J_p \cdot J_s = 1.259 \cdot 0.953 = 1.2 \text{ yoki}$$

$$J_s = \frac{J_{\bar{p}}}{J_p} = \frac{1.2}{1.259} = 0.953 ;$$

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, har ikkala bozorda sotilgan mahsulotning o'rtacha narxi 2011 yilga kelib, 2010 yilga nisbatan 20,2 % ga oshgan ekan. Bu o'zgarishga har qaysi dehqon bozorida sotilgan mazkur tovar narxining o'rtacha 25,9 % ga oshishi va tovar tarkibidagi o'zgarishlarning 4,7 % ga pasayishi ta'sir qilgan ekan.

Iste'mol narxlari indeksi Laspeyress formulasi yordamida hisoblanadi. Unga asosan inflyatsiya darajasining hisoblanishi solishtiriladigan davr aniqlanilib, bu davr asos qilib olinadi.

Laspeyres formulasi quyidagi ko'rinishda ifodalanadi:

$$J = \frac{\sum p_1 q_0}{\sum p_0 q_0}$$

Ma'lumki, inflyatsiya darajasi turlicha bo'lishi mumkin. Amaliyot va nazariyada "past", "sudraluvchi", giperinflyatsiya va superinflyatsiya turlari shartli ravishda farq qilinadi.

Inflyatsion jarayonlarning turli iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini makro va mikro darajada tahlil qilinadi va bu maqsad uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi.

4.3. Amaliy mashg'ulotlar uchun masalalar

4.3.1. Sotilgan mahsulotlar to'g'risida quyidagi shartli ma'lumotlar ma'lum:

Sotilgan mahsulotlar Turlari	2010 y		Sotilgan mahsulot qiymati, ming so'm	
	1 tonna mahsulot narxi, ming so'm	2009 yilga nisbatan o'sishi, (marta hisobidan)	2010 y	2011 y
Parranda	7000,0	3,2	140600,0	168000,0
Sut va sut mahsulotlari	800,0	5,4	26008,0	28600,0
Tuxum (bir ming dona uchun)	200,0	6,5	3600,0	4800,0

Aniqlansin:

Mahsulot turlari bo'yicha 2009 yil uchun o'rtacha narx; 2009 va 2010 yillar uchun zanjirsimon va bazis usullari bilan mahsulot turlari bo'yicha o'rtacha narx o'sish sur'atlari;

4.3.2. Sotilgan tovarlar narxi va miqdori to'g'risida quyidagi ma'lumotlar ma'lum.

Tovarlar	O'lchov birligi	Bazis davri		Hisobot davri	
		Bir- birlik-ning narxi, ming so'm	Miqdori	Bir- birlik-ning narxi, ming so'm	Miqdori
A	Tonna	540,0	4000	680,0	5200
B	Metr	150,0	2500	145,0	2800
V	Dona	130,0	2200	160,0	2700

Aniqlansin:

Narx individual indekslari;

Joriy davr mahsulotlari bo'yicha tortilgan narx agregat indeksi (Paashe indeksi);

Bazis davri mahsulotlari bo'yicha tortilgan indeks (Laspeyress indeksi); Narx o'zgarishi omili hisobiga tovar oborotining mutlaq o'zgarishi (ikkala agregat indekslar asosida) hosil qilingan natijalarni tahlil qiling.

4.3.3. Dehqon bozorida sotilgan quyidagi qishloq xo'jalik mahsulotlari narxlari to'g'risida shartli ma'lumotlar ma'lum:

Mahsulotlar	2008 y	2009 y	2010 y	2011 y	2012 y	
					Yanvar	Iyun
Qo'y go'shti	7500	9000	10000	12000	14000	15000
Mol go'shti	6500	8500	9000	11000	13000	14000
Baliq	4000	4500	5500	6000	7000	8000
Xayvon yog'i	3500	3800	4000	4200	4800	5000
O'simlik moyi	1600	1800	2000	2300	2500	2500
Tuxum 10 dona	1500	1800	2000	2500	3000	2800

Aniqlansin:

Aholida mahsulot turlari bo'yicha narx indekslari aniqlansin:

2008 va 2009 yilga nisbatan 2010 yil uchun;

2011 yilga nisbatan 2012 yil yanvar oyi uchun;

2011 yilga nisbatan 2012 yil iyun oyi uchun.

4.3.4. Bir xil nomdagi mahsulotlar to'g'risida quyidagi ma'lumotlar ma'lum:

Savdo turlari	1 kg, tovarning o'rtacha narxi, so'm		Sotilgan tovarlar umumiy miqdoridagi hissasi, %	
	2010y	2011y	2010y	2011y

Davlat	5600	6000	56,0	48,0
Kooperativ	5800	6110	23,0	22,0
Xususiy	6100	5160	21,0	30,0
Jami	-	-	100,0	100,0

Aniqlansin:

- Savdo turlari bo'yicha tovar o'rtacha narxi indeksini (o'zgaruvchan tarkibli indeks);
- Narx o'rtacha o'zgarishi indeksi (doimiy tarkibli narx umumiy indeksi);
- Tarkibiy o'zgarishlar indeksi. Hosil qilingan natijalarni tahlil qiling va xulosa qiling.

4.3.5. Shahar dehqon bozorlarida 2011 yilning yanvar oyida sotilgan mahsulotlar to'g'risida quyidagi ma'lumotlar ma'lum:

Tovar	O'lchov birligi	Bir-birlik tovarning yanvar oyidagi chakana narxi, so'm	Yanvar oyida sotilgan tovar miqdori, ming birlik	2010 yilning yanvar oyiga nisbatan 2011 yilning yanvar oyiga kelib narxlarining o'zgarishi, % hisobiga
Mol go'shti	Kg	12000	380	+13,1
Sut	-/-	800	850	+24,0
Tuxum	10 dona	2500	940	O'zgarmagan

Aniqlansin:

1. Mahsulotlarning narx umumiy indeksi;
2. Narxlar o'zgarishi hisobiga tejalgan (oshiqcha xarajat qilingan) summa. Xulosaqiling.

4.3.6. Tuman aholisining 2011 yilda moddiy boyliklar va xizmatlari ste'moli quyidagi ma'lumotlar bilan tasvirlanadi:

Ko'rsatkichlar	Haqiqiy narxlarda sotilgan tovarlar va xizmatlar, mln. so'm hisobida	2011 yilda 2010 yilga nisbatan hisoblanilgan iste'mol tovarlari va xizmatlar indekslari hisobida
Oziqlanish mahsulotlari (alkogolli ichimliklarsiz)	5200,0	1,3
No oziq-ovqat mahsulotlari	3200,0	1,5
Alkogolli ichimliklar	1400,0	1,1
Puli xizmatlar	640,0	2,5

Aniqlansin:

1. Tovarlar va xizmatlar narx umumiy indeksi;
2. So'mning xarid quvvati (qobiliyati) indeksi;
3. Tovarlar va xizmatlar narxining oshishi natijasida aholining sarflagan oshiqcha xarajatlar summasi. Hisoblanilgan ko'rsatkichlar natijasiga asosanib xulosa qiling.

4.3.7. Tovar oboroti haqiqiy narxlarda 37,1% ga, sotilgan tovarlar fizik hajmi 5,2% ga oshganligi ma'lum bo'lsa, sotilgan tovarlar o'rtacha narxi qanday o'zgargan?

4.3.8. Haqiqiy narxlardagi tovar oboroti 2,0 martaga oshganligi va sotilgan tovarlarning narxi o'rtacha 3,3 martaga oshganligi ma'lum bo'lsa, sotilgan tovarlar fizik hajmi qanday o'zgargan?

4.3.9. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy qiymati hisobot davriga kelib, o'tgan davrga nisbatan 6,8% ga, sotilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarining fizik hajmi esa 3,6% ga oshganligi ma'lum bo'lsa, qishloq xo'jalik mahsulotlarining narxi o'rtacha qanday o'zgargan?

4.3.10. Hisobot davriga kelib, o'tgan davrga nisbatan tovar va xizmatlar narxi o'rtacha 13,7% ga oshganligi ma'lum bo'lsa, so'mning xaridqobiliyati qandayo'zgargan?

4.3.11. So'mning xarid qobiliyati o'tgan davrga nisbatan 15,6% ga pasaygani ma'lum bo'lsa, tovarlar va xizmatlar narxi o'rtacha qanday o'zgargan?

4.3.12. Tovarlar va pulli xizmatlar narxi o'tgan yilga nisbatan o'zgarmaganligi ma'lum bo'lsa, so'mning xarid qobiliyati qanday o'zgargan?

4.3.13. Dehqon bozorlaridan birida yanvar oyida sotilgan 1kg kartoshka 10 kun mobaynida 450 so'mdan, 15 kun mobaynida 500 so'mdan sotilganligi ma'lum. Yanvar oyida sotilgan kartoshkaning o'rtacha narxi 460 so'mni tashkil etganligi ma'lum bo'lsa, yanvar oyining qolgan kunlarida dehqon bozorida sotilgan kartoshkaning narxi necha so'mni tashkil etgan?

4.2.14. O'zgaruvchan tarkibli narx indeksi 133% ni, doimiy tarkibli narx indeksi esa 125 % ni tashkil etdi.

Tarkibiy o'zgarishlar indeksini aniqlang va aniqlanilgan natijalarni tushuntiring.

4.3.15. Tarkibiy o'zgarishlar indeksi 113,0% ni, o'zgaruvchan tarkibli narx indeksi esa 188,0% ni tashkil etganligi ma'lum bo'lsa, doimiy tarkibli narx indeksini aniqlang va hisoblanilgan ko'rsatkichlar natijalarini tushuntiring.

5-MAVZU. DAVLAT BYUDJETI STATISTIKASI

5.1. Amaliy mashg'ulotni o'qitish texnologiyasi

Tinglovchilar soni:	Ajratilgan vaqt
Mashg'ulotning shakli	Bilimlar doirasini kengaytirishga asoslangan amaliy mashg'ulot
Amaliy mashg'ulot rejasi	1. Davlat byudjeti mohiyati va statistikaning vazifalari. 2. Davlat byudjeti daromadlari statistikasi. 3. Davlat byudjeti xarajatlari statistikasi. 4. Davlat byudjeti defitsitini qoplash manbalari.
Mashg'ulotning maqsadi: davlat byudjeti mohiyatini, davlat byudjeti daromadlari statistikasini, davlat byudjeti xarajatlari statistikasini, davlat byudjeti difitsitini qoplash manbalarini, tijorat va byudjet tashkilotlari moliyaviy statistikasining asosiy ko'rsatkichlarini o'rgatish.	
Pedagogik vazifalar: -Davlat byudjeti daromadlari statistikasining ko'rsatkichlar tizimi haqida so'zlab berish. -Davlat byudjeti xarajatlari statistikasining asosiy ko'rsatkichlarini yoritib berish. -Davlat byudjeti defitsitini qoplash manbalari haqida aytib berish. -Tijorat va byudjet tashkilotlari moliyaviy statistikasining asosiy ko'rsatkichlarini sanab o'tish	O'quv faoliyatining natijasi: -Davlat byudjeti daromadlari statistikasining ko'rsatkichlar tizimi haqida biladilar. -Davlat byudjeti xarajatlari statistikasining asosiy ko'rsatkichlarini yoritib beradilar. -Davlat byudjeti defitsitini qoplash manbalari haqida biladilar. -Tijorat va byudjet tashkilotlari moliyaviy statistikasining asosiy ko'rsatkichlarini sanab o'tadilar..
O'qitish usullari	Informatsion-vizual amaliy mashg'ulot, «aqliy hujum»
O'qitish vositalari	Ma'ruza matni, tarqatma materiallar, slydlar, proyektor, diagramma va grafiklar.
O'qitish shakllari	Jamoa, frontal bo'lib ishlash.
O'qitish shart-sharoiti	Ma'ruza o'qish uchun kerakli texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya
Monitoring va baholash	Reyting baholash.

5.2. Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Ish jarayonlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog.	Tinglovchi
1-bosqich. Kirish (15 min.)	1.1. Amaliyot mashg'ulotining mavzusi va asosiy savollarini eslatadi. Oldingi mashg'ulot bilan mantiqiy bog'liqlikda davom ettiradi. Quyilgan muammoni, birinchi «muammoli vaziyat»ning shakllanishini va uni yechish bo'yicha xulosani eslatadi.	1.1.Eshitishadi
2-bosqich. Asosiy qism (55 min.)	2.1.Birinchi «muammoli vaziyat»ni e'lon qiladi. Quyidagi muammo: «Davlat byudjeti daromadlarining shakllanish xususiyatlari». Uni ishlash yo'llarini qidirishni tashkil qiladi. 2.2.Tinglovchilarni 4 guruhga ajratadi. Guruh a'zolarini o'zaro hamkorlikda ishlashga qulay qilib joylashtiradi. «Muammoli vaziyat»ning yechimi bo'yicha qo'yilgan savollarga asoslangan holda fikrlar berishga chaqiradi. Kuzatadi, muvofiqlashtiradi va rag'batlantiradi. 2.3. «Muammoli vaziyat»ning yechimi bo'yicha fikrlarning taqdimoti boshlanganligini e'lon qiladi. 2.4.Tanlov va baholash natijalariga asoslangan holda birinchi oraliq xulosani shakllantiradi. 2.5.Tinglovchilarga muammoning yechimi bo'yicha umumiy, yakuniy xulosani shakllantirishni taklif qiladi. Dars jarayonida izoh beradi, aniqlashtiradi va to'g'rilaydi. Yakuniy xulosani shakllantiradi.	2.1.Eshitishadi, guruh-larga ajrashishadi. 2.2.Har bir guruh opti-mal g'oyani tanlash, baholash va kuzatish uchun ekspertni tanlaydi. 2.3.«Muammoli vaziyat»ni yechimi bo'yicha taklif va fikrlar berishadi, ekspertlar ularni yozib borishadi. 2.4.Har bir guruhning eksperti «muammoli vaziyat»ning yechimi bo'yicha tanlab olingan fikrlarni berishadi. 2.5.Mualliflari o'z fikrlarini himoya qilishadi.
Yakuniy bosqich (10 min.)	3.1.Darsni yakunlaydi. Muammoni yechish jarayonidagi guruhlar faoliyatining ijobiy tomonlarini, muvaffaqiyatlarini aytib o'tadi. 3.2.Bajarilgan ishning kelgusidagi kasbiy faoliyati uchun naqadar muhimligini ko'rsatadi. 3.3.Mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi.	Xatolarni tahlil qiladi.

5.3. Uslubiy ko'rsatmalar va masalalarning yechilishi

Davlat byudjeti – mamlakat iqtisodiyotining boshqarishda, hukumatning iqtisodiy siyosatini amalga oshirishda muhim vosita hisoblanadi. Davlat xo'jalik yurituvchi sub'ektlar (korxona, tashkilot, firmalar), hamda jismoniy shaxs daromadlarining bir qismini soliqlar turida olib, markazlashgan moliyaviy resurslar tashkil etadi va uni aholining turli sabablar bilan (nogironlik, ko'pchilik, ishsizlik va shu kabi sabablar) kam ta'minlangan qatlamini himoya qilish, ijtimoiy muhojirani hamda davlatni boshqarish uchun xarajat qiladi. Budget ko'zining ma'nosi – chemoqan, pul to'ldirilgan xaltani bildiradi. Demak, byudjet davlatning bir tomonidan daromadlar, ikkinchi tomondan ularni nimalarga sarflanishini bildiradigan moliyaviy rejaqadir. O'zbekiston Respublikasining «Byudjet tizimi to'g'risida»gi (2000 yil 14 dekabrda tasdiqlangan) qonunida «Davlat byudjeti-davlat pul mablag'larini (shu jumladan davlat maqsadli jamg'armali mablag'larining) markazlashtirilgan jamg'armasi bo'lib, unda daromad manbalari va ulardan tushumlar miqdori, shuningdek moliya yili mobaynida aniq maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'lar sarfi yo'nalishlari va miqdori nazarda tutiladi», deyilgan.

Davlat byudjeti statistikasining asosiy vazifasi hukumatning fiscal siyosatining mazmuni va yo'nalishini belgilovchi byudjet ko'rsatkichlarini o'rganish va tavsif berishdir. Buning uchun davlat byudjetida quyidagilarni aniqlash va o'rganish lozim:

- Davlat byudjeti daromadlarining hajmi va uning davr mobaynida o'zgarishini;
- davlatbyudjetixarajatlariningumumiyhajmi vauningdavrmobayn idao'zgarishini;
- byudjet daromadlari tarkibi va uning o'zgarishini;
- byudjet xarajatlari tarkibi va uning o'zgarishini;
- davlat byudjeti daromadlarining xarajatlaridan ko'pligini ($BD > BX$ profitsit) yoki xarajatlarning daromadlardan (BD) ko'pligini ($BD < BX = \text{defitsit}$) o'rganish;

- byudjet defitsitini moliyalash (qoplash) manbalarini;
- hukumat fiskal siyosatining samaradorligini hamda fiskal siyosatning mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishga ta'sirini o'rganish.

Xalqaro valyuta fondi tavsiyasi bo'yicha davlat byudjeti ko'rsatkichlar tizimi quyidagicha guruhlanadi:

- A) Daromadlar va rasmiy olingan transportlar tasnifi;
- B) xarajatlar va sof kreditlari (qaytarilganidan tashqari) tasnifi;
- V) Byudjet defitsitini moliyalashga doir operatsiyalar tasnifi;
- G) Davlat qarzining tasnifi.

Davlat byudjetiga asosan soliqlar kelib tushadi va ular byudjet daromadining 80 % ko'prog'ini takshil etadi. Byudjetda to'lanadigan soliq turlari ko'p bo'lib, ularning asosiylari aksiz, qo'shilgan qiymat solig'i daromad (foyda) solig'i, mulk solig'i, suv resurslaridan foylanganlik uchun soliq va shu kabilar.

Aksiz solig'i aholi uchun juda zururiy ehtiyoj bo'lmagan ayrim (spirtli ichimliklar: vino, aroq, konyak; tamaki mahsulotlari, benzin, mashinada to'qilgan gilam kabi) ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarga belgilangan. Bu mahsulotlarni ishlab chiqaruvchilar aksiz solig'i to'lovchilar bo'lib, ular ishlab chiqargan tayyor mahsulotlar qiymatiga (tannarxiga) belgilangan stavkada aksiz solig'i qo'shib, xaridorlarga sotadilar. Korxonalar bu soliq summasini belgilangan muddatlarda davlat byudjeti o'tkazadilar.

Qo'shilgan qiymat solig'i – korxonalar ishlab chiqargan va sotilishi lozim bo'lgan tayyor mahsulotlar qiymatiga belgilangan stavkada qo'yiladi. Xaridorlar bu summani to'lagandan keyin, ishlab chiqarish korxonasi (tayyor mahsulotni sotgan korxona) qo'shilgan qiymat solig'i summasini byudjetga o'tkazadi.

Barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyat daromadlaridan (foydalaridan) belgilangan stavkalarda byudjetga daromad (foyda) solig'i to'laydilar. Daromad solig'i bo'yicha turli imtiyozlar bor, ularni bu yerda batafsil tushuntirib o'tmoqchi emasmiz. Chunki talabalar «Soliq va soliqqa tortish» deb nomlangan maxsus fan

o'tadilar. Faqat, shuni tushunish lozimki, bu soliq to'lovlarining daromadidan (foydasidan) to'lanadi.


Demak, mohiyati bo'yicha soliq solish ob'ektiga asosan to'g'ri (bevosita) soliq turiga kiradi. Daromad (foyda) solig'i deyilishiga sabab, ishlab chiqarish korxonalari faoliyatlaridan olgan sof tushumlaridan barcha xarajatlarini chegirib (chiqarib) tashlangan summadan, ya'ni foydadan soliq to'laydilar. Tijorat banklari, sug'urta tashkilotlari, aukcion, kozino, videosalon va shu kabilar daromad solig'i to'laydilar.

Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqni yer osti va yer usti suvlaridan foydalanuvchilar (yuridik shaxslar) belgilangan stavka bo'yicha byudjetga soliq to'laydilar.

Soliqlardan tashqari davlat byudjetiga soliqsiz to'lovlar ham kelib tushadi. Soliqsiz to'lovlarga qonun hujjatlariga muvofiq hadya etish, meros olish huquqi bo'yicha davlat mulkiga o'tgan mablag'lar; davlat mulkini xususiylashtirish (sotish) natijasida olingan mablag'lar; yuridik shaxslarga va chet davlatlarga berilgan byudjet ssudalarini qaytarish hisobiga berilgan to'lovlar, hamda chet el mamlakatlari, yuridik va jismoniy shaxslaridan beg'araz yordam sifatida qaytarilmaydigan olingan mablag'lar kiradi. Davlat byudjeti daromadlariga maxsus maqsad uchun tashkil etilgan pensiya fondiga, aholining ish bilan bandlik fondiga, yo'l fondiga kelib to'shadigan mablag'lar ham tenglashtiriladi.

Chet davlatlardan, chet el yuridik va jismoniy shaxslaridan olingan beg'araz yordamlar transfertlar deb ataladi.

Shunday qilib, davlat byudjeti daromadlarini sxemada ifodalasak.



Soliq tushumlarining o'zi yuqorida ko'rganimizdek iqtisodiy mohiyati bo'yicha uch guruhga bo'linadi. Bular bevosita (to'g'ri) soliqlar, bilvosita (egri) soliqlar va resurslardan foydalanganlik uchun soliqlar.

Davlat byudjeti xarajatlariga davlatning o'z funksiyasini bajarish maqsadida mamlakatni boshqarish, mudofaa qilish, xalq xo'jaligini rivojlantirish hamda ijtimoiy sohani yanada yaxshilash bo'yicha davlat byudjetidan qilgan sarflari yig'indisiga aytiladi.

Respublika Davlat byudjetining 2011 yilgi xarajatlari 3420,0 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Davlat mamlakatni boshqarish uchun hokimiyat apparatini saqlashi, tartibni saqlash va qonunni himoya qilish uchun sud, prokuratura, ichki ishlarni tuzadi, hamda barcha xarajatlarini byudjetdan qoplaydi.

Davlat mamlakatni himoya qilish (tashqi va ichki qarshi kuchlardan) uchun mudofaa – qurolli kuchlarni tashkil etadi va barcha xarajatlarni byudjetdan sarflaydi.

Davlat madaniy sohasidagi barcha asosiy xarajatlarini byudjetdan moliyalashtiriladi.

Davlat byudjeti xarajatlari iqtisodiy mohiyati bo'yicha quyidagicha tasniflanadi:

I. Joriy sarflar – davlat byudjeti sarflarining katta qismini tashkil etadi. Bu guruhga davlat boshqaruv sektorining barcha joriy xarajatlari kiradi.

II. Kapital sarflar – bu tarmoqlarni rivojlantirish uchun asosiy kapital, nommoddiy aktivlar, yer moddiy zaxiralar, qimmatbaho buyumlar sotib olish va shu kabi boshqa kapital sarflarni o'z ichiga oladi.

III. Kreditlash minus qarzning qoplanishi – bu guruhga davlatga tegishli muassasalarning boshqalarga bergan ssudalarni yoki aksiyalarni sotib olishga sarflangan (qaytarilgan ssudalar va qaytarib sotilgan aksiyalar qiymati chiqarib tashlanganidan keyin) xarajatlar kiritiladi.

Davlat byudjetining asosiy parametr ko'rsatkichlari har yili Respublika Oliy Majlisida ko'rib chiqiladi. Yil davomida davlat byudjeti ijrosini Respublika Moliya vazirligi va uning joylardagi hududiy (viloyat, shahar, tuman) moliya organlari amalga oshiradi. Xo'jalik yurituvchi boshqa soliq to'lovchilardan soliqlarning to'g'ri hisoblanganligini va o'z muddatida byudjetga o'tkazilganligini Davlat Soliq Qo'mitasi va joylardagi uning boshqarmalari nazorat qilib boradi. Davlat byudjetiga tushgan mablag'lar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki yoki boshqa tijorat banklarida ochilgan hisob varaqlarda (Respublika byudjeti, mahalliy byudjetlar) saqlanadi va Moliya vazirligi ko'rsatmasi bilan sarflanadi. Shuning uchun ham soliq, bojxona organlari, banklar davlat byudjetiga tushumlar (daromadlar) hamda byudjet mablag'larini ishlatuvchilar olingan mablag'larni maqsadli, reja (smeta) asosida foydalanganliklari bo'yicha hisobot topshiradilar.

Umuman davlat byudjetini o'rganishda statistik usullardan keng foydalaniladi. Amaliyotda davlat byudjeti daromadlari rejasining bajarilishi (hududlar bo'yicha, daromad turlari bo'yicha), daromadlarning bir necha yillarda umumiy hajmining va turlari bo'yicha o'zgarishini dinamika qatorlaridan foydalanib aniqlanadi.

Daromadlar tushumini tahlil qilganda indeks usulidan foydalanib, soliq solinadigan baza (B), soliq stavkasi (SS) va soliqlarning yig'ilish darajasiga (d) deb olinib, ularning o'zgarishi soliqlarning umumiy hajmiga ta'sirini (ΔSt – soliq tushumi hajmining farqi) aniqlash mumkin.

O'tgan davrdagi soliq hajmi: $ST_0 = B_0 \cdot SS_0 \cdot d_0$;

Joriy yildagi soliq tushumi: $ST_1 = B_1 \cdot SS_1 \cdot d_1$;

Joriy yilda soliq tushumining o'tgan davrga nisbatan o'zgarishi (farqi) $\Delta ST = St_1 - St_0$. Bu farqqa yuqoridagi uchta omilning ta'sirini qo'yidagicha aniqlash mumkin:

a) Soliq solish bazasining o'zgarishining soliq tushumi hajmiga ta'siri:

$$\Delta ST_a = (B_1 - B_0) \cdot SS_0 \cdot d_0;$$

b) Soliq stavkasining o'zgarishining soliq tushumi umumiy hajmiga ta'siri. $\Delta ST_b = (SS_1 - SS_0) \cdot d_0 B_1$.

v) Soliq yig'ilishi darajasi o'zgarishining soliq tushumi hajmiga ta'siri

$$\Delta ST_v = B_1 \cdot SS_1 \cdot (d_1 - d_0)$$

Davlat byudjeti defitsiti (taqchilligi) deganda byudjet daromadlaridan xarajatlarning ko'p bo'lganligi tushuniladi. Ko'pgina davlatlarda, hatto iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ham byudjet defitsiti kuzatiladi. XVF ning ma'lumotiga ko'ra 2000 yilda 126 davlatdan 98 tasi byudjeti defitsit bo'lgan.

Davlat byudjeti defitsiti ichki va tashqi manbalar hisobidan qoplanishi mumkin. Byudjet defitsitini qoplovchi ichki manbalarga davlat boshqaruviga qarashli va iqtisodiyotning boshqa sektorlariga qarashli mablag'larning jalb qilinishi: Respublika Markaziy bankidan olinadigan qarzarlar, davlatning qisqa va uzoq muddatli obligatsiyalarini chiqarish va sotish, yangidan pul chop qilib, muomalaga chiqarish (pul emissiyasi) va boshqa yo'llar bilan amalga oshiriladi.

Tashqi manbalar ham mamlakat byudjet defitsitini qoplash uchun xorijiy davlatlardan, xalqaro tashkilotlar, banklardan olinadigan qarzarlar yoki ularning mablag'larini iqtisodiyotga jalb qilishdir.

Demak davlat byudjetining defitsitini qoplash davlatning ichki va tashqi qarz majburiyatlarini ko'paytiradi. Lekin yuqoridagi davlat byudjeti defitsitini qoplash manbalari iqtisodiyotni rivojlantirishga turlicha ta'sir qiladi. Masalan, yangi pul massasini muomalaga (pul emissiyasi) chiqarish, tovar-moddiy boyliklar bilan ta'minlanmagan muomaladagi pulning ko'payishiga olib keladi, natijada narxlar oshib, inflyatsiya darajasi ko'tariladi.

1. Davlat byudjetining 2005 yil uchun belgilangan va haqiqiy ma'lumotlari quyidagi jadvalda o'z aksini topgan:

Ko'rsatkichlar	Belgilandi, mln.so'm	Haqiqatda, mln.so'm
1	2	3
Daromadlar, jami	4730,8	4780,0
jumladan:		

foyda solig'i	1510,0	1580,0
qo'shilgan qiymat solig'i	1840,0	1850,0
aksizlar	560,0	570,0
tashqi iqtisodiy faoliyatdan daromadlar	820,8	780,0
Xarajatlar, jami,	4700,0	4710,0
jumladan:		
ijtimoiy-madaniy tadbirlar uchun	1900,0	1905,0
davlat boshqaruvi, huquqni himoya qilish va xavfsizlik organlari	898,0	900,0
milliy mudofaa	1902,0	1905,0

Mavjud ma'lumotlardan foydalanib, quyidagi ko'rsatkichlarni hisoblaymiz:

1. Davlat byudjetining 2005 yilda bajarilish darajasi:

bu ko'rsatkich, jami daromadlar, hamda xarajatlar bo'yicha va har bir byudjet moddasi bo'yicha aniqlanadi.

Bu vazifani hal etish uchun reja bajarilish nisbiy miqdordan foydalaniladi, ya'ni haqiqiy daraja belgilangan darajaga nisbati 100 ga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi, ya'ni

$$DBBD = \frac{\text{Haqiqiy daraja} \times 100}{\text{Reja}} = \frac{4780,0 \times 100}{4730,8} = \frac{478000}{4730,8} = 101,04\%$$

qolgan ko'rsatilganlari ham shu tarzda aniqlanadi.

2. davlat byudjeti daromadlari va xarajatlarning tarkibini aniqlaymiz:

buning uchun hissani belgilaydigan (tarkib) nisbiy miqdordan foydalanamiz, ya'ni alohida moddalar darajasini 100 ga ko'paytirib, jamiga bo'lish yo'li bilan aniqlaymiz.

Daromadlar haqiqiy darajasi bo'yicha quyidagicha aniqlaymiz:

a) foyda solig'i:

$$\frac{1580 \times 100}{4780,0} = 33,05\%$$

b) qo'shilgan qiymat solig'i:

$$\frac{1850 \times 100}{4780,0} = 38,7\%$$

v) aksizlar:

$$\frac{570 \times 100}{4780,0} = 11,9\%$$

g) tashqi iqtisodiy faoliyatdan daromadlarning hissasi esa:

$$\frac{780 \times 100}{4780,0} = 16,3\%$$

ni tashkil etgan ekan. Xarajatlar tarkibi ham shu tariqa aniqlanadi.

2. Foyda solig'ining stavkasi hisobot davriga kelib, o'tgan davrga nisbatan – 2 % ga, korxonaning soliqqa tortiladigan foydasi hisobot davriga kelib 1,35 martaga ko'paydi. Soliqqa tortiladigan korxona foydasi hisobot davrida 1650000 so'mni tashkil etdi. Foyda solig'ining stavkasi bazis davrida 30 % ni tashkil etdi.

Mavjud ma'lumotlardan foydalanib, quyidagi ko'rsatkichlarni aniqlaymiz:

1) korxonaning hisobot davridagi soliqqa tortiladigan foyda miqdorini

$$I_{sb} = \frac{SB_1}{SB_0} = 1,35$$

$$SB_1 = SB_0 \times 1,35 = 1650000 \times 1,35 = 2227500 \text{ so'm.}$$

2) foyda solig'i stavkasining kamayishi hisobiga davlat byudjetiga kelib tushmaydigan ajratmalar summasi:

$$\Delta SST = (NS_1 - NS_0) \times NB_1 = -0,02 \times 2227500 = 44550 \text{ so'm.}$$

3) soliq bazasining o'zgarishi hisobiga byudjetga qo'shimcha kelib tushadigan summa:

$$\Delta SSB = (SB_1 - SB_0) \times SST_0 = (2227500 - 1650000) \times 0,3 = 577500 \times 0,3 = 173250 \text{ so'm.}$$

4) mazkur korxona bo'yicha davlat byudjetiga ajratmalar summasi:

$$\Delta ST = \Delta SST + \Delta SSB = (-44550) + 173250 = 128700 \text{ so'm.}$$

5.3. Amaliy mashg'ulotlar uchun masalalar

5.3.1. Davlat byudjetining 2011 yil uchun belgilangan va haqiqiy ma'lumotlari to'g'risida quyidagi shartli ma'lumotlar ma'lum:

Ko'rsatkichlar	Belgilandi, mln.so'm	Haqiqatda, mln.so'm
1	2	3
Daromadlar, jami	5640,8	5700,0
jumladan:		
foйда solig'i	2320,0	2750,0
qo'shilgan qiymat solig'i	2610,0	2430,0
Xarajatlar, jami,	5400,0	5470,0
jumladan:		
ijtimoiy-madaniy tadbirlar uchun	2800,0	2860,0
milliy mudofaa	2102,0	2112,0

Mavjud ma'lumlardan foydalanib quyidagi ko'rsatkichlarni hisoblang:

1) davlat byudjetining 2005 yilda bajarilish darajasi;

2) davlat byudjetining daromadlari va xarajatlarining tarkibini aniqlang va xulosa qiling.

5.3.2. Foyda solig'i bo'yicha hisobot davriga kelib, bazis davriga nisbatan soliq ajratmalarining umumiy mutlaq o'sishi 110000 so'mni tashkil etdi. Shu bilan birga foyda solig'ining stavkasi 1,02 martaga oshdi, soliqqa tortiladigan foyda esa 2500000 so'mni tashkil etdi.

Soliq ajratmalari miqdorining o'zgarishini va bu o'zgarishga ta'sir etgan asosiy omillarning ta'sirini aniqlang va xulosa qiling.

5.3.3. Hisobot davriga kelib, bazis davriga nisbatan foyda solig'ining stavkasi 4 % ga oshdi, korxonaning soliqqa tortiladigan foyda miqdori 1,4 martaga oshdi. Korxonaning soliqqa tortiladigan foydasi 2100000 so'mni tashkil etdi. Foyda solig'ining bazis davrdagi stavkasi 30,0 % ni tashkil etdi.

Aniqlansin:

1) hisobot davridagi korxonaning soliqqa tortiladigan foyda miqdori;

- 2) foyda solig'i stavkasining oshishi hisobiga davlat byudjetiga ajratiladigan qo'shimcha mablag'lar hajmi;
- 3) soliq bazasining o'zgarishi hisobiga davlat byudjetiga kelib tushadigan mablag'lar miqdori;
- 4) mazkur korxona bo'yicha soliq stavkasi va foyda miqdorining o'zgarishi hisobiga davlat byudjetiga ajratmalar miqdorining o'zgarishi.

5.3.4. Davlat boshqaruv sektori bo'yicha quyidagi shartli ma'lumotlar mavjud, mln.so'm:

- xarajatlar – 345,0
 - kreditlash hajmi – 320,0
 - daromadlar – 330,0
 - rasmiy transfertlar va kreditning qaytarilishi hisobiga boshqa sektorlardan kelib tushgan daromadlar – 315,0
 - turli byudjet darajalaridagi o'zaro to'lovlar – 310,0
- Byudjet taqchilligi miqdorini aniqlang.

5.3.5. Quyidagi shartli ma'lumotlar ma'lum, mln.so'm:

- Davlat boshqaruv organlarining profitsiti – 320,0
- olingan rasmiy transfertlar va kreditni qaytarilishi hisobiga kelgan summalar – 92,5
- davlat boshqaruv sektorining xarajatlari va kreditlanishi – 78,5
- davlat boshqaruv sektorining likvid mablag'lari hajmining ko'payishi – 224,0

Davlat boshqaruv sektori majburiyatlari hajmining o'zgarishini aniqlang.

5.3.6. Quyidagi shartli ma'lumotlar ma'lum, mln.so'm hisobida:

- daromad soliqlari va foyda solig'i – 210,0;
- ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar – 204,0;
- ish haqi va ish kuchiga soliqlar – 210,0;
- mulk solig'i – 218,0;
- jarima va sanksiyalar bo'yicha tushumlar – 112,0;
- boshqa soliqlar – 164,0.

Davlat byujetiga kelib tushadigan soliqlar summasini aniqlang.

5.3.7. Quyidagi shartli ma'lumotlar ma'lum, mln.so'm hisobida:

- Ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar – 370,0;
- mulk va tadbirkorlik faoliyati hisobiga olingan daromadlar – 250,0;
- ma'muriy yig'inlar va to'lovlar – 228,0;
- nafaqa fondiga va davlat boshqaruvi sektori doirasida amal qiluvchi davlat xizmatchilarini ta'minlovchi fondlarga – 216,5;
- nodavlat nafaqa fondlariga ajratmalar – 202,5;
- jarimalar bo'yicha tushumlar – 214,0;
- nodavlat manba'laridan kapital transfertlar – 206,0;
- soliq tushumlari summasi – 4105,0.

Aniqlansin:

- a) soliq tushumlari summasi;
- b) davlat byudjetining joriy daromadlari.

5.3.8. Quyidagi shartli ma'lumotlar mavjud, mln.so'm hisobida:

- tovar va xizmatlar xarajatlari – 300,0
- foiz to'lovlari – 376,0
- asosiy kapitalning sotib olinishi – 286,0
- turar joy va kommunal xo'jalik xarajatlari – 224,0
- subsidiyalar va boshqa transfert to'lovlari – 366,0
- mineral resurslarga (yoqilg'idan tashqari) xarajatlar – 250,0

Davlat byudjetining joriy xarajatlarini aniqlang.

5.3.9. Davlat boshqaruv sektori bo'yicha quyidagi shartli ma'lumotlar mavjud, mln.so'm hisobida:

- Asosiy kapitalning sotilishi – 208,0
- nomoddiy aktivlarning sotilishi – 210,0
- nodavlat manba'laridan kelgan kapital transfertlar – 202,5
- xorijdan olingan rasmiy transfertlar – 210,7
- davlat boshqaruvining milliy darajalaridan olingan rasmiy transfertlar – 190,4
- davlat byudjetining joriy daromadlari – 2300,0
- davlat tovar zaxiralarining sotilishi – 210,5

Aniqlansin:

- 1) Kapital bilan bog'liq muomalalardan olingan daromadlar;
- 2) davlat byudjeti daromadlarining umumiy hajmi.

5.3.10. Davlat boshqaruv xarajatlari to'g'risida quyidagi shartli ma'lumotlar ma'lum, mln.so'm hisobida:

- Subsidiyalar va boshqa joriy to'lovlar transfertlari – 240,1
- joriy xarajatlar – 2450,0
- asosiy kapitalning sotib olinishi – 2290,0
- kapital xarajatlar – 2425,0
- sof kreditlash (kreditlash minus qaytarilishi) – 320,0

Davlat byudjetining umumiy xarajatlarini aniqlang.

5.3.11. Quyidagi shartli ma'lumotlar ma'lum, mln.so'm hisobida:

- zaxirlar hosil qilish uchun tovarlar sotib olinishi – 270,0
- kapital transfertlar – 280,0
- foizlarning to'lanishi – 318,0
- turar-joy - kommunal xo'jalik xarajatlari – 216,0
- asosiy kapitalning sotib olinishi – 210,0
- nomoddiy aktivlarning sotib olinishi – 301,0
- ta'lim xarajatlari – 230,5

Davlat byudjetining kapital xarajatlarini aniqlang.

5.3.12. Quyidagi shartli ma'lumotlar ma'lum, mlrd.so'm:

- davlat boshqaruv sektorining bevosita xarajatlari – 210,0
- davlat boshqaruv sektorining byudjetga to'lovlari – 25,5
- o'sha byudjet darajasidagi davlat boshqaruvi to'lovlari – 21,5
- kelib tushgan boshqa byudjet darajasidagi to'lovlar – 62,5
- «muhim moliyaviy muammolar» bo'yicha qoldiq – 22,2

Davlat boshqaruv sektorining sof xarajatlari va «netto» xarajatlarini aniqlang.

5.2.13. Quyidagi shartli ma'lumotlar mavjud, mlrd.so'm:

- daromad solig'i – 42,5
- ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar – 28,0
- ish haqi va ish kuchiga soliqlar – 9,5

- mulk solig'i – 12,5
- tovar va xizmatlarga ichki soliqlar – 16,5
- xalqaro savdo va tashqi muomalarga soliqlar – 6,5
- jarima va sanksiyalar bo'yicha tushumlar – 2,5
- boshqa soliqlar – 0,8

Davlat byujetiga kelib tushgan soliqlar miqdorini va tarkibini aniqlang.

5.3.14. Quyidagi shartli ma'lumotlar mavjud, mlrd.so'm:

- ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar – 34,5
- mulk va tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar – 12,5
- ma'muriy yig'imlar va to'lovlar, notijorat faoliyatidan olingan daromadlar – 6,2
- nafaqa fondiga ajratmalar – 4,3
- jarima va sanksiyalar bo'yicha tushumlar – 1,2
- nodavlat manba'lardan kelib tushgan transfertlar – 1,1
- soliq tushumlari summasi – 135,6

Soliq tushumlari miqdorini va davlat byudjeti joriy daromadlarini aniqlang.

5.3.15. Quyidagi shartli ma'lumotlar mavjud, mlrd.so'm:

- asosiy kapitalning sotilishi – 4,7
- nomoddiy aktivlarning sotilishi – 1,5
- nodavlat manba'lardan kapital transfertlar – 1,2
- chetdan olingan rasmiy transfertlar – 6,2
- davlat byudjetining joriy daromadlari – 124,5
- davlat tovar zaxiralarining sotilishi – 0,9

Kapital bilan bog'liq muammolardan olingan daromadlar va davlat byudjeti daromadlarini aniqlang.

5.3.16. Quyidagi shartli ma'lumotlarga asoslanib, davlat boshqaruvi sektorining joriy transfertlari qoldig'ini aniqlang (mln.so'm):

- gumanitar yordam doirasida oziq - ovqatlarning berilishi – 114,0
- gumanitar yordam doirasida iste'mol tovarlarining berilishi – 106,0
- harbiy yordam – 238,0

jumladan, kapital boyliklar – 124,5

-xalqaro tashkilotlar fondlariga badallar – 44,5

-olingan joriy transfertlar – 432,5

5.3.17.Davlat boshqaruv sektori bo'yicha quyidagi shartli ma'lumotlar ma'lum (mlrd so'm):

-xarajatlar – 64

-kredit hajmi – 28

-daromadlar – 42

-kreditni uzish hisobiga boshqa sektorlardan kelib tushgan rasmiy transfertlar va summalar – 22,77

-turli byudjet darajalari o'rtasidagi to'lovlar – 9,8

Byudjet taqchilligi miqdorini aniqlang.

5.3.18.Quyidagi shartli ma'lumotlar ma'lum, mlrd so'm.

-zaxiralar tashkil etish uchun tovarlar sotib olinishi - 88,0;

-kapital transfertlar - 170,0;

-foizlar to'lovlari – 190,0;

-turarjoy – kommunal xo'jaligi – 38,0;

-asosiy kapitalning sotib olinishi – 94,0;

-nomoddiy aktivlarning sotib olinishi – 118,0;

-ta'lim xarajatlari – 40,0;

Davlat byudjetining kapital xarajatlarini aniqlang.

6-MAVZU. AHOLINING TURMUSH DARAJASI

STATISTIKASI

6.1. Amaliy mashg'ulotni o'qitish texnologiyasi

Tinglovchilar soni:	Ajratilgan vaqt
O'quv mashg'ulotining shakli	Amaliy – bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha mashg'ulot
Amaliy mashg'ulotda ko'rib chiqiladigan savollar.	1. Aholi turmush darajasini ifodalovchi ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar tizimi. 2. Milliy hisoblar tizimidagi aholi turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar. 3. Aholining pul daromadlari, pul xarajatlari va jamg'armalari ko'rsatkichlari. 4. Uy xo'jaliklarning yalpi daromadlari tushunchasi, aholi pul daromadlari va xarajatlari balansi. 5. Ijtimoiy infratuzilma statistikasining ko'rsatkichlari.
Mashg'ulotning maqsadi: Milliy hisoblar tizimidagi aholi turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar. Uy xo'jaliklarning yalpi daromadlari tushunchasi, aholi pul daromadlari va xarajatlari balansi. Ijtimoiy infratuzilma statistikasining ko'rsatkichlarini o'rgatish.	
Pedagogik vazifa: -Aholi turmush darajasini ifodalovchi ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlar tizimi yoritib berish. -Milliy hisoblar tizimidagi aholi turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlarni izohlab berish. -Aholining pul daromadlari, pul xarajatlari va jamg'armalari ko'rsatkichlariga harakteristika berish. -Uy xo'jaliklarning yalpi daromadlari tushunchasi, aholi pul daromadlari va xarajatlari balansini amaliy ahamiyatini ochib berish. -Ijtimoiy infratuzilma statistikasining ko'rsatkichlariga ta'rif berish	O'quv faoliyatining natijasi: -Aholi turmush darajasini ifodalovchi ijtimoiy-iqtisodiy indikatorlar tizimini yoritib beradilar. -Milliy hisoblar tizimidagi aholi turmush darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlarini izohlab beradilar. -Aholining pul daromadlari, pul xarajatlari va jamg'armalari ko'rsatkichlariga ta'rif beradilar. -Uy xo'jaliklarning yalpi daromadlari tushunchasi, aholi pul daromadlari va xarajatlari balansini amaliy ahamiyatini ko'rsatib beradilar. -Ijtimoiy infratuzilma statistikasining ko'rsatkichlariga ta'rif beradilar.
O'qitishning usuli-texnika	Blis-so'rov, va organayzer;
O'qitish vositasi	Tarqatma materiallar, slaydlar, proyektor.
O'qitishning shakli	Jamoa, frontal, to'g'ridan-to'g'ri ishlash
O'qitish shartlari	Texnik vositalar bilanta'minlangan auditoriya
Monitoring va baholash	Savol-javob

6.2. Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasisi

Ish jara- yonlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog.	Tinglovchi
Tayyorlov	Talabalarning darsga tayyorgarligi bilan tanishib chiqadi. Zaruriyat tug'ilganda savollar beradi.	Talabalar amaliy darsga tayyorlanadilar
1-bosqich. Kirish (15 min.)	1.1.Uyga berilgan mustaqil ishni qanday bajarilganligini tekshiradi. 1.2.Amaliyot mashg'ulotining mavzusi va asosiy savollarini eslatadi. Baholash mezonlari bilan tanishtiradi. Oldingi mashg'ulot bilan mantiqiy bog'liqlikda davom ettiradi.	1.1.Eshitishadi
2-bosqich. Asosiy qism (55 min.)	2.1.Tinglovchilarni 4 guruhga ajratadi. Guruh a'zolarini o'zaro hamkorlikda ishlashga qulay qilib joylashtiradi. Qo'yilgan savollarga asoslangan holda fikrlar berishga chaqiradi. Kuzatadi, muvofiqlashtiradi va rag'batlantiradi -Aholi turmush darajasi ko'rsatkichlari va ular statistikasining vazifalari. - Aholi daromadlari va xarajatlari statistikasi - Aholining moddiy ne'matlar iste'moli statistikasi. - Aholining uy-joy bilan ta'minlanganligi ko'rsatkichlari. - Aholining madaniy ma'rifiy darajasini ifodalovchi ko'rsatkichlar - Daromad tengsizligi va kambag'allik chegarasi 2.2.Tinglovchilarga savollarning javobi bo'yicha umumiy, yakuniy xulosani shakllantirishni taklif qiladi. Dars jarayonida izoh beradi, aniqlashtiradi va to'g'rilaydi. Yakuniy xulosani shakllantiradi.	2.1.Eshitishadi, guruhlariga ajra- shishadi.O'quv materiallari bilan tanishishadilar va guruh ichida savollarni bo'lib olishadi. 2.2. Guruh a'zolari savollarga javob berishadi va qo'shimchalar qilishadi.
Yakuniy bosqich (10 min.)	3.1.Darsni yakunlaydi. Guruhlar faoliyatining ijobiy tomonlarini, muvaffaqiyatlarini aytib o'tadi. 3.2.Bajarilgan ishning kelgusidagi kasbiy faoliyati uchun naqadar muhimligini ko'rsatadi. 3.3.Mustaqil ishlash uchun topshiriq beradi.Kelgusi amaliy mashg'ulotda mustaqil ishlash uchun quyidagi mavzularda 3-referat tayyorlash vazifasi topshiriladi: 1. Aholining turmush darajasi ko'rsatkichlarini aniqlash. 2. Aholining daromadlari tarkibini hisoblash 3. Turmush darajasini umumlashtiruvchi ko'rsatkichlari	3.1.Xatolarni tahlil qiladi. O'UMga qarang.

6.2. Uslubiy ko'rsatmalar va masalalarning yechilishi

"Aholi turmush darajasi" muhim iqtisodiy kategoriya bo'lib, murakkab, ko'pqirrali jarayonni aks ettiradi. Shuning uchun ham aholi turmush darajasini aks ettirish uchun ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Bu ko'rsatkichlar jumlasiga quyidagilar kiradi:

- aholining daromadlarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar;
- aholining xarajatlarini aks ettiruvchi ko'rsatkichlar;
- aholi daromadlarini differensiyalash, kambag'allik darajasi va uning chegarasi singari ko'rsatkichlar kiradi.

Bu ko'rsatkichlar aholi turmush darajasini miqdoriy jihatdan ifodalash imkonini beradi. Aholi turmush darajasining sifat tomonlarini baholash uchun esa ijtimoiy statistika ko'rsatkichlaridan foydalaniladi. Bu ko'rsatkichlar jumlasiga aholi salomatligining holati va uni asrash, iste'mol qilinadigan oziq – ovqat mahsulotlarining sifati va tarkibi, savdo xizmatining darajasi, ta'lim, ma'daniyat saholarining holati va shu singari ko'rsatkichlar kiradi.

Mamlakat miqyosida aholining farovonlik darajasini belgilaydigan ko'rsatkich bo'lib esa, mamlakatning iqtisodiy holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar, jumladan YAIM, YAMD, SMM hajmi singarilar hisoblanadi.

Yuqorida qayd qilib o'tilgan ko'rsatkichlardan tashqari bolalar o'limi, kishi umrining o'rtacha uzunligi singari ko'rsatkichlar ham aholi turmush darajasining sifat tomonini aks ettirish uchun foydalaniladi. Amaliy mashg'ulot paytida talabalar yuqorida qayd etilgan ko'rsatkichlarning hisoblanish tartibi va ularning iqtisodiy mohiyati va ma'zmuniga e'tibor berishlari lozim.

Aholi turmush darajasi statistikasi bo'yicha ayrim masalalarning yechilish tartibi bilan quyidagi misollarda tanishib chiqaylik.

1. Viloyat aholisining jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromadi 40% ga, sabzavot iste'moli esa 50% ga oshdi.

Sabzavot iste'molining daromaddan bog'liqlik elastiklik koeffitsiyentini aniqlash talab etilsin.

Yechish: elastiklik koeffitsiyentining mazmuni quyidagichadir:

$$K_{el} = \frac{\text{xarajatlar orttirmasi}}{\text{daromadlar orttirmasi}}$$

yoki u quyidagi formula yordamida aniqlaniladi:

$$K_{el} = \frac{\Delta y}{\Delta x} \times \frac{x_0}{y_0}$$

formuladagi x_0 - daromadlar boshlang'ich darajasi (omil belgining boshlang'ich darajasi)

y_0 -xarajatlar boshlang'ich darajasi (natija belgining boshlang'ich darajasi)

Δx -omil belgi darajalari o'rtasidagi farq;

Δy - natija belgi darajalari o'rtasidagi farq;

Bizning misolimizda daromad va xarajatlar orttirmalari to'g'risida ma'lumotlar mavjudligi sababli elastiklik koeffitsiyenti quyidagicha aniqlaniladi:

$$K_{el} = \frac{\text{xarajatlar orttirmasi}}{\text{daromadlar orttirmasi}} = \frac{0.50}{0.40} = 1.25 \quad \text{ya'ni}$$

daromadlarning 1% ga ko'payishi, sabzavot iste'molini mazkur viloyatda 1,25 % ortishiga olib kelgan.

2. Nominal ish haqi 40 % ga oshdi, tovarlar va pulli xizmatlar narxi 8% ga pasaydi, ish kunining davomiyligi 2,3 foizga qisqardi, ishchi xizmatchilar soni esa 7,8 % ga oshdi.

Mavjud ma'lumotlarga asoslanib, har bir ishlovchiga to'g'ri keladigan real ish haqining o'zgarishini, ish kuni davomiyligining qisqarishi hisobiga real ish haqi indeksini aniqlash talab etilsin.

Yechish:

Real ish haqi indeksi quyidagicha hisoblaniladi:

J real ish haqi = J nominal ish haqi : J_r yoki

J real ish haqi = J nominal ish haqi x J so'mning xarid qobiliyati

Bizning misolimizda :

J real ish haqi = $1,40 : 0,92 = 15217 \approx 152,2(+52,2\%)$; demak, real ish haqi hisobot davriga kelib, o'tgan davrga nisbatan 52,2 % ga

oshgan ekan. Shu natijani so'mning xarid qobiliyati indeksi orqali ham aniqlash mumkin:

$$J \text{ so'mning xarid qobiliyati} = \frac{1}{J_r} = \frac{1}{0.92} = 1.0869$$

Bu yerdan,

$J \text{ real ish haqi} = J \text{ nominal ish haqi} \times J \text{ so'mning xarid qobiliyati} = 1,40 \times 1,0869 = 1,5217$ yoki $152,2 \% (+ 52,2 \%)$

Bu yerdan har bir ishlovchiga to'g'ri keladigan real ish haqi indeksi quyidagicha hisoblaniladi:

$J \text{ har bir ishlovchiga to'g'ri} = J \text{ real ish haqi} : J \text{ ishchi, xizmatchilar keladigan real ish haqi soni}$

$$= 1,521 : 1,078 = 1,4115 \approx 1,411 \text{ yoki } 141,1 \% (+ 41,1 \%)$$

Demak, har bir ishlovchiga to'g'ri keladigan real ish haqi $41,1 \%$ ga oshgan ekan.

Real ish haqining o'zgarishiga ish kunining o'zgarishi ham ta'sir ko'rsatadi. Bu omil ta'siri hisobga olingan holdagi real ish haqining o'zgarishini quyidagicha hisoblaymiz:

$J \text{ ish kuni hisobga olingan holdagi } J \text{ har bir ishlovchiga } J \text{ ish-kuni har bir ishlovchiga to'g'ri keladigan} = \text{to'g'ri keladigan real : davomiyligi real ish haqi}$

$$= 1,411 : 0,977 = 1,444 \text{ yoki } 144,40 \% (+ 44,4 \%)$$

Shunday qilib, ish kunining qisqarishi hisobga olingan holda har bir ishlovchiga to'g'ri keladigan real ish haqi $44,4 \%$ ga oshgan ekan.

6.3. Amaliy mashg'ulotlar uchun masalalar

6.3.1. Viloyat aholisining o'rtacha jon boshiga to'g'ri keladigan daromadi 22 % ga, sabzavot iste'moli esa – 32 % ga oshdi.

Sabzavot iste'molining daromaddan bog'liqlik elastiklik koeffitsiyentini aniqlang va xulosa qiling.

6.3.2. Nominal ish haqi 32 % ga oshdi, tovarlar va pulli xizmatlarning narxi 12% ga pasaydi, ish vaqtining davomiyligi esa 11 % ga oshdi.

Mavjud ma'lumotlardan foydalanib, har bir ishlovchiga to'g'ri keladigan real ish haqi indeksini va ish vaqti davomiyligining o'zgarishi hisobga olingan holdagi real ish haqi indekslarini hisoblang. Olingan natijalar bo'yicha xulosa qiling.

6.2.3. Quyidagi jadvalda yoshga nisbatan iste'mol to'g'risidagi shartli ma'lumotlar va iste'mol koeffitsiyentlari to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan

Yosh bo'yicha guruhlar	Aholining yosh tarkibi, jamiga nisbatan foizlarda Si	Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol, kg Df i	Iste'mol Koeffitsientlari Ki	Iste'mol birligiga to'g'ri keladigan shartli iste'mol
A	1	2	3	4
5 yoshchaga bulgan bolalar	9	35,3	0,4	15,06
5 – 10	11	45,6	0,8	32,85
10 – 14	12	58,6	0,9	46,52
14 – 18	10	72,4	0,7	65,38
Kattalar	58	91,6	1,1	88,61
Jami:	100			

Aniqlansin :

Jon boshiga to'g'ri keladigan haqiqiy iste'mol, iste'mol birligiga to'g'ri keladigan shartli o'rtacha iste'mol. Xulosa qiling.

6.3.4. Aholining pul daromadlari 700,0 mln soʻmdan 920,0 mln soʻmga oshdi. Aholining oʻrtacha yillik soni mos ravishda 714 va 740 ming kishini tashkil etdi. Poyafzal isteʼmoli esa mos holda 2300 va 2700 juftni tashkil etdi.

Mavjud maʼlumotlardan foydalanib aniqlang:

1. aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan isteʼmol;
2. jon boshiga toʻgʻri keladigan isteʼmol indeksi;
3. bazis va hisobot davridagi jon boshiga toʻgʻri keladigan daromad;
4. isteʼmolchining daromadidan bogʻliqlik koefitsienti.

Xulosa qiling

6.3.5. Oʻrtacha oylik daromadlar va har bir oila aʼzosiga toʻgʻri keladigan oylik isteʼmol toʻgʻrisida quyidagi maʼlumotlar maʼlum:

Oila nomeri	1	2	3	4	5	6
Oilaning har bir aʼzosiga toʻgʻri keladigan oʻrtacha oylik daromad ming soʻm	250	340	460	570	650	800
Oila har bir aʼzosiga toʻgʻri keladigan Oylik isteʼmol	20	10	12	13	16	19

Isteʼmolning daromaddan bogʻliqlik elastiklik koefitsiyentini aniqlang va xulosaqiling.

6.3.6. Aholining jonboshiga toʻgʻri keladigan daromadi 28,5 % ga, goʻsht isteʼmoli esa 15,4 % ga oshdi. Goʻsht isteʼmolining daromadidan bogʻliqlik koefitsiyentini aniqlang va xulosa qiling.

6.3.7. Aholining pul daromadlari 3000,0 ming soʻmdan 3440,0 ming soʻmga oshdi. Aholining oʻrtacha yillik soni mos ravishda 410 va 445 ming kishini tashkil etdi. Ustki kiyim isteʼmoli esa mos ravishda 720 va 940 ni tashkil etdi.

Aniqlansin:

- 1) jon boshiga toʻgʻri keladigan isteʼmol darajasi;

- 2)jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol indeksi;
 - 3)bazis va hisobot davirlaridagi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad;
 - 4)iste'molning daromaddan bog'liqlik koeffitsiyenti.
- Hisoblanilgan ko'rsatkichlarning natijalariga asoslanib xulosa qiling.

6.3.8. Viloyat bo'yicha quyidagi shartli ma'lumotlar ma'lum:

Ko'rsatkichlar	Bazis yili	Hisobot yili
Oziq – ovqat tovarlari (joriy baholarda) iste'mol	1200	1700
Shu jumladan natural ifodada – ming tonna		
Go'sht va go'sht mahsulotlari	160	110
Sut va sut mahsulotlari (sut bo'yicha qayta hisoblangan)	520	700
Shakar	120	150
O'simlik moyi	24	30
Nooziq – ovqat tovarlari (joriy baholarda) iste'moli, mln so'm hisobida.	920	126

Bazis yiliga nisbatan hisobot yilida oziq–ovqat tovarlarining narxi 24 % ga , nooziq – ovqat tovarlarining narxi 1,8 % ga oshdi, aholi soni esa 21 % ga oshdi.

Aniqlansin:

- 1) alohida mahsulotlar bo'yicha fizik hajm va iste'mol darajasi indeksleri;
- 2) fizik hajm va iste'mol darajasi umumiy indeksleri.

6.3.9. Aholi xarajatlari to'g'risida quyidagi ma'lumotlari mavjud:

Ko'rsatkichlar	Tovar va xizmatlar qiymati, joriy narxlarda, mln so'm		Narx indeksi
	Bazis yili	Hisobot yili	
Oziq – ovqat tovarlari	42,0	47,0	2,311
Nooziq-ovqat tovarlari	27,0	36,0	2,108
Maishiy xizmat	3,8	4,3	1,814

Aholi soni hisobot davriga kelib, bazis davriga nisbatan 7 % ga oshdi. Aholi jonboshiga to'g'ri keladigan Tovar va xizmatlar iste'moli Individual va umumiy indekslarini aniqlang.

6.3.10. Ishchi va xizmatchilar hisobot davridagi daromadlarining umumiy fondi 730,0 mln so'mni, bazis davrida esa 670 mln so'mni tashkil etdi. Shu davriga kelib go'sht iste'moli 11 % ga, sut – 6,5 % ga oshdi, aholi soni esa 1,8 % ga oshdi.

Go'sht va sut iste'molining daromaddan bog'liqlik elastiklik koeffitsiyentini aniqlang. Ularning mohiyatini tushuntiring.

6.3.11. Ish haqi fondi 2420 mln so'mdan 2430 mln so'mga oshdi, ishlovchilar soni 260,0 ming kishidan 274,0 ming kishiga o'zgardi, so'mning xarid qobiliyati esa 7,6 % ga kamaydi.

Real ish haqi qanday o'zgarganligini aniqlang.

6.3.12. Viloyat aholisining jon boshiga to'g'ri keladigan daromadi 48% ga, sut mahsulotlari iste'moli esa 15 % ga oshdi.

Sut mahsulotlari iste'molining daromaddan bog'liqlik elastiklik koeffitsiyentini aniqlang.

6.3.13. Nominal ish haqi 55 % ga, tovarlar va pulli xizmatlar narxi 24 % ga oshdi. Ish kunining davomiyligi 7,2 % ga, ishchi xizmatchilar soni esa 11,3 % ga oshdi.

Aniqlansin:

1. Real ish haqi indeksi;

2. Har bir ishlovchiga to'g'ri keladigan real ish haqi indeksi;

3. Ish vaqtining o'zgarishi hisobga olingan holdagi har bir ishlovchiga to'g'ri keladigan real ish haqi indeksi.

6.3.14. Ishchi xizmatchilarning so'nggi daromadlari joriy baholarda bazis davrida 780 mln so'mni, hisobot davrida esa 1020 mln so'mni tashkil etdi (shartli raqamlar).

Ishchi –xizmatchilar iste'mol qiladigan tovarlar va pulli xizmatlar narxi hisobot davrida 26,2 % ga oshdi. Ishchi–xizmatchilar soni o'tgan davrga nisbatan 5,4 % ga oshdi.

Har bir ishlovchiga to'g'ri keladigan ishchi–xizmatchilar real daromadlari indeksini aniqlang va xulosa qiling.

6.3.15. Jon boshiga to'g'ri keladigan daromad shakar iste'moli to'g'risida quyidagi ma'lumotlar ma'lum:

Ko'rsatkichlar	Bazis davri	Hisobot davri
1. Jon boshiga to'g'ri keladigan daromad, mln so'm hisobida	780,0	960,0
2. Shakar iste'moli, mln so'm hisobida	250,0	310,0

Mavjud. ma'lumotlardan foydalanib, shakar iste'molining daromaddan bog'liqlik koeffitsiyentini aniqlang va xulosa qiling.

6.3.16. 2005 – 2011 yillar mobaynida aholining sof pul daromadlari 4,7 marta, narxlar 3 marta o'sgan. Real daromadlar indeksini hisoblang.

6.3.17. Hisobot davriga kelib, mahsulotlar va pulli xizmatlar hajmi haqiqiy narxlarda 5400,0 mln so'mni, o'tgan davrda esa 4560,0 mln so'mni tashkil etdi. Tovarlarni va pulli xizmatlar narxi 23,7 % ga o'sdi. Aholi soni esa hisobot davriga kelib 3,8 % ga o'sdi.

Aniqlansin:

Iste'mol hajmi indeksi;

Jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol darajasi indeksi.

Hisoblanilgan ko'rsatkichlarning mohiyatini tushuntiring.

6.3.18. O'rtacha oylik nominal ish haqi 41,0 ming so'mdan 54,0 ming so'mgacha oshdi, tovar va pulli xizmatlar narxi esa o'rtacha 11,2 % ga oshdi.

Real ish haqi qanday o'zgarganligini aniqlang.

6.3.19. Ish haqi fondi 680,0 mln so'mdan 780,0 mln so'mga, ishlovchilar soni 1,3 % ga va tovar va pulli xizmatlar o'rtacha 6,8 % ga oshdi. Real ish haqi qanday o'zgargan?

6.3.20. Ish haqi fondi 734 mln so'mdan 880 mln so'mga o'zgardi, ishlovchilar soni 3,8% oshdi, so'mning xarid qobiliyati 5,1 % ga pasaydi.

Real ish haqi qanday o'zgargan ?

6.3.21. Hisobot davriga kelib, o'tgan davrga nisbatan taqqoslama narxlardagi milliy daromad 27 % ga oshdi, aholi iste'mol fondining 71 % dan 63 % ga qisqardi, aholi soni esa 2,8 % ga oshdi. Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'molning o'zgarishini aniqlang va xulosa qiling.

6.3.22. Oila byudjetini tanlab kuzatish natijasida oilaning yillik o'rtacha daromadi 5941,0 ming so'mni tashkil etganligi aniqlanildi.

Oila a'zolari ish haqining yalpi daromaddagi salmog'i 62 % ni, shaxsiy yordamchi xo'jaliklardan olingan daromadlar – 28 % ni, va boshqa manba'lardan olingan daromadlar 11 % ni tashkil etganligi ma'lum. Oila yalpi daromadining shakllanish manbalarining mutlaq miqdorini aniqlang.

6.3.23. Quyidagi shartli ma'lumotlar ma'lum:

Oilalar	1	2	3	4	5	6
Oilaning har bir a'zosiga to'g'ri keladigan o'rtacha oylik daromad, ming so'm	300	440	560	620	740	850
Oila har bir a'zosiga to'g'ri keladigan iste'mol, kg	17	19	21	23	25	27

Mavjud ma'lumotlarga asoslanib, aniqlansin:

1) omil va natija belgi o'rtasidagi bog'lanish yo'nalishi va shu asosda model tenglamasi;

2) korrelyatsiya koeffitsiyenti;

3) korrelyatsiya koeffitsiyentining o'rtacha kvadratik xatosi;

4) daromaddan bog'liqlik elastiklik koeffitsiyenti.

Hisoblanilgan ko'rsatkichlarning natijalariga asoslanib, xulosa qiling.

7-MAVZU. TASHQI IQTISODIY FAOLIYAT STATISTIKASI

7.1. Amaliy mashg'ulotni o'qitish texnologiyasi

Tinglovchilar soni:	Ajratilgan vaqt
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Individual topshiriqlarni bajarishga asoslangan amaliy mashg'ulot
<i>Mashg'ulot rejasi</i>	1. Tashqi iqtisodiy aloqalar statistikasining o'rganish ob'ekti va ko'rsatkichlar tizimi. 2. Eksport va importning ta'rifi. 3. Eksport va importni hisoblashning umumiy va maxsus tizimi. 4. Tashqi iqtisodiy faoliyatni statistik o'rganish usullari. 5. To'lov balansi tizimning asosiy tamoyillari. 6. Xalqaro investitsion siyosat, investitsiya muhitini ifodalovchi ko'rsatkichlar.
<i>O'quv mashg'ulotining maqsadi:</i> Tashqi iqtisodiy aloqalar statistikasining o'rganish. Tashqi savdo statistikasi. Eksport va import Xalqaro investitsion siyosat, investitsiya muhitini ifodalovchi ko'rsatkichlarni o'rgatish.	
<i>Pedagogik vazifa:</i> • Tashqi iqtisodiy aloqalar statistikasining o'rganish ob'ekti va ko'rsatkichlar tizimini tushuntirib berish. • Tashqi savdo statistikasi. Eksport va importni ta'riflash. Eksport va import tarkibidagi o'zgarishlar, • Tashqi iqtisodiy faoliyatni statistik o'rganish usullarini yoritish. • Milliy hisoblar tizimi va to'lov balansi orasidagi bog'lanishni ko'rsatib berish.	<i>O'quv faoliyatining natijasi:</i> Tashqi iqtisodiy aloqalar statistikasining o'rganish ob'ekti va ko'rsatkichlar tizimini tushuntirib beradilar. Tashqi savdo statistikasi. Eksport va importning ta'riflab beradilar. Eksport va import tarkibidagi o'zgarishlarni aytadilar. Eksport va importni hisoblashning umumiy va maxsus tizimini yoritadilar. Tashqi iqtisodiy faoliyatni statistik o'rganish usullarini aytadilar. To'lov balansi tizimning asosiy tamoyillarini izohlab beradilar Milliy hisoblar tizimi va to'lov balansi orasidagi bog'lanishni kuo'satib beradilar.
O'qitish usullari- texnika	Amaliy mashg'ulot, aqliy hujum,
O'qitish vositalari	Tarqatma materiallar va doska.
O'qitish shakllari	Guruhlarda ishlash va «jamoa bo'lib ishlash» usullari
O'qitish shart-sharoiti	Texnik vositalar bilan ta'minlangan, guruhlarda ishlash usulini qo'llash mumkin bo'lgan auditoriya.
Monitoring va baholash	Og'zaki-savol.

7.2. Amaliy mashg'ulotning texnologik haritasi

Ish jarayonlari	Faoliyati mazmuni	
	O'qituvchi	Talaba
1-bosqich. Mashg'ulot-ga kirish (5 min.)	1.1.O'quv mashg'uloti mavzusi, maqsadi va o'quv faoliyati natijalarini e'lon qiladi. 1.2.Amaliy mashg'ulotni o'tkazish xususiyatlari bilan talabalarni tanishtiradi. Guruhda ishlash qoidalarini tanishtiradi. 1.3.Mavzu bo'yicha topshiriqlarni tarqatadi. 1.4.Savollar berib talabalarning bilimlarini faollashtiradi. O'qituvchi tayyor axborotlar beradi va yozdiradi, vazifalarini tushuntiradi. 1-savol. Tashqi iqtisodiy aloqalarda tashqi savdoni o'rganishda qaysi statistik usullardan foydalaniladi? 2-savol. Tashqi iqtisodiy aloqalarda eksport va import dinamikasi qaysi ko'rsatkichlar tizimi yordamida o'rganiladi? 3-savol. MHT va to'lov balansi o'rtasidagi bog'lanish qaysi ko'rsatkichlarda ifodalanadi?	1.1.Eshitish adi va yozib olishadi 1.2.Eshitish adi. 1.3. Topshiriqlarni olishadi. 1.4.Savollar ga javob berishadi.
2-bosqich. Asosiy qism. Prezenta-tsiya (45 min.)	2.1.Talabalarni faollashtirish uchun o'qituvchiquyidagi savolni beradi. -Tashqi iqtisodiy aloqalar statistikasini ko'rsatkichlar tizimi haqida nima deya olasiz? -Xalqaro meo'nat taqsimotida mamlakatni qatnashish darajasi qaysi ko'rsatkichlar yordamida o'rganiladi? Bu yerda o'qituvchi talabalar prezentatsiyasini tashkil qiladi va boshqaradi, prezentatsiya uchun vaqt 20 minutdan ortiq bo'lmaydi. O'qituvchi savolga yakun yasaydi. 2.2.Tashqi iqtisodiy faoliyatni qaysi statistik usullar yordamida o'rganiladi? To'lov balansining asosiy tamoyillari nimalardan iborat? Bu yerda o'qituvchi talabalar bilan blis-so'rovni tashkil qiladi va boshqaradi. O'qituvchi savolga yakun yasaydi. 2.3.Mashg'ulotni baholash. Voqeliklarning ketma-ketligi, nazariy pishiq-ligi, masalani asoslab berish va boshqalar. Muammoning yechimini baholash jadvali ilova qilinadi	2.1.Spikerlar 10-15 minut davomida jadval ma'lumotlar i asosida o'z javoblarini yozib chiqadi va doskada prezentatsiya qiladi, to'ldiradi. 2.2. Javob beradilar. 2.3. baholaydilar.
4-bosqich. Yakuniy (10 min.)	4.1. O'tilgan mashg'ulotga – savollar javoblariga yakun yasash. 4.2.Keyingi mavzuga oid topshiriqlar beradi.	4.1.Eshitadi va aniqlashtiradilar. 4.2.Yozib oladi.

7.3. Uslubiy ko'rsatmalar va masalalarning yechilishi

Jahon hamjamiyatidagi mamlakatlar turli xil iqtisodiy rivojlanishda. Barcha mamlakatlar o'zaro iqtisodiy aloqada bo'ladi. Bunday aloqalar tovarlar va xizmatlar muomalasi, tushum va boshqa xizmat ko'rsatish turlari bo'lishi mumkin. Mamlakatlarning tashqi iqtisodiy aloqalarida tashqi savdo asosiy o'rinni egallaydi. Tashqi savdo eksport va importdan iborat. Tashqi savdoga mamlakatda tayyorlangan tovarlarni sotish, olib kelingan xom ashyo yoki tovarlarni qayta ishlab, eksportga chiqarish kiradi. Importga esa, shu mamlakat ichida iste'mol qilinadigan tovarlarni sotib olish, tovarlarni qayta ishlash uchun xom ashyo, yarim tayyor mahsulot sifatida sotib olish kiradi. Umuman, tovarlarni tashqari savdoda 2 xil hisobda olib boriladi: 1) umumiy 2) maxsus hisob.

Tashqi iqtisodiy faoliyatga savdodan tashqari, turli xil xizmat ko'rsatishlar ham kiradi. Bu xizmatlarning asosiylari transport xizmati, sug'urta xizmati va ma'lumotlar xizmatidir. Transport xizmatlariga transportning barcha turlari bo'yicha, temir yo'l, dengiz-havo yo'llari bo'yicha bo'ladigan xizmatlar kiradi. Sug'urta xizmatiga mamlakatlarning sug'urta kompaniyalarining chet el hamkorlariga savdo bo'yicha yuklarni, odamlarning hayotini, turli xil tabiiy ofatlardan yo'qotishlardan sug'urtalash kiradi. Ma'lumotlar xizmatiga yuklar bo'yicha, passajirlar bo'yicha va turli xil axborotlar bo'yicha hamda gazeta, jurnal, televideniye kabi axborotlarni yetkazib turish kiradi. Tashqi iqtisodiy faoliyatda bundan tashqari moliyaviy xizmatlar va davlat boshqaruv xizmatlari ham bo'ladi.

Tashqi savdoda tovarlar, yuklar, brutto, netto og'irligi va maxsus xalqaro miqyosda qo'llaniladigan narxlarda hisobga olib boriladi. Eksport qilinadigan tovarlar qiymati. «FOB» usulida hisoblanadi. FOB qiymatida 2 usulda: 1) FOB jo'natish porti 2) FOB franka oluvchi mamlakatning quruqlik chegarasi usullarida olib boriladi.

FOB usulida tovarlar qiymatiga tovarlarning narxi, tovarlarni jo'natish uchun transportga yuklash xarajatlari, transport xarajatlari, bojxona xarajatlari va boshqa xarajatlar kiradi.

Import tovarlari «SIF» hisobida yuritiladi. SIF ham 2 usulda olib boriladi: 1) import qilinadigan mamlakat chegarasigacha 2) fraxt qilinadigan dengiz portgacha. Xalqaro iqtisodiy faoliyat statistikasida quyidagi ko'rsatkichlar o'rganiladi: 1) tashqi savdo aylanmasi - bu import va eksport qilinadigan tovarlarning umumiy summasidan iborat; 2) savdo balansi saldosi. Bu yerda summa eksport qiymatidan import qiymatini olib tashlaganiga teng. Agar eksport importdan ko'p bo'lsa, saldo ijobiy, ya'ni aktiv saldo deyiladi. Aksincha, import eksportdan ko'p bo'lsa, saldo manfiy, salbiy, passiv saldo hisoblanadi. 3) qoplash koeffitsienti. Eksport qiymatini import qiymatiga bo'lish bilan topiladi. 4) savdo balansi. Savdo balansida bir tomondan eksport qilingan tovarlar, xizmatlar ko'rsatiladi va boshqalar. Ikkinchi tomondan esa, import qilingan tovarlar, xizmatlar ko'rsatiladi va savdo balansi, to'lov balansi tayyorlanadi.

Tashqi savdo aloqalari quyidagi ko'rsatkichlarda ifodalanadi:

- import kvotasi;
- eksport kvotasi;
- jon boshiga to'g'ri keladigan tashqi savdo aylanmasi;
- tashqi savdo aylanmasining elastiklik koeffitsienti;
- importning mamlakat iste'molidagi salmog'i;
- eksportning YAIMdagi, ayrim mahsulot turlaridagi salmog'i;
- mamlakatning xalqaro savdo-sotiqdagi salmog'i.

Bu ko'rsatkichlar asosida tashqi savdo aloqalarining holati, davrlar mobaynidagi o'zgarishi, tarkibi, tashqi savdo faoliyatlarining samaradorliklari o'rganiladi.

Kvota – bu ishlab chiqarish hajmi, import, eksport, sotish va boshqa iqtisodiy faoliyat sohalaridagi kelishuv asosida har bir ishtirokchi uchun joriy qilingan hissadir.

Import kvota – mamlakatga keltirishga ruxsat berilgan chet el mahsulotlari hajmining cheklangan miqdoridir.

Eksport kvota – mamlakatdan tovarlarni chet mamlakatlarga (eksportga) belgilangan hajmda yetkazib berish (sotish) tushuniladi.

Import va eksport kvotalar ham milliy iqtisodiyotni rivojlantirish maqsadida qo'llanadi.

Import kvota darajasi (Kik) import hajmini YAIMga nisbati bo'yicha aniqlanadi.

$$K_{ik} = \frac{I}{YAI M}$$

Bu yerda: I – import hajmi;

YAIM – yalpi ichki mahsulot

Import kvotasi indeksi

$$J_{ik} = \frac{K_{ikt}}{K_{iku}}; \text{ bo'yicha hisoblanadi.}$$

Eksport kvota darajasi (Kek) eksport hajmini (EKS) YAIMga nisbati bilan aniqlanadi.

$$K_{ek} = \frac{EKK}{YAI M}$$

Eksport kvota darajasi mamlakatning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi va uning xalqaro iqtisodiy munosabatlarda qanchalik qatnashayotganligini bildiradi.

Eksport hajmini (EKS) sanoat ishlab chiqarish hajmiga nisbati real eksport kvotasi darajasini bildiradi. Chunki haqiqiy iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar, xom ashyo emas, sanoat mahsulotlarini eksport qiladi.

$$PK_{ek} = \frac{EKK}{SM}$$

Buyerda: SM – sanoat mahsulotlari hajmi.

Tashqi savdo aloqalarida proteksionizm siyosati va demping qo'llanilishi mumkin. Proteksionizm – milliy iqtisodiyotni xorij raqobatidan himoya qilishga qaratilgan siyosatdir. Proteksionizm quyidagichora-tadbirlarni qo'llash yordamida amalga oshiriladi.

- import tovarlariga yuqori darajada boj o'rnatiladi;
- davlat ayrim tovarlarni import qilishni taqiqlaydi;
- import kvotasi kamaytiriladi (litsenziya yordamida)
- tovarlarni import qilish uchun to'lanadigan valyuta cheklanadi;

- import qilinadigan tovarlar sifatiga va ekologik tozaligiga talab oshiriladi va shu kabilar.

Demping deganda tashqi bozorni egallash uchun tovarni ishlab chiqarish xarajatlaridan past (arzon) baholarda chetga eksport qilish yoki tovarlarni tashqi bozorda mamlakat ichidagi bozordan arzon bahoda sotish tushuniladi.

Tashqi savdo aylanmasi eksport va import yig'indisidan iborat umuman olganda eksport import hajmidan ko'p bo'lsa, tashqi savdo qoldig'i musbat (+) bo'lib, ijobiy hisoblanadi. Import eksport hajmidan ko'p bo'lsa, tashqi savdo qoldig'i manfiy (-) bo'lib, mamlakat yalpi milliy mahsulot hajmini kamaytiradi. Eksportning importdan ko'p bo'lishi, umuman olganda mamlakat iqtisodiyotining rivojlanganligidan darak bersada, lekin xom ashyolarni ko'proq eksport qilishni ijobiy baholab bo'lmaydi.

Tovarlar eksporti ularning ishlab chiqarishiga nisbatan, tovarlar importi esa ularning iste'moliga nisbatan tezroq o'sib borishi lozim. Bunday nisbatlarni tahlil qilishda eksport va import elastikligi ko'rsatkichlaridan foydalaniladi.

Eksport elastikligi (E_e) eksportning qo'shimcha o'sishini $\left(\frac{\Delta E}{EKK}\right)$

YAIM qo'shimcha o'sishiga nisbati bilan aniqlanadi.

$$E_e = \frac{\Delta E}{EKK} : \frac{\Delta YAIM}{YAIM}$$

Bu yerda: $\Delta YAIM$ – yalpi ichki mahsulotning qo'shilgan qismi (farqi).

Importning elastikligi ham importning qo'shimcha o'sishini $\left(\frac{\Delta I}{IM}\right)$ YAIMning qo'shimcha o'sishiga $\left(\frac{\Delta YAIM}{YAIM}\right)$ nisbati bilan aniqlanadi. Shunda eksport indeksi YAIM indeksidan kata bo'lsa, ushbu mamlakatda tovarlar eksporti ularni ishlab chiqarishdan tezroq o'sganligin ibildiradi.

Tashqi iqtisodiy faoliyat mavzusi bo'yicha ayrim masalalar yechilish tartibini ko'rib chiqamiz.

1. Quyidag ima'lumotlardan foydalanib "A" mamlakat valyutasining "B" mamlakat valyutasiga nisbatan xarid quvvatini aniqlang:

Ko'rsatkichlar	Milliy valyutadagi qiymati		A/B mamlakat-lararo xarid qilish qobiliyatlari nisbatlari
	"A" mamlakat	"B" mamlakat	
Uy xo'jaliklarining pirovard iste'mol xarajatlari	28200	7500	3.8
Davlat idoralarining joriy iste'moli	7700	1700	4.5
Asosiy kapitalning yalpi shakllanishi	10550	2660	3.9
Moddiy aylanma mablag'lar zahiralarining o'zgarishi	+620	+74	8.4
Tashqi savdo saldosi	+340	+50	6.8

Yechilishi:

"A" mamlakat YaIM tarkibi bo'yicha paritet:

$$\frac{(28200 \times 3.8 + 7700 \times 4.5 + 10550 \times 3.9 + 620 \times 8.4 + 340 \times 6.8)}{(28200 + 7700 + 10550 + 620 + 340)} = 190475 / 47410 = 4.017;$$

"B" mamlakat Yaim tarkibi bo'yicha paritet:

$$\frac{(7500 \times 3.8 + 1700 \times 4.5 + 2660 \times 3.9 + 74 \times 8.4 + 50 \times 6.8)}{(7500 + 1700 + 2660 + 74 + 50)} = 47485.6 / 11984 = 3.962;$$

Fisher formulasi bo'yicha:

$$\frac{(\text{"A" mamlakat YaIM tarkibi bo'yicha paritet} \times \text{"B" mamlakat YaIM tarkibi bo'yicha paritet})^{(1/2)}}{1} = (4.017 \times 3.962)^{(1/2)} = 3.989$$

2. “A” va “B” mamlakatlarning YaIM hajmlarini quyidagi ma’lumotlar yordamida taqqoslang:

Ko’rsatkichlar	Milliy valyutadagi qiymati		A/B mamlakatlararo xarid qilish qobiliyatlari nisbatlari
	“A” mamlakat	“B” mamlakat	
Uy xo’jaliklarining pirovard iste’mol xarajatlari	28200	7500	3.8
Davlat idoralarining joriy iste’moli	7700	1700	4.5
Asosiy kapitalning yalpi shakllanishi	10550	2660	3.9
Moddiy aylanma mablag’lar zahiralarining o’zgarishi	+620	+74	8.4
Tashqi savdo saldosi	+340	+50	6.8

Yechilishi:

$$YaIM_A / YaIM_{B \times (A/B)} = (28200 + 7700 + 10550 + 620 + 340) / (7500 \times 3.8 + 1700 \times 4.5 + 2660 \times 3.9 + 74 \times 8.4 + 50 \times 6.8) = 47410 / 47485.6 = 0.99$$

Xulosa: agar ikkala mamlakat YaIMlarni bir xil valyutaga aylantirsak, “A” mamlakat YaIM “B” mamlakat YaIMdan 0.1%ga kichik ekanligi aniqlanadi.

7.3 Amaliy mashg'ulot uchun masalalar.

7.3.1. Eksport (FOB baholari) va import (SIF baholari) to'g'risida quyidagi ma'lumotlar berilgan (mlrd.AQSh dollari):

Mamlakatlar	Import		Eksport	
	2005 y	2010 y	2005 y	2010 y
Dunyo bo'yicha	2560.4	5260.3	2450.3	5020.5
Shu jumladan:				
AQSh	405.7	710.3	243.1	540.2
Yaponiya	156.7	345.5	195.2	435.6
Germaniya	268.2	426.8	202.0	561.4
O'zbekiston	25.6	64.3	73.2	84.3

Aniqlang:

- 1)butun jahon va ayrim mamlakatlar bo'yicha eksport va importning yillik qo'shimcha mutloq va nisbiy o'zgarishini;
- 2)tashqi savdo saldosini;
- 3)ayrim davlatlarda importni eksport bilan qoplanish koeffitsientini.

7.3.2. "A" mamlakat tashqi savdosi bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan (mlrd. dollar).

Ko'rsatkichlar	Yillar				
	2004	2006	2008	2010	2012
Eksport	68.2	161.1	195.3	212.4	325.5
Import	74.4	142.8	153.6	178.2	214.3

Aniqlang:

1. "A" mamlakat tashqi savdo oboroti va saldosini;
2. Eksport, import va tashqi savdo oboroti dinamikasini (2004 yilga nisbatan);
3. Ushbu ko'rsatkichlarning o'rtacha yillik o'sish sur'atlarini.

7.3.3. “B” mamlakat tashqi savdosi bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan (mlrd. dollar).

Yillar	Eksport			Import		
	Jami	Evropa	Osiyo	Jami	Evropa	Osiyo
2007	29400	8200	21200	21520	6200	15320
2011	34200	10200	24000	27870	9520	18350

Aniqlang:

1. “B” mamlakat tashqi savdo oboroti, eksport va import dinamikasini;
2. Ushbu ko'rsatkichlarning o'rtacha yillik o'sish sur'atlarini;
3. “B” mamlakat tashqi savdoda geografik regionlar salmog'ini va dinamikasini.

7.3.4. O'zbekiston tashqi savdo aylanmasi

(mln. AQSh dollarida)

Yillar	Tashqi savdo aylanmasi	Shu jumladan	
		Eksport	Import
2000	6212.1	3264.7	2947.4
2005	9500.1	5408.8	4091.3
2010	21844.2	13044.5	8799.7
2011	25537.1	15027.2	10509.9

Ushbu ma'lumotlar asosida aniqlang.

1. Respublika tashqi savdo aylanmasi dinamikasini: zanjirsimon va bazis usullarida.
2. Eksport hajmi dinamikasini: zanjirsimon va bazis usullarida.
3. Import hajmi dinamikasini: zanjirsimon va bazis usullarida.
4. Tashqi savdo aylanmasi tarkibini va undagi o'zgarishlarni.
5. Tashqi savdo saldosini va undagi o'zgarishlarni.
6. O'zbekiston tashqi savdo saldosiga umumiy baho bering.

Tashqi iqtisodiy faoliyat statistikasi mavzusi bo'yicha testlar

1. Import kvotasi deganda nimani tushunasiz?

- a) Import qilinayotgan mahsulotlar hajmining cheklangan miqdori;
- b) Import qilinayotgan mahsulotlar miqdori;
- c) Import hajmining belgilangan turlari;
- d) Import qilinayotgan mahsulotlar bo'yicha hisob-kitoblar.

2. Eksport kvotasining ma'nosini bilasizmi?

- a) Tovarlarini eksport qilish turlarini belgilash;
- b) Eksport tovarlarining hajmini belgilab qo'yish;
- c) Tovarlarini chet ellarga sotish;
- d) Eksport hajmini AQSh dollarida hisoblash.

3. Proteksionizm siyosati nimani bildiradi?

- a) Milliy iqtisodiyotni xorij raqobatidan himoya qilish usullari;
- b) Mamlakat iqtisodiyotinin mustahkamlash chora tadbirlari;
- c) Iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha qilingan ishlar;
- d) Eksport hajmini ko'paytirish yo'llari.

4. Import kvota darajasi qanday aniqlanadi?

- a) Import kvota hajmining eksportga nisbati bilan;
- b) Import hajmining YaIM hajmiga nisbati bilan;
- c) Import kvotasi hajmining ishlab chiqarilgan mahsulotga nisbati bilan aniqlanadi;
- d) Hamma javob to'g'ri.

5. Eksport kvota darajasi qanday aniqlanadi?

- a) Eksport hajmini YaIM hajmiga bo'lish orqali;
- b) Eksport hajmini import hajmiga nisbati;
- c) Eksport hajmini ishlab chiqarilgan mahsulotga nisbati bilan aniqlanadi;
- d) Hamma javob to'g'ri.

6. Tashqi savdo saldosi qanday aniqlanadi?

- a) Eksport hajmidan import hajmini ayirish orqali;
- b) Eksport hajmidan ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini ayirish orqali;
- c) Eksport hajmini import hajmiga bo'lib;
- d) YaIM hajmidan eksport hajmini ayirib.

8-MAVZU. MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH VA XIZMAT

KO'RSATISH STATISTIKASI.

8.1. Amaliy mashg'ulotni o'qitish texnologiyasi

Tinglovchilar soni:	Ajratilgan vaqt
<i>O'quv mashg'ulotining shakli</i>	Amaliy – bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha mashg'ulot
<i>Amaliy mashg'ulot rejasi</i>	1. Mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi o'rni. 2. Daromadlar va xarajatlarni ifodalovchi ko'rsatkichlar statistikasi 3. Ijtimoiy infratuzilma statistikasining ko'rsatkichlari.
<i>Ma'ruza</i> ning maqsadi: Mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish bo'yicha asosiy bo'lgan xarajatlar daromadlar, foyda va zarar, talab va taklif darajalarini statistik jihatdan o'rganish	
<i>Pedagogik vazifa:</i> -Mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishning bozor iqtisodiyotidagi o'rin haqida so'zlab berish. - Daromadlar va xarajatlarni ifodalovchi ko'rsatkichlar statistikasini o'rgatish. - Yarim tayyor mahsulot, tayyor mahsulot, tovar mahsuloti ko'rsatkichlarining mohiyatini tushuntirish. - Tayyor mahsulotlarning sotilishi va tovar balansi mohiyatini o'rgatish. - Ijtimoiy infratuzilma statistikasining ko'rsatkichlarini o'rgatish.	<i>O'quv faoliyatining natijasi:</i> -Mahsulot ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatishning bozor iqtisodiyotidagi o'rnini tushuntiradi. - Daromadlar va xarajatlarni ifodalovchi ko'rsatkichlar statistikasini o'rganadi. -Yarim tayyor mahsulot, tayyor mahsulot, tovar mahsuloti ko'rsatkichlarining mohiyatini tushunib oladilar. -Tayyor mahsulotlarning sotilishi va tovar balansi mohiyatini biladi. -Ijtimoiy infratuzilma statistikasining ko'rsatkichlarini o'rganadi
O'qitishning usuli-texnika	Blis-so'rov, va organayzer;
O'qitish vositasi	Tarqatma materiallar, slaydlar, proyektor.
O'qitishning shakli	Jamoa, frontal, to'g'ridan-to'g'ri ishlash
O'qitish shartlari	Texnik vositalar Bilan ta'minlangan auditoriya
Monitoring va baholash	Savol –javob

8.2. Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Ish jara- yonlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog.	Tinglovchi
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Amaliyot mashg'ulotining mavzusi va asosiy savollarini eslatadi. o'quv mashg'ulotining maqsadi va natijalarini tushuntiradi. 1.2. Mavzu bo'yicha blis-so'rov o'tkazadi.	Eshitishadi.
2-bosqich. Bilimlarni zamonaviy- lashtirish (15min.)	2.1. Tinglovchilarni 4 guruhga ajratadi. Guruh a'zolarini o'zaro hamkorlikda ishlashga qulay qilib joylashtiradi. 2.2. Tinglovchilarni 4 guruhga ajratadi. Guruh a'zolarini o'zaro hamkorlikda ishlashga qulay qilib joylashtiradi. Ekspert varag'i tayyorlanadi. O'quv topshiriqni bo'lib beradi va uning yechimi bo'yicha qo'yilgan savollarga asoslangan holda fikrlar berishga chaqiradi. Natijalar tekshiriladi. Kamchiliklar ko'rsatiladi. Baholash mezonlari doskaga osib qo'yiladi. Faoliyati baholanadi. Xulosa qilinadi.	Eshitishadi, guruhlarga ajratishadi. Har bir guruh jadvalni to'ldiradi. Tahlil qiladi. Va baholanadi.
3-bosqich. Asosiy qism (45 min.)	2.1. Tinglovchilarni 4 guruhga ajratadi. Guruh a'zolarini o'zaro hamkorlikda ishlashga qulay qilib joylashtiradi. 2.2. Ijtimoiy infratuzilma statistikasinin kursatkichlarini bajarish uchun bo'sh jadvalni talabalarga tarqatadi Baholash mezonlari doskaga osib qo'yiladi. To'ldirilgan jadvallarni tahlil qilishni uyushtiradi, faoliyati baholanadi. Xulosalanadi	Eshitishadi, guruhlarga ajrashishadi. Har bir guruh jadvalni to'ldiradi. Tahlil qiladi. Va baholanadi.
3-bosqich. Yakuniy (15 min.)	3.1. Qo'yilgan har bir savol qanday hal qilingani to'g'risida yakuniy xulosa beriladi. 3.2. Tinglovchilarning faoliyatiga baho qo'yiladi va rag'batlantiriladi. 3.3. Kelgusi mashg'ulotga tayyorgarlik qilish bo'yicha talabalarga vazifalar beriladi	Eshitishadi va yozib olishadi. O'UMga qarang

8.3. Uslubiy ko'rsatmalar va masalalarning yechilishi.

Mahsulot ishlab chiqarishni korxonalar miqyosida o'rganiladi. Korxonalar tegishli birlashmalarga, vazirliklarga birlashadi va mamlakat miqyosida jami ishlab chiqarilgan mahsulot aniqlanadi. Har bir korxonadagi ishlab chiqarish jarayoni statistikaning ob'ekti hisoblanadi. Korxonada ishlab chiqariladigan mahsulotlar quyidagicha guruhlanadi:

Tugallanmagan ishlab chiqarish – bu ma'lum ishlab chiqarish jarayonidan o'tgan, lekin ishlab chiqarishning barcha jarayoni tugamagan, shu korxonada mahsulot ishlab chiqarish davom etadigan mahsulotlarga aytiladi. Bunday mahsulotlar standart talablariga javob bermaydi.

Yarim tayyor mahsulotlar – korxonaning biror sexida ishlab chiqarish jarayonidan o'tgan, lekin shu korxonada ishlab chiqarish jarayoni davom etadigan yoki chetga sotsa ham bo'ladigan mahsulotlarga aytiladi. Yarim tayyor mahsulotlarga qo'yilgan talabga javob berishi lozim.

Tayyor mahsulotlar - korxonadagi barcha ishlab chiqish jarayonidan o'tgan, standart talabiga tayyor mahsulot sifatida javob beradigan va tayyor mahsulot sifatida qabul qilingan mahsulotlardir.

Korxonalarda ishlab chiqariladigan mahsulotlar natural (kg, metr, dona,...), shartli natural va pul qiymatlarida ko'rsatiladi. Natural ko'rsatkich ishlab chiqarishning asosiy iqtisodiy ko'rsatgichi. Ayniqsa bir xil mahsulotlar ishlab chiqaruvchi korxonalarda bu ko'rsatkich keng qo'llaniladi. Masalan: ko'mir qazib olish, elektr energiya ishlab chiqarish va h.z lar. Lekin ayrim mahsulotlar turlari bo'yicha natural ko'rsatkich ishlab chiqarishni aniq ifodalamaydi.

Ishlab chiqarilgan mahsulotlar pul ifodasida, summasida ko'rsatiladi. Pul ifodasida mahsulotlar yalpi chiqarilgan mahsulotlar, tovar mahsuloti va sotilgan mahsulotlar turlariga bo'linadi.

Yalpi mahsulot korxonaning barcha sexlarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar, tashqariga sotilgan yarim tayyor mahsulotlar ko'rsatilgan xizmatlar qiymatining yig'indisidir.

Tovar mahsuloti hisobot davrida ishlab chiqarilgan va sotish uchun mo'ljallangan mahsulotdir. Tovar mahsuloti ishlab chiqarish va aholi shaxsiy istemoli uchun sotilgan yoki sotish uchun mo'ljallangan mahsulotlar qiymati yig'indisidir. Tovar mahsulotiga sotishga mo'ljallangan yarim tayyor mahsulotlar, chetga ko'rsatilgan xizmatlar qiymati ham kiradi. Tugallanmagan ishlab chiqarish qiymati tovar mahsuloti bo'la olmaydi.

Sotilgan mahsulot korxona tomonidan xaridorga sotilgan yoki ko'rsatilgan xizmatlar qiymatining yig'indisidir.

Sof mahsulot – ishlab chiqarish jarayonida hisobot davrida (bir yilda) yangidan yaratilgan qiymatdir. Sof mahsulot hajmidan ishlab chiqarish vositalari qiymatini ayirib tashlanganiga tengdir.

Mahsulot ishlab chiqarish uchun 3ta element mehnat qurollari, mehnat predmeti va inson mehnati birgalikda faoliyat yuritishi lozim.

Shuning uchun ham har qanday mahsulot ishlab chiqarish uchun xom-ashyo materiallar, asosiy vositalarning eskirishi va xodimlarga to'lanadigan ish haqi xarajatlari bo'ladi.

Mahsulot ishlab chiqarish uchun ketgan barcha moddiy (asosiy vositalar yemirilish, xom ashyo, materiallar va shu kabilar) xarajatlar va ishlab chiqarishda band bo'lgan hodimlarga hisoblangan mehnat haqi mahsulot tannarxini tashkil etadi.

Korxona buxgalteriyasida mahsulot tannarxi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 1999 yil 5 fevraldagi № 54-son qarori bilan tasdiqlangan. «Mahsulot (ishlar xizmatlar)ni ishlab chiqarish va sotish xarajatlarining tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risidagi Nizom» asosida hisobga olib boriladi.

Mahsulot tannarxini aniqlashda xalq xo'jaligi tarmoqlarining o'ziga xos xususiyatlari mavjud.

Lekin barcha tarmoq korxonalarida ishlab chiqarishda xalq xo'jaligi tarmoqlari xarajatlarining iqtisodiy elementlariga asosan quyidagicha guruhlanadi.

- Xom ashyo va asosiy materiallar;

- Yordamchi materiallar;
- Yoqilg'i va energiya;
- Asosiy va qo'shimcha ish haqi
- Ijtimoiy sug'urtaga ajratmalar
- Asosiy vositalar amortizatsiyasi (eskirish)
- Boshqa xarajatlar

Korxonalar mahsulot ishlab chiqarish uchun bo'ladigan barcha xarajatlar. Mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar

- a) Ishlab chiqarish moddiy xarajatlari (xom ashyo, material);
- b) Ishlab chiqarishga oid mehnatga haq to'lash xarajatlari;
- v) Ishlab chiqarishga oid ijtimoiy sug'urtaga ajratma xarajatlari
- g) Asosiy vositalar va ishlab chiqarishga oid nomoddiy aktivlar amortizatsiyasi
- d) Ishlab chiqarish ahamiyatiga ega bo'lgan boshqa xarajatlar.

II. Mahsulot tannarxiga kiritilmaydigan xarajatlar:

- a) sotish xarajatlari
- b) ma'muriy-boshqaruv xarajatlari
- v) boshqa operatsiya xarajatlari guruhlanadi.

Mahsulotning ayrim turlari tannarxiga olib borilishiga qarab xarajatlar bevosita (to'g'ri) va bilvosita (egri) guruhlariga bo'linadi.

Mahsulot hajmi bilan bog'liqligiga qarab, xarajatlar o'zgaruvchan va o'zgarmas (doimiy) xarajatlarga bo'linadi.

Demak korxoning umumiy xarajatlari (UX) doimiy xarajatlari (DX) va o'zgaruvchan xarajatlar (UX) yig'indisiga teng masalan: xodim ishbay haq olsa, bu o'zgaruvchan xarajat. Bir oylik maosh belgilangan bo'lsa, bu shakli doimiy xarajatga olib boriladi. Mahsulot ishlab chiqarish xarajatlari bo'yicha hisobga olib boriladi.

Mahsulot tannarxi deb shu mahsulotni ishlab chiqarishda uning tayyor bo'lgunicha ketgan barcha xarajatlarning yig'indisiga aytiladi.

Indeks usulidan foydalanib korxonaning mahsulot ishlab chiqarish rejasining bajarilishi, o'tgan yillar bilan o'zgarishini aniqlashimiz mumkin. Bunda mahsulot ishlab chiqarish miqdorlari va

har bir tannarxni ko'pincha korxonalar qanchalik kamaytirishni rejalashtiradi.

a) Plan topshirig'i indeksi
$$i_{nl} = \frac{Z_{n1}}{Z_0}$$

b) Tannarx dinamikasi indeksi
$$i_g = \frac{Z_{11}}{Z_0}$$

v) Tannarx plan bajarilishi indeksi
$$i_x = \frac{Z_{n1}}{Z_0}$$

Z – konkret mahsulot birligiga to'g'ri keladigan tannarxlar:

Korxona bo'yicha umumiy indekslar:

a) Plan topshirig'i indeksi
$$J_{nl} = \frac{\sum dn / Z_{nl}}{\sum dn}$$

b) Tannarx dinamikasi indeksi:
$$J_g = \frac{\sum Z_{11} q_1}{\sum Z_0 q_1}$$

v) Planning bajarilishi darajasi indeksi:
$$J_{nl} / \text{baj.} = \frac{\sum Z_{11} q_1}{\sum Z_0 q_1}$$

Bir xil mahsulotlar ishlab chiqaradigan korxonalar uchun umumiy indeks.

$$J_Z = \frac{Z_1}{Z_0} = \frac{\sum_1 q Z_1}{\sum q} \cdot \frac{\sum q_0 Z_0}{\sum q_0}$$

Doimiy tarkibli (tarkibi o'zgarmaydigan) ishlab chiqarish korxonalarida tannarx umumiy indeksi:

$$J_Z = \frac{\sum q_1 Z_1}{\sum q} \cdot \frac{\sum q_0 Z_0}{\sum q_0}$$

Mahsulot birligining tannarxining o'zgarishini umumiy ishlab chiqariladigan mahsulot qiymatiga qanday ta'sir qilganligini bilishimiz mumkin.

Mahsulot ishlab chiqarish mavzusi bo'yicha misollar yechish tartibini ko'rib chiqamiz.

1. Joriy davrda korxona tomonidan ishlab chiqarilgan:

- tayyor mahsulot 5600 ming so'm, shundan chetga jo'natilgan 5010 ming so'mlik;

- yarim tayyor mahsulotlar 4000 ming so'mlik, shundanishlab chiqarishda iste'mol qilinganligi 3200 ming so'mlik tashqariga jo'natilgani 600 ming so'mlik;

- tashqariga sanoat xarakteridagi ko'rsatilgan xizmatlar 260 ming so'mlik;

- o'z uskunalarini kapital remont qildirilgani uchun 42 ming so'mlik;

- tugallanmagan ishlab chiqarishning yil boshiga qoldiq qiymati 60 ming so'm va yil oxiriga 55 ming so'mlik.

Berilgan ma'lumotlar asosida aniqlash kerak:

1. Yalpi oborotni (YaO);

2. Yalpi mahsulotni (YaM);

3. Tovar mahsulotni (TM);

4. Sotilgan mahsulotni (SM).

Bundan tashqari oldingi davrda jo'natilgan mahsulot uchun hisob raqamiga 1000 ming so'mlik pul kelib tushdi.

Yechilishi:

1. $YaO = 5600 + 4000 + 260 + 42 + (55 - 60) = 9897$ ming so'm.

2. $YaM = 9897 - 3200 = 6697$ ming so'm.

$YaM = 5600 + 600 + (4000 - 3200 - 600) + 260 + 42 + (-5) = 6697$ ming so'm.

3. $TM = 5600 + 600 + 260 + 42 = 6502$ yoki $TM = 6697 - 200 - (-5) = 6502$ ming so'm.

4. $SM = 5010 + 600 + 260 + 42 + 790 = 6702$ yoki $SM = 6502 - (5600 - 5010) - (-790) = 6702$ ming so'm.

2. Hisobot davrida qurilish tashkiloti bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan:

№	Ko'rsatkichlar	Qiyamati ming so'm
1	Bajarilgan qurilish – montaj ishlari	10050
2	Qurilish smetasida ko'rsatilgan, uskunalarni o'rnatish qiymati	2010
3	Imorat va inshootlarni joriy va capital ta'mirlash	350
4	Bog' va boshqa ko'p yillik ekinlarni ekish uchun xarajatlar	50
5	Asosiy fondlar qiymatini oshirmiydigan boshqa xarajatlar	60

Berilgan ma'lumotlar asosida qurilish tashkilotining mahsulotini va asosiy kapitalga investitsiya hajmini aniqlang:

Yechilishi:

Qurilishmahsuloti: $10050+350=10400$ mingso'm;

Asosiykapitalgainvestitsiyahajmi: $10050+2010+50+60=12170$ mingso'm.

3. Mamlakat bo'yicha quyidagi shartli belgilar keltirilgan:

Ekin turlari	Ekin maydoni (ga)		O'rtacha hosildorlik (s/ga)	
	Bazis davri	Hisobot davri	Bazis davri	Hisobot davri
Bug'doy	12600	12870	28.5	28.1
Arpa	940	975	12.0	15.3
Sholi	870	1240	26.4	31.2

Berilgan ma'lumotlar bo'yicha aniqlang:

1. don mahsulotlarining yalpi hosilini;
2. yalpi hosilga ta'sir etuvchi omillar:
-ekin maydoni;
-hosildorlik;
3. O'rtacha hosildorlik indeksiga ta'sir etuvchi omillarni:
-hosildorlik;
-yer maydoni.

Yechilishi:

$$I_{\text{yalpihosil}} = \frac{\sum X_1 M_1}{\sum X_0 M_0} = \frac{12870 \times 28.1 + 975 \times 15.3 + 1240 \times 31.2}{12600 \times 28.5 + 940 \times 12.0 + 870 \times 26.4} = \frac{361647 + 149175 + 38688}{359100 + 11280 + 22968} = \frac{4152525}{393348} = 1.055$$

Don ekinlarining yalpi hosili hisobot davrida bazis davriga nisbatan 5.56 %ga oshgan.

Ekin maydonlari hisobiga yalpi hosilning o'zgarishi:

$$I_{\text{ekinmaydoni}} = \frac{\sum M_1}{\sum M_0} = \frac{12870 + 975 + 1240}{12600 + 940 + 870} = \frac{15085}{14410} = 1.046$$

Ma'lumotlargaasoslanib,

harbiryiluchuno'rtachahosildorliknihisoblabchiqamiz:

$$I_0 = \frac{\sum X_0 M_0}{\sum M_0} = \frac{415252,5}{14410} = 28,8 \text{ s / ga}$$

$$I_1 = \frac{\sum X_1 M_1}{\sum M_1} = \frac{393348}{15085} = 26.07 \text{ s / ga}$$

$$I_x = \frac{X_1}{X_0} = \frac{26.07}{28.8} = 0.90$$

Amaliy mashg'ulot uchun masalalar.

8.3.1. 2010 yil korxona iqtisodiy faoliyat to'g'risida quyidagi ma'lumotlar ma'lum (o'zgarmas bahoda):

t/r	Ko'rsatkichlar	O'zgarmas bahoda (ming so'm)
1	Yalpi mahsulot	5760
2	Ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulot	2350
	Shu jumladan:	
	Tashqariga sotilgan	430
3	Buyurtma bo'yicha bajarilgan sanoat xarakteridagi ish	350
4	Tugallanmagan mahsulot qiymati:	
	Oy boshida	2970
	Oy oxirida	2680

Aniqlang:

2010 yilgi Tovar va tayyor mahsulot qiymatini.

8.3.2. Firmaning iqtisodiy faoliyat to'g'risida quyidagi ma'lumotlar berilgan (ming so'm):

t/r	Ko'rsatkichlar	Qiymati (ming so'm)
1	Ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot	9600
	Shundan:	
	ombordagi	6000
	Haqiqatda to'langanligi	3900
2	Firmaning hisobiga avvalgi yildagi haqiqiy	7300

	tushum	
3	Ishlab chiqarilgan yarim tayyor mahsulot	5000
	O'z ehtiyojlariga ishlatilgan	3000
	Tashqariga sotilgan	2000
4	Bajarilgan sanoat ishlari qiymati	860
5	Tugallanmagan ishlab chiqarish qiymati:	
	Yil boshiga	800
	Yil oxiriga	800

Aniqlang:

Firmaning yalpi oborotini, Tovar va sotilgan mahsulotning qiymatini.

8.3.3. Hisobot davrida firmaning tayyor mahsulotlari qiymati 94000 ming so'm va yarim tayyor mahsuloti 69000 ming so'm hisobot davrida firmaning ichida 45000 ming so'mlik mahsulot iste'mol qilindi. Yarim tayyor mahsulotdan 30000 ming so'mligi chetga sotildi. Ombordagi tayyor mahsulot 86000 ming so'mligi sotildi, tashqariga sanoat xarakteridagi 6400 ming so'mlik ishlab bajarildi. Hisobot davrida firma elektro stansiyasida 4000 ming so'mlik elektr energiyasi ishlab chiqarildi. Shundan o'zi uchun 350 ming so'mlik elektr energiyasi ishlatildi, qolgani chetga sotildi (50 ming s.).

Tugallanmagan ishlab chiqarish qoldig'i yil boshida 600 ming so'm, yil oxiriga 960 ming so'mni tashkil etdi. Sotilgan mahsulot va chetga ko'rsatilgan xizmatlar puli to'langan.

Aniqlang:

1. Yalpi oborotni;
2. Yalpi mahsulotni ikki usulda:
-unsurlar bo'yicha;
-zavod usuli bo'yicha.
3. Tovar mahsulotni;
4. Sotilgan mahsulotni.

8.3.4. Qurilish tashkiloti bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan:

t/r	Ko'rsatkichlar	Qiymati ming so'm
1	Bajarilgan qurilish – montaj ishlari	5900
2	Qurilish smetasida ko'rsatilgan, uskunalarni o'rnatish qiymati	2600
3	Loyiha ishlari	2300
4	Geologik qidirish ishlari (qurilish ob'ektiga tegishli)	900
5	Qurilish ishlari direksiyasiga xarajatlar	500
6	Qurilish ob'ektiga kadrlar tayyorlash uchun xarajatlar	230
7	Imorat va inshoatlarni joriy va capital ta'mirlash	760

Aniqlang:

Qurilish tarmog'ining ylpi mahsulotini.

8.3.5. Tumandagi savdo tashkilotlari bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan:

- Chakana tovar aylanmasi – 5900 ming s.
- Muomala xarajatlari – 460 ming s.
- shu jumladan: yuk transporti va aloqa xizmati – 49 ming s.
- Sotilgan mahsulotning savdo ustamasi tovar aylanmasining 13%ini tashkil etadi.

Aniqlang:

Savdo tarmog'ining mahsulotini.

8.3.6. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotish bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan:

Mahsulot turlari	Ishlab chiqarilgan tayyor mahsulot	Yil boshiga tayyorlangan mahsulot zahirasi	Sotilgan mahsulot	Ishlab chiqarishda foydalangan	Natura bo'yicha ish haqi to'lash	Yil oxiriga tayyor mahsulot
Dehqonchilik: Don	600	43	500	99	20	45
Savzavot: Kartoshka	500	260	270	290	60	270
Ozuqa ekinlar	200	60	-	96	20	66
Mevalar	260	6	245	-	6	7
Chorvachilik: chorvani o'stirish hisobiga olingan mahsulot	33	-	-	-	-	-
Sut	460	3	205	306	60	4
Jun	290	20	187	-	6	10
Organik o'g'itlar	40	5	-	38	2	7

Yosh daraxtzorga qilingan xarajat 390 mingso'm. Tugallanmagan ishlab chiqarish qiymati yil boshida 240 ming so'm va yil oxirida 250 ming so'm.

Aniqlang: Qishloq xo'jligi mahsulotini.

Mahsulot ishlab chiqarish mavzusi bo'yicha testlar

1. Ishlab chiqarilayotgan mahsulot tannarxiga qo'shiladigan xarajatlar qaysi me'yoriy hujjatga asoslanadi?

- a) "Mahsulot ishlab chiqarish va sotish xarajatlari tarkibi, hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi Nizomga;
- b) "Mahsulot ishlab chiqarish niraq'batlantirish to'g'risida"gi Qarorga;
- c) "Mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlari to'g'risida"gi Nizomga;
- d) "Ishlab chiqarish xarajatlari to'g'risida"gi vazirlar mahkamasi qaroriga.

2. "Mahsulot ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) va sotish xarajatlari tarkibi hamda moliyaviy natijalarni shakllantirish tartibi to'g'risida"gi nizom kim tomonidan va qachon qabul qilingan?

- a) O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2005 yil 5 fevralda;
- b) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonida 1999 yil 5 fevralda;
- c) O'zbekiston Respublikasi Bosh Vaziri qarori bilan 2007 yil 18 noyabrda;
- d) O'zbekiston Respublikasi Moliya Vaziri tomonidan 2006 yil 15 martda.

3. Mahsulot ishlab chiqarish jarayonining holatiga ko'ra bo'ladi:

- a) Ishlab chiqarishga sarf, yarim tayyor mahsulot, tayyor mahsulot;
- b) Tugallanmagan ishlab chiqarish, yarim tayyor mahsulot, tayyor mahsulot;
- c) Mahsulot ishlab chiqarishga qilingan xarajatlar, tayyor mahsulot;
- d) Yarim tayyor mahsulot, tayyor mahsulot, tovar mahsulotlar.

4. Ilovada keltirilgan ma'lumotlarga asosan aniqlang:

- a) Mahsulotlarning ishlab chiqarish tannarxi umumiy summasi dinamikasini;
- b) Ishlab chiqarish tannarxi xarajatlari turlari va tarkibini;
- c) Ishlab chiqarish tannarxidagi o'tgan va joriy yildagi o'zgarishlarni;
- d) Ishlab chiqarish tannarxiga ta'sir qiluvchi omillarni.

5. Davr xarajatlari qanday xarajatlar kiradi?

- a) Sotish va boshqaruv xarajatlari;
- b) Sotish, ma'muriy va boshqa muomala xarajatlari;
- c) Boshqaruv apparati xarajatlari;
- d) Ma'muriy – boshqaruv xarajatlari.

9-MAVZU. XODIMLAR MEHNATI VA ISH HAQI STATISTIKASI

9.1. Amaliy mashg'ulotni o'qitish texnologiyasi

Tinglovchilar soni:	Ajratilgan vaqt
O'quv mashg'ulotining shakli	Amaliy – bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha mashg'ulot
Amaliy mashg'ulotda ko'rib chiqiladigan savollar.	1. Iqtisodiy faol aholi tushunchasi va tarkibi. 2. Iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lgan xodimlar soni. 3. Ro'yxatdagi va ishga kelgan xodimlar soni. 4. Xodimlar ish vaqtidan foydalanish ko'rsatkichlari.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Iqtisodiyotda band bo'lganlarning faoliyat sohasi, mulk formasi, xo'jalik yuritish formasi va mamlakat hududlari bo'yicha taqsimlanishini statistik o'rgatish. Smenalik koeffitsiyenti, smenalik rejimidan foydalanish statistikasi o'rgatish.	
Pedagogik vazifa: - Iqtisodiy faol aholi tushunchasi va tarkibi haqida tushuncha berish; - Iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lgan xodimlar soni haqida tushuncha berish; - Ro'yxatdagi va ishga kelgan xodimlar soni haqida tushuncha berish; - Ish joylaridan foydalanish ko'rsatkichlari statistikasi haqida so'zlab berish; - Xodimlar ish vaqtidan foydalanish ko'rsatkichlarini o'rgatadi. - Xodimlarga mehnat haqi hisoblash shakllari va tartibini tushuntirish.	O'quv faoliyatining natijasi: -Iqtisodiy faol aholi tushunchasi va tarkibi haqida tushuntiradilar; -Iqtisodiyot tarmoqlarida band bo'lgan xodimlar soni haqida biladilar; -Ro'yxatdagi va ishga kelgan xodimlar soni haqida tushuntiradilar; -Ish joylaridan foydalanish ko'rsatkichlari statistikasi haqida so'zlab beradilar; - Xodimlar ish vaqtidan foydalanish ko'rsatkichlarini o'rganadilar. -Xodimlarga mehnat haqi hisoblash shakllari va tartibini aytib beradilar.
O'qitishning usuli	Aqliy hujum, Blis-so'rov va munozara usuli;
O'qitish vositasi	Tarqatma materiallar, slaydlar, proyektor, grafiklar.
O'qitishning shakli	Jamoa, frontal, to'g'ridan-to'g'ri ishlash
O'qitish shartlari	O'quv mashg'ulotini o'qitish uchun kerakli texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya
Monitoring va baholash	Savol-javob

9.2. Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasisi

Ish jarayonlari	Faoliyat mazmuni Pedagog	Tinglovchi
1-bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mavzu nomini, maqsad va vazifalarini aytadi. 1.2. Mashg'ulotni oltib borish formasi va baholash mezonlarini aytadi. Qo'yilgan bilim maqsadiga mos keluvchi o'quv topshiriqlarini ishlab chiqadi 1.3. Guruhdagi ishni effektivligini taminlash uchun yozma instruksiya tayyorlaydi 1.4. O'quv muammosini hal qilish jarayonida faol ishtirok etish uchun talabalarga kerak bo'ladigan zaruriy bilimlar darajasini belgilaydi.	Eshitishadi
2-bosqich. Asosiy qism. (40-min.)	2.1. Topshiriqlarni tarqatadi, talabalar bilan yechish usullarini muhokama qiladi. 2.2. Ish oxirida qanday natijalar kutilishini tushuntiradi. Guruhlardagi talabalarning birgalikdagi faoliyati natijalarini taqdimot etish formalarini aytadi. Har bir talaba va guruh uchun baholash mezonini aytadi (3 -ilova) 2.3. Talabalarni guruhlariga ajratadi. Topshiriqlarni guruhlariga tarqatadi, topshiriq bajarishda qanday qo'shimcha materiallardan foydalanish mumkinligini tushuntiradi. 2.4. Duskaga guruh topshirig'ini bajarish yo'riqnomasini ilib qo'yadi. 2.5. Kuzatuvchi sifatida guruhda ishlashni tashkil etadi, ammo bunda: -ishlayotgan guruhni nazorat qiladi, lekin ularni boshqarmaydi. -yakka tartibda ishlashga etibor beradi, topshiriqlarni bajarishda aqliy hujum orqali muammoli topshiriqlarni yechish qonunlari bilan tanishtiradilar (4-ilova).	Topshiriqlarni muhokama qiladi. Mashg'ulot materiali va instruksiyasi bilan tanishadi. Eshitishadi, guruhlariga ajrashishadi Guruh ichida savollarni bo'ladi.
3-bosqich Prezentatsiya (10 min.)	3.1. Prezentatsiyani tashkil qiladi. Darsni yakunlaydi. Guruhlar faoliyatining ijobiy tomonlarini, muvaffaqiyatlarini aytib o'tadi. 3.2. Bajarilgan ishning kelgusidagi kasbiy faoliyati uchun naqadar muhimligini ko'rsatadi..	Prezentatsiyada qatnashishadi, qo'shimcha qilishadi, baholashadi.
4-bosqich. Yakunlovchi (5 min.)	4.1. Bajarilgan ishlarga xulosa yakunlaydi.	Eshitishadi va yozib olishadi.

9.3. Uslubiy ko'rsatmalar va masalalarning yechilishi

Iqtisodiy ko'rsatkichlarni yaxshilashda xodimlar mehnati muhim ahamiyatga ega. Xodimlar soni harakati va ularning mehnatini statistik o'rganganda, ularni turli belgilari bo'yicha o'rganadi. Xodimlar xalq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha, bajaradigan funksional vazifalari bo'yicha guruhlanishi mumkin.

Xalq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha: sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish transport, sog'liqni saqlash, maorif va shu kabi tarmoqlarda ishlovchi xodimlarga guruhlanadi. Bajaradigan ishlar bo'yicha: ishchilar injener texnik xodim, xizmatchilar, xizmat qiluvchi kichik xodimlar, shogird-o'quvchilar kabi guruhlanadi. Mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq ishlarda ishlaydigan xodimlar ishchilar deyiladi va ular korxonalarda ko'pchilikni tashkil etib, asosiy kuch hisoblanadi. Ilmiy texnik xodimlarga ishlab chiqarishni tashkil etish va boshqarish bilan bog'liq mansablarda ishlayotgan rahbar xodimlar kiradi.

Turli iqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash uchun o'rtacha ro'yxatdagi xodimlar soni, o'rtacha ishga kelgan xodimlar soni kabi ko'rsatkichlar aniqlanadi. O'rtacha ro'yxatdagi xodimlar sonini aniqlash uchun kolendar kunlaridagi ro'yxatdagi xodimlar sonining yig'indisini kolendar kunlar yig'indisiga bo'linadi. O'rtacha ishga kelganlar sonini topish uchun haqiqiy ishlagan kunlar yig'indisi ish kunlari yig'indisiga bo'linadi.

Korxonalarda xodimlar soni va ularning harakati kadrlar bo'limi tomonidan yuritiladi va hisobotda ko'rsatiladi. Barcha xodimlar doimiy, vaqtincha va mavsumiy ishga qabul qilingan guruhlariga bo'linadi. Vaqtincha ishga qabul qilinganlarga 2 oygacha yoki vaqtincha ishlamayotgan xodimlar o'rniga 4 oygacha ishga qabul qilingan xodimlar kiradi. Mavsumiy ishga qabul qilinganlarga mavsum davrida 6 oygacha mavsumiy ishni bajarishga qabul qilingan xodimlar kiradi. Ro'yxatdagi xodimlarga ishga qabul qilish to'g'risidagi buyruq chiqqandan, ishdan bo'shatish to'g'risida buyruq chiqqungacha bo'lgan barcha xodimlar kiradi.

Xodimlar harakati ko'rsatkichlari: ishga qabul qilinganlar koeffitsienti, ishdan ketganlar koeffitsienti, turg'unlik koeffitsientlari bilan ifodalanadi.

Xodimlarning ishga qabul qilish koeffitsienti – hisobot davrida yangi qabul qilingan xodimlar sonini korxona xodimlarning o'rtacha soniga bo'lib topiladi.

$$\text{Ishga qabul qilinganlar koeffitsienti} = \frac{\text{Ishga qabul qilingan xodimlar}}{\text{Xodimlar o'rtacha soni}}$$

Xodimlarning ishdan ketish koeffitsienti – hisobot davrida ishdan bo'shatilgan-ketganlar sonini korxona xodimlari o'rtacha soniga bo'lib topiladi.

$$\text{Ishdan bo'shatilganlar koeffitsient} = \frac{\text{Ishdan ketgan xodimlar soni}}{\text{Xodimlar o'rtacha soni}}$$

Korxona xodimlarining umumiy aylanma (o'borot) koeffitsienti – ishga qabul qilinganlar va ishdan ketganlar sonini qo'shib (IK) korxona xodimlarining o'rtacha soniga bo'lib topiladi.

$$\text{Xodimlarning umumiy o'boroti} = \frac{\text{Ishga qabul qilingan va ishdan bo'shatilganlar}}{\text{Xodimlar o'rtacha soni}}$$

$$\text{Xodimlar turg'unlik koeffitsienti} = \frac{\text{Korxonalarda doimiy ishlaganlar soni}}{\text{Xodimlar o'rtacha soni}}$$

Korxonada ishga qabul qilingan va ishdan ketgan xodimlar sabablari bo'yicha ham o'rganiladi. Ishga qabul qilinganlar oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarini bitirib kelganlar, mehnat birjasi yo'llanmasi bilan qabul qilinganlar va hokazo. Ishdan ketganlar esa:

nafaqaga chiqish, boshqa joyga ko'chib ketgan, armiya xizmatiga, o'qishga ketganligi, ichki intizomni buzganligi va shu kabilar.

Xodimlarning almashib turishi ijobiy hodisa emas. Shuning uchun ham xodimlarning ishga qabul qilish va ishdan ketish koeffitsienti ko'rsatkichlarini – sabablari bilan o'rganish zarur. Bu ko'rsatkichlar koeffitsientlari qanchalik «O»ga yaqin bo'lsa, shunchalik yaxshi deyish lozim.

Xodimlarning turg'unlik koeffitsienti «1»ga yaqin bo'lsa ijobiy, chunki korxonada xodimlar doimiy ravishda turg'un ishlasalar tajribasi ortadi, ishlab chiqarishning tashkil etilishni o'rganadi va hokazo, natijada xodimlarning mehnat unumdorligi yuqori bo'ladi.

Mehnat unumdorligi ishlab chiqarish samaradorligini ifodalovchi muhim iqtisodiy ko'rsatkichdir. Korxonalarda mehnat unumdorligi ma'lum vaqt ichida ishlab chiqarilgan mahsulot bilan belgilanadi. Bunda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini shu mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqtga bo'lib topiladi. Bu ko'rsatkichning teskarisi bo'lib ma'lum miqdordagi mahsulotni ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt (mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun sarflangan vaqt) sifatida ham aniqlash mumkin. Bundan tashqari har bir xodimga to'g'ri keladigan (yoki ishchiga) ishlab chiqarilgan mahsulot ham xodimning (ishchining) o'rtacha mehnat unumdorligini bildiradi.

Bu yerda ishlab chiqarilgan mahsulot (ko'rsatilgan xizmatlar) natural (kg, metr, kabi), shartli natura va qiymat o'lchovdagi ko'rsatkichlari qo'llanishi mumkin. Natura ko'rsatkichlarida mehnat unumdorligini aniqlash va o'zgarishlarini o'rganish yaxshi, ayniqsa narxning ta'siri bunda bo'lmaydi, lekin chegaralangan chunki mehnat unumdorligini natura ko'rsatkichda faqat bir xil (tur)dagi mahsulot ishlab chiqarishda aniqlash mumkin.

Mehnat unumdorligini (V) natura o'lchovida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdorini (G) ja'mi sarflangan vaqtiga (T) bo'lib topamiz.

$$V = \frac{\sum G}{\sum T};$$

Mehnat unumdorligi qiymat o'lchovida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini ($\sum q$) sarflangan vaqtga bo'lib topiladi.

$$V = \frac{\sum qp}{\sum T};$$

Ularining davrlar bo'yicha o'zgarishi ya'ni dinamik indeks.

$$J_v = \frac{v_1}{v_0} = \frac{\sum q_1 p_1}{\sum T_1} : \frac{\sum q_0 p_0}{\sum T_0};$$

Mahsulot ishlab chiqarishga sarflangan vaqt kishi-minut, kishi-soat, kishi-kunlarda ifodalanishi mumkin.

Mehnat unumdorligi o'rganilganda yuqoridagi ko'rsatkichlarga asosan: natural usulda: a) sarflangan vaqt birligida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori, misol 1 soatda terilgan paxta, tayyorlangan non mahsuloti; b) bir xodimga to'g'ri keladigan ishlab chiqarilgan mahsulot, misol bir terimchiga to'g'ri keladigan terilgan paxta, bir xodimga to'g'ri keladigan non mahsuloti (kg, tonna); v) bir ishchiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori. Shartli natural va qiymat o'lchovlarida ham bu ko'rsatkichlar aniqlanadi va o'rganiladi. Statistika bu ko'rsatkichlar holati o'rganilib qolmasdan, korxonalarda mehnat unumdorligi qanday o'zgarayotganligi aniqlash uchun, ularning dinamikasi ya'ni ma'lum vaqt-davr mobaynida (oy, chorak, yil) o'zgarishi ham aniqlanadi va o'rganiladi. Mehnat unumdorligi dinamikasi iqtisodiy indekslar yordamida o'rganiladi. Bunda o'zgaruvchan va doimiy tarkibli indekslar, hamda tarkibiy o'zgarishlar (siljishlar) indekslaridan foydalaniladi. Natijada mehnat unumdorligiga ishlab chiqarilayotgan mahsulot hajmi va uning tarkibi o'zgarishning, hamda narx o'zgarishining ta'siri aniqlanadi.

Xodimlar mehnati va ish haqi statistikasi mavzu bo'yicha masalalar yechish tartibini ko'rib chiqamiz.

1. Korxonada buxgalter bo'lib ishlaydigan xodimning razryadi 10 belgilangan, unga to'g'ri keladigan tarif koeffitsienti 4,361. Hozirgi paytda (2013 yil 15 avgustdan) minimal ish haqi 91528.5 so'm belgilangan. Demak buxgalterning bir oylik maoshi – 399155.78 so'm (4,361x91582.5 so'm). Buxgalter joriy oyning ish kunlari to'liq ishlagan bo'lsa, maosh to'liq hisoblanadi. (Bundan tashqari xodimga turli ustama va mukofotlar ham berilishi mumkin).

2. O'z faoliyatini 20 apreldan boshlagan firmaning ishchilar ro'yxat bo'yicha 20-30 aprelda – 130 kishi, 1- 15 mayda 150 kishi, 16 – 31 may kunlari- 165 kishidan iborat bo'lgan. Firma ishchilarining o'rtacha ro'yxatdagi soni:

Iyun oyida 180 kishini, III chorakda 200 kishini, Oktyabrda 205 kishini, Noyabrda 203 kishini, Dekabrda 207 kishini tashkil etgan.

Firma ishchilarining o'rtacha ro'yxatdagi sonini aniqlang: aprel oyiga; may oyiga; II chorakka; 1 – yarim yillikka; IV chorakka; II yarim yillikka; yil uchun.

Yechilishi:

$$1) \overline{T_{ap}} = \frac{130 \times 11}{30} = 47 \text{ kishi} ;$$

$$2) \overline{T_{may}} = \frac{150 \times 15 + 165 \times 16}{31} = 157 \text{ kishi} ;$$

$$3) \overline{T_{IIchor}} = \frac{47 + 157 + 180}{3} = 128 \text{ kishi};$$

$$4) \overline{T_{Iyarimiyil}} = \frac{0 + 128}{2} = 64 \text{ kishi};$$

$$5) \overline{T_{IVchor}} = \frac{205 + 203 + 207}{3} = 205 \text{ kishi}$$

$$6) \overline{T_{Ilyarimiyil}} = \frac{200 + 205}{2} = 202 \text{ kishi};$$

$$7) \overline{T_{yillik}} = \frac{0 + 128 + 200 + 202}{4} = 132 \text{ kishi.}$$

3. Ikkita bo'limdan iborat bo'lgan korxona xodimlarining o'rtacha oylik ish haqlarining o'zgarishi quyidagi shartli ma'lumotlar asosida berilgan:

Kor-xo-na bo'lim-lari	Korxona xodimlari-ning ro'yxatda gi o'rtacha soni		O'rtacha oylik ish haqi		Ish haqi fondi, ming so'm		Bo'lim xodimlari sonining salmog'i		Shar-tli ish haqi fondi ming so'm
	Bazis davr	Joriy davr	Bazis davr	Joriy davr	Bazis davr	Joriy davr	Bazis davr	Joriy davr	
	T ₀	T ₁	f ₀	f ₁	T ₀ f ₀	T ₁ f ₁	d ₀	d ₁	T ₁ f ₀
1	76	85	280000	330000	21280	28050	0.555	0.574	23800
2	61	63	230000	270000	14030	17010	0.445	0.426	14490
Jami	137	148	510000	600000	35310	45060	1.00	1.00	38290

O'rtacha oylik ish haqi dinamikasi va unga ta'sir qiladigan omillarni tahlil qilish uchun ish haqining o'zgaruvchan va o'zgarmas tarkibli hamda tuzilmaviy siljishlar indekslarini aniqlang.

Yechish:

Ish haqining o'zgaruvchi tarkibli indeksi:

$$I_f = \frac{\sum f_1 T_1}{\sum T_1} \div \frac{\sum f_0 T_0}{\sum T_0} = \frac{45060000}{148} \div \frac{35310000}{137} = 304459 \div 257737 = 1.181 \text{ yoki } 118.1\%$$

Korxona bo'yicha o'rtacha ish haqi 18.1 % oshgan, uning mutloq miqdori (304459-257737) 46722 som.

Xodimlar ish haqining o'zgarishi hisobiga ish haqining o'rtacha o'zgarishi o'zgarmas tarkib indeksi orqali aniqlanadi:

$$I_f = \frac{\sum f_1 T_1}{\sum f_0 T_1} = \frac{45060000}{38290000} = 1.1768 \text{ yoki } 117.68\%$$

Ish haqining o'zgarishi hisobiga korxonada o'rtacha ish haqi 17.68% oshgan. Buning evaziga ish haqi fondi 45060000-38290000=6770000 so'mga ortgan.

Yuqori ish haqi oluvchi xodimlar salmog'ining o'zgarishi ish haqining tuzilmaviy siljish indeksi orqali aniqlanadi:

$$I_{tuz} = \frac{\sum f_0 T_1}{\sum T_1} \div \frac{\sum f_0 T_0}{\sum T_0} \approx \frac{38290000}{148} \div \frac{35310000}{137} = 258716 \div 257737 = 1.0039 \approx$$

1.004 yoki 100.4%

Yuqori oylik oluvchi xodimlar salmog'ining o'zgarishi hisobiga o'rtacha oylik ish haqi 04% oshgan yoki $258716 - 257737 = 979$ so'mga o'zgargan.

Shunday qilib, $J_{\bar{f}} = J_f \times I_{tuz} = 1.177 \times 1.005 = 1.181$

Amaliy mashg'ulot uchun misollar.

9.3.1. Korxona bo'yicha quyidagi ma'lumotlar keltirilgan:

t/r	Ko'rsatkichlar	Kishi-soat
1	Haqiqatda ishlagan kunlar	228000
2	Bekor qolgan kunlar	200
3	Jami ishga chiqilmagan kunlar	63800
4	Shu jumladan: Ta'til kunlar	13600 kishi/kuni
5	Bayram va dam olish kunlari	48000 kishi/kuni

Aniqlang:

Ishchilarning kalendar va maksimal ish vaqti foydalanish darajasini.

9.3.2. 2010 yilning 20 mayida o'z faoliyatini boshlagan korxona bo'yicha quyidagi ma'lumotlar keltirilgan:

Sana	Ro'yxatdagi ishchilar soni, kishi	Sana	Ro'yxatdagi ishchilar soni, kishi
20	1004	26	1004
21	1004	27	1003
22	1004	28	1005
23	1005	29	1004
24	1006	30	1004
25	1006	31	1004

Shuningdek, ishchilar soni bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan:

1-iyunga – 1002 kishi;

1-iyulga – 1005 kishi;

1-avgustga – 1010 kishi;

- 1 sentyabrga – 1008 kishi;
- 1 oktyabga – 1015 kishi;
- 1 noyabrga – 1020 kishi;
- 1 dekabrga – 1022 kishi.

Aniqlang:

Ishchilarning o'rtacharo'yxatdagisonini:

- a) May oyiga
- b) II chorakka
- c) III chorakka
- d) IV chorakka
- e) Yillik o'rtacha sonini.

9.3.3. Sanoat korxonasi bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan:

t/r	Ko'rsatkichlar	Kishi kunlar
1	Ishchilarning jami ishlagan kishi-kunlar	725787
2	Ishga chiqilmagan jami	114510
a	Navbatdagi ta'til kunlari	1860
b	O'qish bo'yicha ta'til kunlari	22800
c	Dekret bo'yicha ta'til kunlari	25400
d	Kasallik sababli	1540
e	Davlat topshirig'ini bajarish bo'yicha	3200
f	Ma'muriyat ruxsati bo'yicha ishga chiqmaslik	1560
j	Sababsiz ishga chiqmaslik	1920
z	Bayram va dam olish kunlari	56230
3	Ishlagan kishi soatlari	5080509

Aniqlang:

1. Berilgan ma'lumotlar asosida ish vaqtidan foydalanish balansini tuzing va aniqlang.
2. Ish vaqti fondlaridan foydalanish koeffitsentlarini;
3. Maksimal imkoniyatli ish vaqti fondi va ishga chiqilmagan kishi kunlarining strukturali ko'rsatkichlarini.

9.3.4. Korxona xodimlari sentyabr oyida 15658 kishi – kun ishladilar. Oy davomida ish kunlarining soni 24 kun. Bo'sh turib qolgan kunlar 51 kichi – kuni va ishga chiqilmagan kunlar 5436 kishi – kunini tashkil etgan.

Aniqlang:

1. Korxona xodimlarining sentyabr oyidagi o'rtacha ro'yxatdagi sonini;
2. Ish kunining davomiyligi, soat.

9.3.5. Quyidagi ikki firma bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan:

Ko'rsatkichlar	OOO "ALFA"		OOO "STAR"		Hisobot davrining bazis davriga nisbatan o'zgarishi, %	
	Bazis yili	Hisobot yili	Bazis yili	Hisobot yili	OOO "ALFA"	OOO "STAR"
1. Sotishdan olingan sof tushum (ming so'm)	81500	12500	99400	285600		
2. Ishlab chiqarish tannarxi	40100	70500	72450	204500		
3. Ishchilarning o'rtaca yillik soni (kishi)	202	190	275	278		
4. Asosiy fondlami ngo'rtachayillikqi ymati, (mingso'm)	123000	124000	52600	60480		
5. Aylanmamablag 'larningo'rtachaq oldiqqiymati (mingso'm)	60230	88900	75430	85600		

Aniqlang:

- 1) Har bir korxona bo'yicha mehnat unumdorligi darajasini;
- 2) Mehnat unumdorligining alohida indeksini;
- 3) O'zgaruvchan va o'zgarimas tarkibli mehnat unumdorligining umumiy indekslarini;

- 4) Fond qaytimini;
- 5) Aylanma kapitalning aylanuvchanligini.

9.3.6. Korxona faoliyatini ikki davri bo'yicha quyidagi ma'lumotlar berilgan:

Mahsulot turi	Normativ bo'yicha bir dona mahsulotga sarf (kishi-soat)	Noyabr		Dekabr	
		Ishlab chiqarilgan mahsulot (dona)	Jami sarflangan vaqt (kishi-soat)	Ishlab chiqarilgan mahsulot (dona)	Jami sarflangan vaqt (kishi-soat)
A	2.3	8300	19830	8400	19720
B	2.1	7800	15780	8200	17820

Aniqlang:

- 1) Mehnat unumdorligining darajasi va dinamikasini;
- 2) Mehnat indeksini.

9.3.7. Korxona bo'yicha bazis va hisobot davrida mehnat unumdorligi dinamikasi ma'lumotlari keltirilgan:

Korxonalar	Mehnat unumdorligi indeksi (%)	Hisobot davrida ro'yxatdagi ishchilar soni
1	97.3	440
2	100.5	280
3	106.0	304
Jami	-	1024

Aniqlang:

Korxonalar bo'yicha mehnat unumdorligining umumiy indeksini aniqlang.

9.3.8. Hisobot davrida ishlayotgan ishchilarning o'rtacha ish haqi bazis davriga nisbatan 7.8%, ish haqi fondi esa 17.8%ga oshgan. Ishlayotgan ishchilarning dinamikasini aniqlang.

9.3.9. Hisobot davrida ishchilarni o'rtacha oylik ish haqi 560000 so'mni tashkil qilib, bazis davriga nisbatan 25%ga oshgan, shu davr ishida ishchilarning o'rtacha yillik soni 5%ga kamaygan va 152 kishini tashkil etgan.

Aniqlang:

Ish haqi fondining hisobot va bazis davrlarida, mutloq va nisbiy ko'rsatkichlarini va unga ta'sir etuvchi omillarni:

- a) o'rtacha ish haqining o'zgarishi hisobiga;
- b) ishchilar sonining o'zgarishi hisobiga.

Xodimlar mehnati va ish haqi statistikasi mavzu bo'yicha testlar

1.Xodimlarning o'rtacha ishga kelgan soniqanday aniqlanadi?

- a) ma'lum davrda ishga kelganlar sonini (kishi - kunlar) kalendar kunlar soniga bo'lib;
- b) ma'lum davrda ishga kelganlar sonini tabel kunlar soniga bo'lib;
- c) barcha xodimlar sonini (kishi-kunlar) ish kunlari soniga bo'lib;
- d) xodimlarning o'rtacha sonini ishga chiqqanlar soniga bo'lib.

2.Xodimlarning umumiy aylanma harakati deganda nimani tushunasiz?

- a) xodimlarning yangilarini ishga qabul qilishni;
- b) xodimlarning ishdan ketganlar sonini;
- c) xodimlarning ishga qabul qilingan va ishdan bo'shab ketganlar sonini;
- d) xodimlarning o'rtacha ishga qabul qilinganlar sonini/

3.Xodimlarning turg'unlik (doimiylik) koeffitsienti qanday topiladi?

- a) doim ishlagan xodimlar sonini o'rtacha ro'yxatdagilar soniga bo'lib;
- b) xodimlarning o'rtacha sonini ishlagan xodimlar soniga bo'lib;
- c) turg'un xodimlar sonini ishga kelgan xodimlar soniga bo'lib;
- d) hamma javoblar to'g'ri.

4. Xodimlarning o'rtacha ro'yxatdagi soni qanday aniqlanadi?

- a) qanday ma'lumot bo'lishiga qarab: arifmetik va xronologik o'rtacha usullarida;
- b) arifmetik o'rtacha usuli bilan;
- c) hisoblab topish usuli bilan;
- d) ishga kelgan xodimlar sonini hisoblash bilan.

5.Xodimlarning tabel ish vaqti fondi deganda nimani tushunasiz?

- a) dam olish va bayram kunlarini chiqarib tashlab, ish kunlarini xodimlarning o'rtacha soniga ko'paytmasiga;
- b) xodimlarning ishga chiqqan kunlarini xodimlar soni ko'paytmasiga;
- c) ish kunlari sonini ishga chiqqan xodimlar soniga ko'paytirib;
- d) kalendar kunlari sonini ishga chiqqan xodimlar soniga ko'paytirib.

6.Xodimlarning mehnat unumdorligi deganda nimani tushunasiz?

- a) ma'lum vaqt ichida ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori bilan;

- b) xodimlar ishlab chiqargan mahsulot hajmini;
- c) xodimlar ishlab chiqargan mahsulot qiymatini;
- d) ishlab chiqarilgan mahsulot miqdori va qiymatini.

7. Mehnat unumdorligi natural miqdori qanday topiladi?

- a) ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini ($\sum^q$) sarflangan vaqtga bo'lib;
- b) yalpi mahsulotni qayta hisoblash yo'li bilan;
- c) ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini ishchilar soniga bo'lib;
- d) ishchilar sonini mahsulot hajmiga bo'lib.

8. Mehnat unumdorligi qiymat o'lchobida qanday hisoblanadi?

- a) ishlab chiqarilgan mahsulot qiymatini sarflangan vaqtga bo'lib;
- b) ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini ishchilar soniga qo'shib;
- c) yalpi ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi bilan;
- d) ishchilar sonini mahsulot qiymatiga bo'lib.

9. Mehnat unumdorligi indeksi deganda nimani tushunasiz?

- a) joriy davr mehnat unumdorligini o'tgan davr mehnat unumdorligiga bo'lib;
- b) o'tgan davr mehnat unumdorligini joriy davr mehnat unumdorligig bo'lib;
- c) ishlab chiqarilgan mahsulot hajminixodimlar soniga bo'lib;
- d) ishlab chiqarilgan mahsulot hajmini sarflangan vaqtga bo'lib.

10. Mehnat unumdorligi indeksi quyidagi qaysi formula bilan topiladi?

- a) $I_v = \frac{\sum q_1 p_1}{\sum T_1} : \frac{\sum q_0 p_0}{\sum T_0} ;$
- b) $I_v = \frac{\sum q_1 p_0}{\sum t_1} : \frac{\sum q_1 p_0}{\sum t_0} ;$
- c) $I_v = \frac{\sum q_0 p_0}{\sum t_0} = \frac{\sum q_1 p_1}{\sum t_1} ;$

10-MAVZU. KORXONALARNING ASOSIY VA AYLANMA KAPITALI STATISTIKASI

10.1. Amaliy mashg'ulotni o'qitish texnologiyasi

Tinglovchilar soni:	Ajratilgan vaqt
O'quv mashg'ulotining shakli	Amaliy – bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish bo'yicha mashg'ulot
Amaliy mashg'ulotda ko'rib chiqiladigan savollar.	1.Asosiy vositalar mohiyati va statistika vazifalari. 2.Asosiy vositalarni tavsiflovchi ko'rsatkichlar 3.Asosiy vositalar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar statistikasi 4.Korxonalarining asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi statistikasi 5.Korxonalarining asosiy vositalardan foydalanish samaradorligining statistikasi. 6.Korxonaning aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganligining statistikasi 7.Aylanma mablag'larning foydalanish samaradorligining statistikasi.
O'quv mashg'ulotining maqsadi: Asosiy vositalar mohiyati va statistika vazifalarini,bozor iqtisodiyoti sharoitida aylanma mablag'lar statistikasi ahamiyatini o'rgatish	
Pedagogik vazifa: -Asosiy vositalar mohiyati va statistika vazifalari yoritib berish; -Asosiy vositalarni tavsiflovchi ko'rsatkichlarini tushuntirish; -Asosiy vositalar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar statistikasini o'rgatish; - Korxonalarining asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi statistikasini o'rgatish; -Korxonalarining asosiy vositalardan foydalanish samaradorligining statistikasini aytib berish;	O'quv faoliyatining natijasi: Asosiy vositalar mohiyati va statistika vazifalari aytib beradilar. -Asosiy vositalarni tavsiflovchi ko'rsatkichlarini tushuntira oladilar. -Asosiy vositalar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar statistikasini o'rganadilar. -Korxonalarining asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi statistikasini o'rganadilar. -Korxonalarining asosiy vositalardan foydalanish samaradorligining statistikasini aytib beradilar. -Korxonaning aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganligining, aylanma mablag'larning foydalanish samaradorligining statistikasini o'rganadilar
O'qitishning usuli	Aqliy hujum, Blis-so'rov, va diskussiya usuli;
O'qitish vositasi	Tarqatma materiallar, slaydlar, proyektor, grafiklar.
O'qitishning shakli	Jamoa, frontal,to'g'ridan-to'g'ri ishlash
O'qitish shartlari	O'quv mashg'ulotini o'qitish uchun kerakli texnik vositalar bilan ta'minlangan auditoriya
Monitoring va baholash	Savol –javob

10.2. Amaliy mashg'ulotning texnologik xaritasi

Ish jarayonlari	Faoliyat mazmuni	
	Pedagog	Tinglovchi
1- bosqich. Kirish (5 min.)	1.1. Mavzu nomini, maqsad va vazifalarini aytadi. 1.2. Mashg'ulotni oltib borish formasi va baholash mezonlarini aytadi. Qo'yilgan bilim maqsadiga mos keluvchi o'quv topshiriqlarini ishlab chiqadi 1.3. Guruhdagi ishini effektivligini ta'minlash uchun yozma yo'riqnomasini tayyorlaydi 1.4. O'quv muammosini hal qilish jarayonida faol ishtirok etish uchun talabalarga kerak bo'ladigan zaruriy bilimlar darajasini belgilaydi.	Eshitishadi
2- bosqich. Asosiy qism. (40-min.)	2.1. Topshiriqlarni tarqatadi, talabalar, bilan yechish usullarini muhokama qiladi. 2.2. Ish oxirida qanday natijalar kutilishini tushuntiradi. Guruhlardagi talabalarning birgalikdagi faoliyati natijalarini taqdimot etish formalarini aytadi. Har bir talaba va guruh uchun baholash mezonini aytadi 2.3. Talabalarni guruhlariga ajratadi. Topshiriqlarni guruhlariga tarqatadi, foydalanish mumkinligini tushuntiradi. 2.4. Doskaga guruh topshirig'ini bajarish yo'riqnomasini ilib qo'yadi. 2.5. Kuzatuvchi sifatida guruhda ishlashni tashkil etadi, ammo bunda: -ishlayotgan guruhni nazorat qiladi, lekin ularni boshqarmaydi. -yakka tartibda ishlashga e'tibor beradi, topshiriqlarni bajarishda aqliy hujum orqali muammoli topshiriqlarni yechish qonunlari bilan tanishtiradilar	Topshiriqlarni muhokama qiladi. Mashg'ulot materiali va instruksiyasi bilan tanishadi. Eshitishadi, guruhlariga ajrashishadi Guruh ichida savollarni bo'ladi.
3- bosqich. Prezentat siya (10 min.)	3.1. Prezentatsiyani tashkil qiladi. Darsni yakunlaydi. Guruhlar faoliyatining ijobiy tomonlarini, muvaffaqiyatlarini aytib o'tadi. 3.2. Bajarilgan ishning kelgusidagi kasbiy faoliyati uchun naqadar muhimligini ko'rsatadi..	Prezentatsiyada qatnashishadi, qo'shimcha qilishadi, baholashadi.
4- bosqich. Yakunlovchi (5 min.)	4.1. Bajarilgan ishlarga xulosa yakunlaydi. 4.2. Mustaqil ishlash uchun keyingi Amaliy mashg'ulotga tayyorlanib kelishi uchun mavzu beradi	Eshitishadi va yozib olishadi.

10.3. Uslubiy ko'rsatmalar va masalalarning yechilishi

Korxonalar faoliyat yuritishlari uchun ma'lum miqdorda asosiy vositalarga ega bo'ladilar. Asosiy vositalar deb korxonada ko'p yil foydalanadigan mehnat qurollari: ya'nibinolar, inshootlar, asbob-uskunalar, mashinalar kabilarga aytiladi. Ular milliy boylikning asosiy qismini tashkil etadi. Asosiy vositalar foydalanish jarayonida eskiradi va o'z qiymatini asta-sekinlik bilan ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga o'tkazadi. Shuning uchun ham asosiy vositalar dastlabki (qaytatiklash) va qoldiq qiymatlarda baholanadi.

Bozor munosabatlari sharoitida har bir korxona mavjud asosiy vositalardan samarali foydalanishi lozim. Shuning uchun ham korxonalar asosiy vositalarning holatini va foydalanish samaradorligini tahlil qilishlari zarur.

Korxonalarda asosiy vositalarni tahlil qilishning asosiy vazifalari quyidagilar.

1. Korxonaning asosiy vositalarining umumiy hajmini aniqlash va unga baho berish.
2. Asosiy vositalar tarkibini o'rganish. Bunda asosiy vositalar aktiv qismining ko'payishi ta'minlanishi ijobiy baholanadi.
3. Asosiy vositalar holati va harakatini statistik o'rganish.
4. Asosiy vositalarning foydalanish samaradorligini o'rganish.

Korxona asosiy vositalarini tahlil qilishda barcha ko'rsatkichlarini o'rganib, ularga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlab, umumiy xulosalar qilish mumkin.

Korxonalar asosiy vositalarining holati va foydalanish samaradorligini o'rganishda ko'pgina ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi. Bu ko'rsatkichlar tizimini 3 guruhga :

- asosiy vositalar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- asosiy vositalar bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar;
- asosiy vositalardan foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarga bo'lish mumkin.

Asosiy vositalar holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar o'z navbatida quyidagi ko'rsatkichlar bilan ifodalanadi.

- asosiy vositalarning umumiy mablag'lardagi hissasi;
- asosiy vositalar faol qismining asosiy vositalarning umumiy summasidagi ulushi;

- asosiy vositalar eskirish koeffitsienti;
- asosiy vositalar yangilanish koeffitsienti;
- asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsienti;
- asosiy vositalarning hisobdan chiqarilish koeffitsienti.

Korxonaning asosiy vositalar bilan ta'minlanganligini quyidagi ko'rsatkichlar bilan ifodalash mumkin:

- korxonaning fond bilan qurollanganlik darajasi;
- faoliyat natijalarining fondlardagi sig'imi;
- korxona o'z mablag'larining asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi;
- korxona xodimlarining (ishchilarning) texnika bilan ta'minlanganligi va boshqa ko'rsatkichlar.

Korxonaning asosiy vositalardan samarali foydalanishni quyidagi ko'rsatkichlar bilan ifodalash mumkin.


- asosiy vositalarning qaytimi ya'ni har bir so'm asosiy vositalarga qancha mahsulot ishlab chiqarilganligi;
- asosiy vositalarning daromadliligi;
- asosiy vositalarning rentabelligi (foydaliligi).

Korxonaning asosiy vositalarini o'rganishda buxgalteriya hisobi va hisoboti, biznes- reja, statistik hisobot ma'lumotlari, hamda audit. soliq idoralari, tekshiruv ma'lumotlari, inventarizatsiya natijalaridan foydalaniladi. ayniqsa buxgalteriya hisoboti ma'lumotlaridan: shakl № 1 "Buxgalteriya balansi", shakl № 2 "Moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot", shakl № 3 "Asosiy vositalar harakati to'g'risida hisobot" juda zarur hisoblanadi.

Asosiy vositalarni ifodalovchi ko'rsatkichlarga ta'sir qiluvchi omillarni hisoblashda analitik hisob ma'lumotlaridan ham foydalanish lozim.

Korxona asosiy vositalarini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimini qo'yidagi sxemada¹ berilgan.

Asosiy vositalarni ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi



Korxonalarda asosiy vositalarning miqdorining yetarli bo'lishi va holati faoliyat natijalariga juda katta ta'sir qiladi. Asosiy vositalar holatini aniqlaganda ularning korxonaning umumiy mablag'lardagi hissasi, asosiy vositalar tarkibi, yangilanish va eskirish ko'rsatkichlarini hisoblash lozim.

Korxona asosiy vositalarning umumiy mablag'laridagi hissasi (AV.u) asosiy vositalar dastlabki qiymatini balansning jami summasiga nisbatan foizlarda hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlar korxonalarning xalq xo'jaligi tarmoqlariga bog'liq.

Asosiy vositalarning umumiy mablag'lardagi ulushi (Av.u) quyidagicha ifodalanadi:

$$Av.u = \frac{Av \times 100}{B}$$

B

Korxonalar asosiy vositalari ikki guruhga bo'linadi. Asosiy vositalarning mashina, asbob-uskunalar kabi turlari ishlab chiqarishda faol qatnashadi. Shuning uchun bunday asosiy vositalarni faol asosiy vositalar deyiladi. Asosiy vositalar faol qismining umumiy (Avf) asosiy vositalardagi hissasini asosiy vositalar faol qismini (Avf) asosiy vositalar umumiy summasiga nisbati bilan aniqlanadi.

Asosiy vositalarning eskirish koeffitsienti asosiy vositalar eskirish summasini (Av.Es) barcha asosiy vositalar dastlabki qiymatiga nisbatan topiladi va bu ko'rsatkich korxonaning asosiy vositalari qanchalik eskirganligini ifodalaydi.

Asosiy vositalarning yaroqlilik koeffitsienti (Av.Yar) asosiy vositalar qoldiq qiymatining ularning dastlabki qiymatiga nisbatan hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlar bizning misolimizda:

Asosiy vositalar holatini ifodalovchi bu ko'rsatkich, asosiy vositalar eskirish koeffitsienti ko'rsatkichiga teskaridir.

Asosiy vositalar yangilanish koeffitsienti ushbu korxona asosiy vositalarining qanchasi yangilanganligini bildiradi. Bu ko'rsatkich yil davomida qabul qilingan asosiy vositalar summasining asosiy

vositalarning yil oxiridagi umumiy summasining nisbati bilan aniqlanadi.

AV. ishga tushirilgan

AV yang. = -----

AV yil oxiridagi

Asosiy vositalarning hisobdan chiqarilish koeffitsienti vositalarning bir yil davomida hisobdan chiqarilgan summasining asosiy vositalar yil boshidagi qiymatiga nisbatan hisoblanadi. Bu ko'rsatkich korxonada hisobot davrida asosiy vositalarning qancha qismi hisobdan chiqarilganligini bildiradi.

Bu ko'rsatkichlarning birqancha tahlil qilinayotgan ob'ektda bir necha yillar bo'yicha aniqlansa, korxonada asosiy vositalar holatini ifodalash va xulosalar chiqarish mumkin. Bunday ko'rsatkichlarni asosiy vositalarning ayrim turlari bo'yicha ham chiqarish mumkin. Bu bir-biri bilan bog'liq bo'lib, biri-ikkinchisini to'ldiradi va asosiy vositalar holatini to'liq tahlil qilishga imkoniyat yaratadi.

Korxonalarda faoliyatni rivojlantirish uchun asosiy vositalar yetarli darajada bo'lish lozim.

Asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichlarini tahlil qilganda, korxona xodimlarining asosiy vositalarning faol qismi bilan qanday ta'minlanganligi katta ahamiyatga ega. Chunki ishchilar qanchalik mehnat qurollari bilan yaxshi va to'liq ta'minlangan bo'lsa, shuncha mehnat unumdorligi yuqori bo'ladi. Xodimlarning fond bilan qurollanganlik darajasi (Fq) asosiy vositalarning faol qismi summasining xodimlar soniga nisbati bilan topiladi va har bir xodimga qanchalik asosiy vositalarning faol qismi summasi to'g'ri kelishini ifodalaydi.

AV faol qismi

Fq = -----

Xodimlar soni

Korxona faoliyati natijalarining miqdoriga to'g'ri keladigan asosiy vositalar sig'imi asosiy vositalar summasining natija ko'rsatkichlariga nisbati bilan aniqlanadi. Bu ko'rsatkich korxona

faoliyat natijalariga (ishlab chiqarilgan mahsulot, tovaroborot, foyda va shu kabilar) qanchalik asosiy vositalar to'g'ri kelishini bildiradi. Bu ko'rsatkich dinamikada qanchalik kamayib borsa, shunchalik yaxshi.

$$F\text{-lik} = \frac{A \cdot V}{Q}$$


Korxona o'z mablag'larining asosiy vositalar bilan ta'minlanganligi asosiy vositalar summasini o'z mablag'lari summasiga nisbati bilan aniqlanadi va o'z mablag'larining har bir so'miga qancha asosiy vositalar to'g'ri kelishini bildiradi.

$$O'zt = \frac{A \cdot V}{O'm}$$


Korxonaning asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichlari va ularni aniqlash yo'llari quyidagi sxemada ko'rsatilgan.

Asosiy vositalar (AV) holatini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash yo'llari

Ko'rsatkichlar tizimi



Asosiy vositalar (av) bilan ta'minlanganlikni ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash yo'llari



Korxonada asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik ko'rsatkichlarini hisoblangan misolimizdagi ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, har bir xodimga yil boshida 33,3 ming so'mlik asosiy vositalar to'g'ri kelsa, yil oxirida 34,3 ming so'm to'g'ri kelgan ya'ni xodimlarning asosiy vositalar bilan ta'minlanganlik darajasi oshgan. Bu yaxshi ko'rsatkich, agarda ko'proq mahsulot mahsulot ishlab chiqarilib, mehnat unumdorligi oshgan bo'lsa.

Asosiy vositalarning sotilgan mahsulotlardagi sig'imi yil boshidagi 1,090 so'mdan 0,931 so'mga tushgan. Bu ko'rsatkichni ham

ijobiy baholash lozim, chunki har bir mahsulot ishlab chiqarish uchun kamroq asosiy vositalar foydalanilgan.

Korxonalar mavjud asosiy vositalardan samarali foydalanishlari lozim. Ayniqsa bu narsa hozirgi bozor munosabatlari sharoitida qo'shimcha mablag' sarflamasdan ko'proq mahsulot chiqarishga, pirovard natijada foydaning ko'payishiga olib keladi. Demak, asosiy vositalar har bir so'miga qancha mahsulot ishlab chiqarganlik ko'rsatkichi, muhim ko'rsatkichlardan biridir. Bu ko'rsatkich ishlab chiqarilgan mahsulot (bajarilgan ish, ko'rsatilgan xizmat) summasini asosiy vositalar o'rtacha qiymatiga bo'lib topiladi.

$$A.V.q = \frac{Q}{A \cdot V}$$

Bu o'zgarishni asosiy vositalarning qaytimi, foydalanish samaradorligi yaxshilangan deb tushunmog'imiz lozim. Lekin umumiy xulosa chiqarish uchun boshqa ko'rsatkichlarni ham hisoblab, tahlil qilish lozim.

Korxona asosiy vositalarning daromadliligi ma'lum davrda olingan daromad summasining, asosiy vositalar o'rtacha qiymatiga nisbatan hisoblanadi.


$$A.V.D = \frac{\text{Daromadlar} \times 100}{A.V};$$

Asosiy vositalarning foydalilik (rentabellik) ko'rsatkichi foyda (F) summasini, asosiy vositalar o'rtacha qiymatiga nisbatan aniqlanadi.

$$A.V.R = \frac{\text{foyda} \times 100}{A.V}$$

Asosiy vositalar foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlari va ularni hisoblash yo'llari quyidagi sxemada ko'rsatilgan

Asosiy vositalar (av) samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar va ularni aniqlash yo'llari.



Bozor iqtisodiyoti sharoitida korxonalarni boshqarish tizimi, xo'jalik yuritish mexanizmi tubdan o'zgardi. Turli mulk shakliga asoslangan korxonalar erkin raqobat sharoitida faoliyatlarini moliyaviy ahvolini mustahkamlash uchun tahlil qilishlari lozim. Chunki rejali iqtisodiyotda boshqarishni asosiy masala rejani bajarishga qaratiladi, bozorli iqtisodiyotda esa raqobatda yengib chiqish uchun hamma e'tibor, foydani ko'paytirishga yo'naltiriladi.

Korxonalarning moliyaviy ahvolini yaxshilashda mavjud aylanma mablag'lardan samarali foydalanish katta ahamiyatga ega. Buning uchun ularni doimo tahlil qilib turish lozim. Korxona aylanma mablag'larini statistik o'rganganda ularning hajmini hisobot davridaqanday o'zgarganligini, korxona aylanma mablag'lar bilan

ta'minlanganligini, ulardan samarali foydalanish darajalarini aniqlash lozim.

Aylanma mablag'larni tahlil qilish uchun asosiy manba, korxona balansi aktiv qismining II "Joriy aktivlar" bo'limi hisoblanadi. Bu bo'limda hisobot yili boshiga va oxiriga quyidagi aylanma mablag'lar qoldig'i ko'rsatiladi:

Ishlab chiqarish zahiralari, chorva mollar, tugallanmagan ishlab chiqarish, tayyor mahsulotlar, tovarlar, pul mablag'lari, hisob-kitobdagi debitorlardagi mablag'lar.

Buxgalteriya balansi ma'lumotlaridan tashqari, buxgalteriya hisoboti boshqa shakllari, statistik hisobot, auditor tekshiruvi ma'lumotlari, inventarizatsiya va boshqa ma'lumotlardan ham foydalanish zarur.

Korxona aylanma mablag'larini ifodalovchi ko'rsatkichlarni aniqlab, unga ta'sir qiluvchi omillarni tahlil qilib, xulosa va takliflar qilish lozim.

Bu takliflar amalda qo'llansa korxonalar moliyaviy ahvoli mustahkamlanib, raqobatga bardoshli bo'ladi.

Umuman aylanma mablag'larni o'rganganda qilishda, ularning holati, aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganlikni, hamda aylanma mablag'lardan samarali foydalanganlikni o'rganish lozim.

Aylanma mablag'lar holatini quyidagi ko'rsatkichlar ifodalaydi:

- aylanma mablag'larning ma'lum sanaga umumiy summasi;
- aylanma mablag'larning umumiy mablag'lardagi hissasi;
- aylanma mablag'lar tarkibida pul mablag'lari hissasi;
- aylanma mablag'lar tarkibidagi zahiralalar va xarajatlar hissasi;
- aylanma mablag'lar tarkibida debitorlik qarzlar hissasi.

Korxona aylanma mablag'lar bilan ta'minlanganligini:


- aylanma mablag'lar belgilangan me'yorlarining haqiqiy miqdori bilan ta'minlanganlik koeffitsienti;
- korxona asosiy vositalariga to'g'ri keladigan aylanma mablag'lar;
- korxona xodimlariga to'g'ri keladigan aylanma mablag'lar kabi ko'rsatkichlar ifodalaydi..

Korxona aylanma mablag'larining foydalanish samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- aylanma mablag'lar aylanuvchanlik tezligi (kunlarda);
- aylanma mablag'lar aylanuvchanlik koeffitsienti yoki har bir so'm aylanma mablag'lar korxona faoliyati davomida necha marta aylanganligi;
- aylanma mablag'lar rentabelligi;
- aylanma mablag'lar daromadliligi;
- debitor qarzlarning aylanuvchanlik koeffitsienti;
- aylar ma mablag'lar tarkibidagi o'z mabalag'lar hisyasi.

Korxona aylanma mablag'lar tahlilida qo'llaniladigan ko'rsatkichlar tizimi quyidagi sxemada berilgan.

Aylanma mablag'larni (Ay.mabl.) ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi



Korxonalarda aylanma mablag'larni statistik o'rganish ularning umumiy hajmini aniqlash va uning yil davomida o'zgarishini tahlil qilishdan boshlanadi. Aylanma mablag'larning umumiy mablag'lar summasiga nisbati bilan topiladi.

$$\text{AMB} = \frac{\text{Ay.mabl.}}{\text{Balans jami}}$$

